Jamoatchilik fikrini tahlil etish, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqligini ta'minlash asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasiga](#) muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining quyidagi tartibni o'rnatish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin, unga muvofiq ishlab chiquvchi-tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtiriladigan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini jamoatchilik tomonidan muhokama qilish natijalari Adliya vazirligiga (huquqiy ekspertiza uchun) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (ko'rib chiqish uchun) kiritiladi, bunda, qoida tariqasida, kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish natijalari ko'rsatilishi majburiydir.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga uch oy muddatda O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi [Qonunini](#) qayta ko'rib chiqish tavsiya etilsin, bunda shu jumladan quyidagilar nazarda tutilsin:

xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan shakllarini joriy etish;

jamoatchilik nazorati shakllarini amalga oshirish mexanizmlarini batafsil reglamentatsiya qilish, ularni amaliyotda samarali qo'llash;

davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati, tegishli sohalardagi ishlarning holatini yaxshilashda ularning roli va samarali ishtiroki masalalari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (R.S. Qosimov) ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish va moliyalashtirishni ko'zda tutuvchi qarori loyihasini kiritsin, unda, jumladan quyidagilar nazarda tutilsin:

institut tomonidan har yili O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining holati va uni rivojlantirish tendensiyalari to‘g‘risidagi ma‘ruzani O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashining ko‘rib chiqishi uchun kiritish va shundan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berish;

institut tomonidan fuqarolik jamiyati rivojlanishini, jamiyat institutlarining davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni sotsial-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan rivojlantirishga, shu jumladan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirish doirasida qo‘shgan hissasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

4. 2020-yil 1-yanvardan boshlab respublika, viloyatlararo nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun undiriladigan davlat boji stavkalari bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan 3 baravarigacha, viloyat nodavlat notijorat tashkilotlari uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan 1 baravarigacha pasaytirilsin.

2020-yil 1-yanvardan boshlab faoliyatini tuman (shahar), shaharcha, qishloq va ovul hududida olib boradigan nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat boji stavkasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida belgilansin.

5. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklidagi mablag‘lar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti, shuningdek, tuman va shaharlar budjetlarining xarajatlariga qo‘shilsin.

Moliya vazirligi bir oy muddatda mazkur bandning talablaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

6. Belgilansinki, respublikaning barcha davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, ular faoliyatini moliyalashtirish manbalaridan qat’i nazar, ushbu organ va tashkilotlarning budjetdan tashqari manbalari hisobidan majburiy tartibda ularning veb-saytlari yaratiladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi hamda O‘zbekiston

Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ikki oy muddatda:

davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytiga qo‘yiladigan asosiy talablarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va taqdim etsin;

Internet tarmog‘ida respublikaning barcha davlat organlari va tashkilotlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning veb-saytlari mavjudligi va faoliyat yuritishini inventarizatsiyadan o‘tkazsin.

Inventarizatsiya natijalari veb-saytlarga nisbatan yangi talablarni inobatga olgan holda keyinchalik davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi veb-saytlarini yaratish va amaldagilarini modernizatsiya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish uchun ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilsin.

7. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” telekanalida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasidagi vazifalarni keng ko‘lamda tushuntirish va targ‘ib qilishga, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun olimlar, sotsiologlar, tadqiqotchilar, ekspertlar, jamoat arboblari, xotin-qizlar, yoshlar va fuqarolar ishtirokida doimiy faoliyat yurituvchi “munozara maydonchasi”ni tashkil etishga qaratilgan teleko‘rsatuvlar turkumini tayyorlash va namoyish etishni nazarda tutuvchi “Jamoatchilik fikri” tahririyatini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Belgilab qo‘yilsinki, “Jamoatchilik fikri” tahririyatini moliyalashtirish O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining o‘z mablag‘lari hisobidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan teleradiokompaniyaga ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ikki hafta muddatda markaziy davlat telekanallarida mamlakatning sotsial-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy hayotiga oid eng muhim masalalarni muhokama qilish maqsadida doimiy asosida maxsus teleko‘rsatuvlar (jamoatchilik munozaralari) tashkil etilishini ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi kodeksi loyihasini tayyorlash bo‘yicha ishchi guruh [1-ilovaga](#) muvofiq tarkibda tuzilsin, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va shakllangan milliy huquqni qo‘llash amaliyoti asosida nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilikni kodlashtirish va tizimlashtirish uning asosiy vazifasi etib belgilansin.

Ishchi guruh 2020-yil 1-fevralga qadar manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan O‘zbekiston Respublikasi Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi kodeksi loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bilan birgalikda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab to‘lov asosida nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini muntazam ravishda tashkil etsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi (A.X. Saidov) ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan belgilangan tartibda kelishilgan quyidagi loyihalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi to‘g‘risidagi nizom;

Davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining xalqaro standartlarini respublikada joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi.

11. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga ommaviy axborot vositalarida ushbu qarorning maqsad va vazifalarini yoritish yuzasidan maqolalar va mavzuga oid ko‘rsatuvlar tashkil etish tavsiya qilinsin.

12. Mazkur qarorni amalga oshirish bo‘yicha batafsil amaliy chora-tadbirlar rejasi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Mas’ul vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning rahbarlari barcha chora-tadbirlar belgilangan muddatlarda so‘zsiz va sifatli bajarilishini ta’minlasinlar.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-dekabrda qabul qilingan “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2085-son [qaroriga 3-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish kiritilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati sohasida qonunchilikning havolaki normalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish rejasini;

qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.S. Qosimov zimmasiga yuklansin.

Foydalanuvchi adabyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tahlili. Tashkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim-Tadqiqot Markazi. (2022). Ta'lim tizimidagi yangilanishlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. (2023). Sog'liqni saqlash islohotlari va natijalari.
4. Rahimov, M. (2021). O'zbekiston iqtisodiyoti: o'zgarishlar va istiqbollar. Tashkent: Toshkent Universiteti Nashriyoti.
5. Karimova, D. (2022). Ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi. O'zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, 2(3), 45-52.
6. Lex.uz

**O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK , FUQAROLIK JAMIYATI
ASOSLARINING SHAKILLANISHI , AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY
ISLOHATLAR**

Rajabov Xaqnazar Anvarjon o'g'li

Boyto'rayev Sirojiddin

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi :

Xaqnazarrajabov734@gmail.com

ANNOTATSIYA: O'zbekistonda demokratik va fuqarolik jamiyatining asoslari qanday shakllanganini va amalga oshirilgan siyosiy islohotlar haqida batafsil tahlil etadi. Mustaqillikdan so'ngki jarayonlar, xalqaro tajribalar va mamlakat ichida olib borilayotgan islohotlar keltiriladi. Maqola, shuningdek, O'zbekistonning rivojlanish yo'lidagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarga ham e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, siyosiy islohotlar, O'zbekiston, mustaqillik, konstitutsiya, inson huquqlari.

АБСТРАКТНЫЙ:

Подробно анализируется, как в Узбекистане формировались основы демократического и гражданского общества и осуществлялись политические реформы. Представлены процессы, произошедшие после обретения независимости, международный опыт и внутренние реформы. В статье также уделяется внимание проблемам и успехам развития Узбекистана.

Ключевые слова: Демократическое общество, гражданское общество, политические реформы, Узбекистан, независимость, конституция, права человека.

ABSTRACT: It analyzes in detail how the foundations of democratic and civil society were formed in Uzbekistan and the political reforms implemented. Post-independence processes, international experiences and domestic reforms are presented. The article also focuses on Uzbekistan's development challenges and successes.

Key words: Democratic society, civil society, political reforms, Uzbekistan, independence, constitution, human rights.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgach, mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda yuksalish jarayonlari boshlandi. Ushbu jarayonlar doirasida demokratik va fuqarolik jamiyatining asoslari shakllana boshladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar, inson huquqlarini ta'minlash, fuqaro fuqaroligini rivojlantirish, shaffoflik va ishonchni oshirishga yo'naltirilgan qadamlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada O'zbekistonda demokratik muhitni yaratish, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ular o'rtasidagi aloqalar haqida so'z yuritamiz.

1. Mustaqillik va yangi konstitutsiya

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi demokratik jamiyatning asoslarini belgilab berdi. Ushbu konstitutsiya, fuqarolarning qadr-qimmatini, huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston o'zining konstitutsiyaviy asoslari bilan yurtimizni demokratik davlat sifatida rivojlantirishda muhim qadamlarni qo'ydi.

2. Siyosiy islohotlar

O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, xususan, partiyalar, saylov va demokratik institutlarni rivojlantirishga qaratilgan. 2019-yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, partiyalar va davlat idoralari o'rtasida hamkorlik kuchaytirilmoqda. Saylov tizimini isloh qilish, saylov jarayonlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida yangi qonunlar qabul qilingan.

3. Fuqaro jamoalari va noqonuniy tashkilotlar

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi borasida fuqarolik jamoalarining roli juda muhimdir. O'zbekistonning fuqarolik jamiyati faoliyatini yaxshilash uchun ko'plab nodavlat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va jamoatchilik uyushmalari o'z ishlarni boshladi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatishga yordam bermoqda.

4. Inson huquqlari

O'zbekistonda inson huquqlarining ta'minlanishi mamlakatning ichki va tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro huquq normalariga rioya etishga intilayotgan O'zbekiston, inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirdi va o'z ichki siyosatini yanada demokratlashtirishga harakat qilmoqda.

5. Tashqi muhit va xalqaro hamkorlik

O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan o'zaro aloqalarni kengaytirishga intilmoqda. Jahon banki, BMT, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlik qilinmoqda. Ushbu tashkilotlar O'zbekistonning demokratizatsiyasi va fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonlarini tizimli monitoring qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda, fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, shuningdek demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishini ta'minlashda fuqarolik institutlarining rolini kuchaytirish maqsadida:

1. Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti ta'rischilari Kengashining:

Fuqarolik jamiyatini o'rganish institutini — Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti etib (bundan keyin — FJShMQMI);

Fuqarolik jamiyatini o'rganish institutining mintaqaviy (viloyat, shahar) axborot-tahlil markazlarini — FJShMQMIning hududiy bo'linmalari etib qayta tashkil qilish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlansin.

Umumiy shtat birligi 294 xodimdan iborat bo'lgan FJShMQMIning tashkiliy tuzilmasi hamda uning mintaqaviy bo'linmalariga oid namunali tuzilma 1 va 2-ilovalarga muvofiq ma'qullansin.

1 va 2 ilovalar rus tilida berilgan.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti Fuqarolik jamiyatini o'rganish institutining shartnomalari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy voris ekanligi belgilab qo'yilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-iyundagi “Fuqarolik jamiyatini o'rganish institutini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi F-1796-sonli farmoyishida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda FJShMQMI faoliyatida quyidagilar muhim o'rin egallashi belgilab qo'yilsin:

mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy jarayonlarni, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongi yuksalib borishini, ochiq demokratik davlat qurilishi, “kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili amalga oshirilishining muhim sharti sifatida har tomonlama tahlil qilish va baholash;

mamlakatni tadrijiy, bosqichma-bosqich isloh qilish va modernizatsiyalash istiqbollarni tizimli o'rganish, aholining turli qatlam va guruhlari manfaatlarini ifoda etadigan demokratik fuqarolik institutlarini yanada rivojlantirish, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish, jamiyatda millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jarayonlarida mazkur institutlarning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

inson huquqlarini himoya qilish, saylash erkinligi, soʻz va axborot erkinligi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning ochiqligini taʼminlashda fuqarolik institutlari rolini oshirish, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining taʼlim va sogʻliqni saqlash, himoyaga muhtoj aholi qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish, atrof-muhitni asrash va boshqa shu kabilar sohalardagi muhim davlat dasturlarini amalga oshirishdagi samarali ijtimoiy hamkorligini, oʻzaro aloqalarini mustahkamlash;

oʻsib kelayotgan yosh avlodning barkamol rivojlanishiga, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatimiz hayotida munosib oʻrin egallaydigan, mamlakatni yangilash va isloh qilishda haqiqiy hal qiluvchi kuch va tayanch boʻladigan, oʻz hayotiy pozitsiyasi va mustahkam eʼtiqodiga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tizimli tahlil qilib borish;

mamlakatda raqobatdosh koʻp partiyali tizimni yanada rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarni oʻzini oʻzi boshqarish organlarining davlat boshqaruvidagi rolini bosqichma bosqich kuchaytirib borish, ijtimoiy, bozor, sud-huquq islohotlarini amalga oshirish, davlat va hokimiyat tuzilmalarining faoliyati ustidan jamoat nazoratini olib borish, mahallani aholini manzilli ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;

fuqarolik jamiyati shakllanishi, uning institutlari mustahkamlanishi va rivojlanishi, huquqiy demokratik davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan demokratik mamlakatlarning tajribasini chuqur oʻrganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish boʻyicha takliflar tayyorlash.

Belgilab qoʻyilsinki, FJShMQMIning hududiy boʻlinmalari Institut oldida turgan umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tegishli hududlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning rivojlanishiga oid monitoring materiallarini tizimli ravishda umumlashtiradi, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlariga toʻsiq boʻlayotgan, shu jumladan byurokratizm, korrupsiya, rasmiyatchilik, davlat va jamiyat tomonidan olib borilayotgan islohotlar mohiyati va mazmunini tushunmaslik kabi aniqlangan muammolarni tahlil qiladi va ushbu materiallarni Institutga taqdim etadi.

3. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

FJShMQMIning hududiy boʻlimlari oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishi uchun zarur boʻlgan tashkiliy, moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar yaratishni eng muhim vazifa deb hisoblasin;

bir oy muddat ichida FJShMQMIning hududiy bo‘limlari zarur tashkiliy texnika, mebellar, aloqa vositalari bilan jihozlangan alohida shinam binoga muddatsiz bepul ijaraga berish sharti bilan joylashtirilishini ta’minlasin, ajratilgan binolar va xonalarda kapital, joriy ta’mirlash ishlarining o‘z vaqtida amalga oshirilishini tashkil etsin.

FJShMQMI va uning hududiy bo‘limlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha birinchi galdagi tadbirlar ro‘yxati 3-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

3-ilova rus tilida berilgan.

4. FJShMQMI majburiy jo‘natmalar reyestriga kiritilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, moliya, iqtisodiyot, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari hamda boshqa vazirliklar va idoralarning statistik ma’lumotlari;

Oldingi tahrirga qarang.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasining ommaviy kommunikatsiya sohasini monitoring qilish markazining byulletenlari va kundalik ma’lumotlari to‘plami;

(4-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 30-oktabrdagi PF-4578-sonli Farmoni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 45-son, 584-modda)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish xizmati huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar markazining xorijiy matbuot sharhlari va tahliliy ma’lumotnomalari.

5. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi ikki nusxadan “O‘zbekiston Respublikasi qonunlari to‘plami” va davriy nashrlar bilan hamda Institutning samarali faoliyati uchun zarur kitob mahsulotlari (huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy adabiyotlar)ni FJShMQMIga bepul taqdim etsin.

Oldingi tahrirga qarang.

6. Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

(6-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 30-oktabrdagi PF-4578-sonli Farmoni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 45-son, 584-modda)

FJShMQMI zamonaviy aloqa vositalari, shu jumladan hukumat telefoni hamda Institut va uning hududiy bo‘limlari keng qamrovli Internet tarmog‘i bilan jihozlanishini;

FJShMQMIning axborot-kommunikatsiya tizimi modernizatsiya qilinishini, Institutning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga zamonaviy axborot vositalari va texnologiyalari joriy etilishini, uning hududiy bo'limlari zarur kompyuter texnikalari bilan jihozlanishini ta'minlasin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. Mirziyoyev va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi M. Rahmonqulov zimmasiga yuklansin.

Foydalanuvchi adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). Ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2022). Konstitutsiya va qonunlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Inson Huquqlari bo'yicha Milliy Markaz. (2023). Inson huquqlari hisobotlari.
4. Jahon banki. (2023). O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi. (2023). Xalqaro aloqalarimiz.

**O'ZBEKISTON DEMAKIRATIYASI FUQAROLIKNI JAMIYATNI
O'SRIRISH**

Rajabov Xaqnazar Anvar o'g'li
Boyto'rayev Sirojiddin
DTPI Pedagogika fakulteti
Jismoniy madaniyat talabasi :
rajabovxaqnazar23@gmail.com

ANNOTATSIYA: Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo'yicha davlat organiga murojaat qilgan voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki chet davlat fuqarosi yoxud voyaga yetgan fuqaroligi bo'lmagan shaxs;

Kalit so'zlar: Qonun, O'zbekiston Respublika, xalqaro, shartnomasi, milliy, baza, identifikatsiya

АБСТРАКТНЫЙ: Если международным договором Республики Узбекистан установлены иные правила, чем те, которые предусмотрены законодательством о гражданстве Республики Узбекистан, применяются правила международного договора. Совершеннолетний гражданин Республики Узбекистан или гражданин иностранного государства либо совершеннолетнее лицо без гражданства, обратившиеся в государственный орган по вопросам гражданства Республики Узбекистан;

Ключевые слова: Закон, Республика Узбекистан, международный, договор, национальный, базовый, идентификация

ABSTRACT: If the international agreement of the Republic of Uzbekistan stipulates different rules than those stipulated in the legislation on citizenship of the Republic of Uzbekistan, the rules of the international agreement shall be applied. An adult citizen of the Republic of Uzbekistan or a citizen of a foreign country or an adult stateless person who applied to the state body on issues of citizenship of the Republic of Uzbekistan;

Keywords: Law, Republic of Uzbekistan, international, agreement, national, base, identification

Kirish

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish va tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonunchilik

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ariza beruvchi — O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha davlat organiga murojaat qilgan voyaga yetgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki chet davlat fuqarosi yoxud voyaga yetgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs;

bola — o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs;

vatandosh — O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan yoki ilgari uning hududida yashagan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashaydigan shaxs va uning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan keyingi qarindoshlari, basharti, agar ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo‘lsa hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lsa;

yolg‘iz ota yoki ona — bolani tarbiyalayotgan ota (ona), basharti bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlarda ota-onasidan biri haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa yoxud bunday ma’lumotlar tarbiyalayotgan otaning (onaning) so‘zlariga asosan kiritilgan bo‘lsa;

Oldingi tahrirga qarang.

identifikatsiyalovchi ID-kartasi (bundan buyon matnda identifikatsiyalovchi karta deb yuritiladi) — O‘zbekiston Respublikasi hududida identifikatsiyalovchi karta egasining shaxsini va fuqaroligini, shuningdek doimiy ro‘yxatga olinganligini tasdiqlaydigan, egasining shaxsiga doir biografik va biometrik ma’lumotlar kiritilgan elektron jismga

(chipga) ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga yoki chet davlat fuqarosiga yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga beriladigan hujjat;

(3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyundagi O‘RQ-696-sonli Qonuniga asosan oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.06.2021-y., 03/21/696/0553-son)

tirikchilikning qonuniy manbai — ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, tadbirkorlik faoliyatidan yoki mulkdan olingan foyda, pensiya, stipendiya, alimentlar, ijtimoiy nafaqalar, moliyaviy jamg‘armalar yoki oila a‘zolari va boshqa shaxslarning moliyaviy yordami, shuningdek boshqa qonuniy daromadlar;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs — O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lmagan shaxs;

fuqarolikning o‘zgarishi — O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish yoki tugatish;

chet davlat fuqarosi — O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o‘zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lgan shaxs;

O‘zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashovchi fuqarosi — O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqqan hamda xorijga doimiy yashashga chiqib ketish uchun ruxsatnoma rasmiylashtirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

yashash — shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida qonuniy asosda turishi;

yashash guvohnomasi — fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yoki chet davlat fuqarosining shaxsini tasdiqlaydigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashga ruxsat etilganligining tasdig‘i sifatida berilgan hujjat

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o‘zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig‘indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e‘tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagona fuqarolik o‘rnatiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, u qanday asoslarda olinganligidan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdir.

Keyingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasida har bir inson fuqaro bo‘lish huquqiga egadir. Hech kim O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilinishi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z organlari va mansabdor shaxslari orqali O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida mas’uldir, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi esa davlat oldida mas’uldir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda uning hududidan tashqarida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotish to‘g‘risidagi qarorlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan farmonlar tarzida qabul qilinadi va imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Foydalanauvchi adabyotlar

1. <https://lex.uz/>
2. Konstitutsiya
3. Google.com
4. Mehnat kodekisi
5. Fuqarolik kodekisi

O'ZBEKISTONING O'ZIGA XOS TARAQIYOT YO'LI

Boyto'rayev Sirojiddin

Nurbayev xurshid Erkin o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi :

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA: O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, uning tarixiy konteksti, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada O'zbekistonning mustaqil davridan boshlab qanday yo'nalishlarni tanlagani, o'ziga xos rivojlanish strategiyalari va mavjud tajovuzlarga qarshi kurashish yo'llari yoritiladi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki madaniyati va ijtimoiy hayotini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Taraqqiyot yo'li, Iqtisodiy o'zgarishlar, Siyosiy islohotlar, Madaniy rivojlanish

АБСТРАКТНЫЙ: Представлена информация об уникальном пути развития Узбекистана, его историческом контексте, социальных, экономических и политических изменениях. В статье описаны направления, которые выбрал Узбекистан с момента обретения независимости, его уникальные стратегии развития и способы борьбы с существующей агрессией. Путь развития Узбекистана включает не только экономику страны, но также культуру и общественную жизнь.

Ключевые слова: Узбекистан, Путь развития, Экономические изменения, Политические реформы, Культурное развитие

ABSTRACT: Information is provided about Uzbekistan's unique development path, its historical context, social, economic and political changes. The article describes the directions that Uzbekistan has chosen since its independence, its unique development strategies and ways to fight against existing aggressions. The development path of Uzbekistan includes not only the country's economy, but also culture and social life.

Key words: Uzbekistan, Development Path, Economic Changes, Political Reforms, Cultural Development

Kirish

O'zbekiston, markaziy Osiyoda joylashgan, ming yillik tarixga ega bo'lgan davlatdir. 1991 yildan buyon O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida yangi bosqichga o'tdi. Mustaqillik, milliy qadriyatlarni qadrlash, iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy rivojlanishlar mamlakat taraqqiyot modelini belgilovchi asosiy omillardir. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, xalqni har tomonlama rivojlantirish maqsadida asoslangan strategik rejalashtirishni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning O'ziga Xos Taraqqiyot Yo'li

1. Mustaqil Davrning Boshlanishi:

- O'zbekiston 1991 yilda o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar boshlangan. Boshlanishda bozor iqtisodiyotiga o'tish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Iqtisodiy Islohotlar:

- O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot strategiyalari ishlab chiqildi. Davlat, xususi sektorini rivojlantirish, investitsiya jalb qilish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rdi. "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar" dasturi, mamlakatni doimiy ravishda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

3. Siyosiy Islohotlar:

- O'zbekiston'da demokratik jarayonlarni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, quyidagilarga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi: saylov tizimini takomillashtirish, normativ-

huquqiy bazani yengillashtirish va inson huquqlarini himoya qilish.

4. Madaniy Rivojlanish:

- Madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonning boy madaniy merosi, san'at, adabiyot va fan sohalarida rivojlanishga turtki bo'ldi. Uzoq muddatli ta'lim dasturlari, yoshlarni tarbiyalash va kasb-hunar o'qitish tizimlarida yangiliklar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n yillik bayramini munosib kutib olish, istiqbol yillarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida qo'lga kiritilgan katta yutuqlarni,

hayotimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlarni xalqimiz va xalqaro jamoatchilik orasida keng targ‘ib etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vatanimizning betakror qiyofasini va yangi hayot qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini, yurtimiz odamlarining yorqin siymolarini aks ettiruvchi, ko‘p ming yillik tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra san‘atimiz haqida hikoya qiluvchi “O‘zbekiston yuksalish yo‘lida (o‘n yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li)” nomli rangli-bezakli fotoalbom tayyorlansin va nashr etilsin.

2. Mazkur fotoalbomni tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhi ilovaga muvofiq tasdiqlansin

Ishchi o‘n kun muddat ichida mazkur fotoalbomning hajmi, tarkibi, ma’no-mazmuni ifodalangan dastur ishlab chiqsin. Fotoalbomning mazmun-mundarijasini belgilashda, arxiv hujjatlari, fotosuratlar va boshqa tasviriy vositalarni tanlashda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratsin:

O‘zbekistonning o‘ziga xos qiyofasini, milliy tariximiz, yuksak ma’naviyatimiz va boy madaniyatimizni, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashga qodir xususiyatlari va fazilatlarini yorqin lavhalar orqali ko‘rsatish;

o‘lkamizning go‘zal tabiatini, saxovatli zaminimizning beqiyos manzaralarini aks ettirish;

mamlakatimiz boyliklari, tabiiy-mineral zaxiralari va iqtisodiy salohiyatini tasviriy vositalar yordamida namoyon etish;

ko‘p millatli xalqimiz vakillarining o‘ziga xos turmush tarzi, yurtimizda qaror topgan millatlararo totuvlik va osoyishtalik, diniy bag‘rikenglikni aks ettirish;

tarixiy-madaniy obidalarimiz, ularni qayta tiklash, yangi ziyoratgohlar barpo etish yo‘lidagi keng ko‘lamli ishlarning xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini qiyosiy usulda ifodalash;

Vatanimiz ostonasi bo‘lmish poytaxtimiz Toshkent shahrida mustaqillik davrida bunyod etilgan zamonaviy binolar, ravon yo‘llar, mustahkam ko‘priklar, yangi uy-joylar, go‘zal bog‘ va xiyobonlarni aks ettirish.

Yuqorida qayd etilgan O‘zbekistonning tarixi, o‘ziga xos qiyofasi, ulkan salohiyati hamda o‘n yillik mustaqil taraqqiyot davrida yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish yo‘lida qo‘yilgan qadamlar va erishilgan natijalarni, xalqaro jamoatchilik e’tirof

etadigan yutuqlarni bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda fotosuratlar va boshqa hujjatlar asosida yoritish ishchi guruhining asosiy vazifasi ekani belgilab qo‘yilsin.

3. “O‘zbekiston yuksalish yo‘lida (o‘n yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li)” fotoalbomini o‘zbek, rus va ingliz-tillarida nashr etish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasiga topshirilsin. Fotoalbomni Germaniya Federativ Respublikasida chop etish nazarda tutilsin.

4. Davlat matbuot qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi bilan birgalikda fotoalbomni keng miqyosda targ‘ib etish va realizatsiya qilish chora-tadbirlarini belgilasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi fotoalbomni tayyorlash va nashr etish uchun zarur mablag‘larni Davlat matbuot qo‘mitasi taqdim etgan sarf-xarajatlar smetasi asosida Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi hisobidan ajratsin.

6. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi: aerosuratga olish uchun zarur texnik shart-sharoitlarni tashkil etsin; Germaniyada nashr etilgan fotoalbom tirajini Toshkent shahriga olib kelishni ta‘minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi fotoalbom tirajini Toshkent shahriga olib kirishda bojxona to‘lovlarini undirmasdan xizmat ko‘rsatsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Prezidentning Davlat maslahatchisi X.Sultonov va Bosh vazir o‘rinbosari H.Karomatov zimmasiga yuklansin.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot yo'llari" – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. Bayramov Z. "Taraqqiyotning o'ziga xos yo'llari: O'zbekiston tajribasi" – O'zbekiston Fanlar akademiyasi.
3. "O'zbekiston: Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish" – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.
4. Ahmedov D. "Siyosiy islohotlar va ularning ijtimoiy ta'siri" – O'zbekiston Respublikasi Ilm-fan nashri.
5. <https://lex.uz/docs/-1676280?ONDATE2=22.02.2021&action=compare>

XALQ AMALIY SAN'ATIGA OID SO'ZLARNI O'ZBEK INGLIZ TILIDAGI MASALALARI

Sottorova Oysuluv Eshmirza qizi

oysuluvstottorova@gmail.com

Terdpti.xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ABSTRACT

Folk applied art reflects the historical and cultural traditions of every nation. Uzbek folk applied art stands out with its unique patterns, techniques, and terminology. This article analyzes how terms related to Uzbek folk applied art are used and interpreted in other countries. Additionally, it provides a comparative analysis of how these terms are understood in different cultural contexts.

Key words: Do'ppi, so'zana, tillaqosh, gilam, zargarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppichilik, amaliy san'at, madaniy.

ANNOTATSIYA

Xalq amaliy san'ati har bir xalqning tarixiy va madaniy an'analarini aks ettiradi. O'zbek xalq amaliy san'ati o'ziga xos naqshlar, texnikalar va atamalar bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada o'zbek xalq amaliy san'atiga oid so'zlarning boshqa mamlakatlarda qanday qo'llanilishi va ma'nosi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu so'zlar boshqa madaniy kontekstlarda qanday tushunilayotgani qiyosiy ravishda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Do'ppi, so'zana, tillaqosh, gilam, zargarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppichilik, amaliy san'at, madaniy.

KIRISH

Xalq amaliy san'ati har bir xalqning tarixiy va madaniy an'analarini aks ettiradi. O'zbek amaliy san'atiga oid atamalarni xorijiy mamlakatlardagi ma'nosini ko'rib chiqib tahlil qilamiz. Shuningdek, ushbu so'zlar ko'rib boshqa madaniy kontekstlarda qanday tushunilayotgani qiyosiy ravishda chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek xalq amaliy san'ati boy va rang-barang. Unga quyidagilar kiradi: do'ppichilik (milliy bosh kiyimlar yasash san'ati), kashtachilik (matolarni bezash usullari),

zargarlik (ziynat buyumlarini yaratish), gilamdo‘zlik (gilam to‘qish san’ati). Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘ziga xos terminologiyaga ega bo‘lib, uni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki madaniy nozikliklar ham hisobga olinishi kerak.

NATIJALAR

Madaniy atamalarning o‘xshash ekvivalentlari yo‘qligi xalq amaliy san’ati so‘zlari ko‘pincha mahalliy madaniyatga xos bo‘lib, ingliz tilida ularga to‘liq mos keluvchi ekvivalent topish qiyin. Masalan: do‘ppi – “skullcap” deb tarjima qilinadi, lekin bu so‘z o‘zbek do‘ppisining madaniy va estetik xususiyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Tarjima qilingan so‘zning ma’nosining umumlashishi orqali hosil boladi. Ba’zi so‘zlar tarjima qilinganda ularning maxsus ma’nosi yo‘qoladi. Masalan: Suzani – “embroidered textile” deb tarjima qilinadi, lekin bu so‘z o‘zbek madaniyatidagi suzanilarning o‘ziga xos naqshlari va ma’nolarini ifodalash uchun yetarli emas. Ko‘p ma’nodlilik va semantik farqlar orqali tarjimalar. Bir xil ko‘rinadigan so‘zlar turli tillarda turlicha tushuniladi. Masalan, “gilam” ingliz tilida “carpet” yoki “rug” so‘zlari bilan ifodalanadi, lekin bu tushunchalar o‘zbek gilamlarining an’anaviy naqshlari va ranglaridagi ma’noni aks ettirmaydi.

MUHOKAMA

Izoh bilan tarjima qilish atamaning asl ma’nosini tushuntirish uchun qisqa izohlar qo‘shilishi mumkin. Masalan: “Suzani – a traditional Uzbek embroidered textile, often used as decoration or a gift”. Bu yondashuv tarjimaning ma’nosini aniqroq yetkazishga yordam beradi. Transliteratsiya qilish bu ba’zi o‘zbek so‘zlari ingliz tilida transliteratsiya qilinadi va izoh bilan tushuntiriladi: “Do‘ppi – doppi (a traditional Uzbek skullcap).” Kontekstual tarjima bu tarjima madaniy kontekstga moslashtiriladi. Masalan: “tillaqosh – gold embroidery used in Uzbek ceremonial garments.” Madaniy targ‘ibot orqali tarjima o‘zbek xalq amaliy san’atiga oid so‘zlarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish uchun ingliz tilida maxsus lug‘atlar yoki qo‘llanmalar yaratish zarur. Bu, ayniqsa, madaniy merosni asrash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekcha	Inglizcha	Izoh
Do‘ppi	Skullcap/Tradition Uzbek cap	O‘zbek milliy bosh kiyimi

Suzani	Traditional embroidered textile	Kashtado'zlik san'ati
Tillaqosh	Golden embroidery	Tilla bilan bezatilgan kiyimlar
Kashtachilik	Embroidery art	Miliy bezak kashtalar yaratish san'ati
Gilam	Carpet/Rug	Uy bezagi sifatida ishlatiladigan gilam

XULOSA

Xalq amaliy san'atiga oid so'zlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish ko'p jihatdan murakkab jarayon bo'lib, madaniy va lingvistik bilimni talab qiladi. Bunday so'zlarni tarjima qilishda izohli yondashuv, transliteratsiya va kontekstual tarjima usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, xalq amaliy san'atining xalqaro miqyosdagi targ'iboti bu masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat tarjima sifati yaxshilanishiga, balki O'zbekistonning boy madaniy merosini dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

REFERENCES

- <https://oriens.uz/uz/journal/article/ozbekiston-xalq-amaliy-sanati-rivojiga-oid-ilmiy-manbalar-tahlili/> 23.03.24
- <https://universaljurnal.uz> Jild 1 № 8 (2024): UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL Nashr qilingan: 2024-11-25
- Rafiyev, R. O'zbek xalq amaliy san'ati. Toshkent: San'at, 1998.
Солижонов, Ж. (2024). Crafting the lexicon of magic: analyzing JK Rowling's neologisms in translation. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 34-38.
- Kamoljonovich, S. J. R. (2024). AMALIY TARJIMA ELEMENTLARINING ZAMONAVIY KLASSIFIKATSIYASI.
Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central

Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37.

Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI"("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ:" СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>

Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180v>

TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Sottorova Oysuluv Eshmirza qizi

Terdpi xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

oysuluvstottorova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni o'rni haqida muhokama qilinadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimida foydalanishni salbiy yoki ijobiy holatlari, o'rganuvchilarni zamonaviy texnologiyalar asosida qanday shaklda foydalanish tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, platforma, innovatsiya, multimedia, duolingo, memrise, sun'iy intellekt.

ABSTRACT

This article discusses the role of digital technologies in teaching foreign languages. It analyzes the positive and negative aspects of using digital technologies in the education system, as well as how learners can effectively utilize modern technologies.

Key words: raqamli texnologiyalar, platforma, innovatsiya, multimedia, duolingo, memrise, sun'iy intellekt.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirish maqsadida ta'lim tizimini raqamlashtirish va yangi texnologiyalar asosida dars jarayonlarini tashkil qilish maqsadida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Shu orqali raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning til o'rgatish jarayonlari keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan masalan oliy ta'lim tizimida hemis ta'lim dasturi, zoom platformasi keng foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Binobarin raqamli texnologiyalarning chet tilli darslarini qo'llab quvvatlashdagi afzalliklaridan biri shundaki, talabalar o'z darslarini ijodkorlik bilan to'la qonli tashkil etish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ladi. Raqamli texnologiyalarning asosiy

imkoniyatlari multimediali vositalar masalan: audio, video, animatsiyalar va interaktiv darsliklardan foydalanish orqali til o'rganishni qiziqarli qilish. Onlayn platformalar: Duolingo, Memrise, Coursera kabi platformalarning til o'rganuvchilar uchun afzalliklarini ishlab chiqish. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR): turli muhitlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyati masalan; sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan dasturlar roli, tilni avtomatik tahlil qilish: grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish dasturlari (masalan, Grammarly), personalizatsiya: har bir o'quvchining ehtiyojiga mos o'quv rejasi tuzish, til o'rganishda suhbatdosh bo'lish: ChatGPT kabi sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalarning afzalliklari va cheklovlari ham mavjud masalan afzalliklar: joy va vaqt tanlamasdan o'qish imkoniyati, ko'p sonli manbalarga tezkor kirish imkoniyati, talabalar uchun shaxsiy yondashuvni ta'minlash va cheklovlar quyish orqali ulardan to'g'ri foydalanish kerak.

MUHOKAMA

O'qituvchilarning texnologik savodxonligi darajasi oshirish orqali tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning kelajakdagi istiqbollari turtki bo'ladi. Sun'iy intellekt asosida tilni o'rgatishning yanada rivojlanishi hamma uchun ochiq va arzon raqamli platformalar yaratilishi. VR va AR texnologiyalar yordamida immersiv til o'rgatish metodlarining ommalashuviga misol bo'lishi mumkin.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar tillarni o'qitishda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa ulardan to'g'ri foydalanish orqali talim sifatini yanada samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalar infratuzilmani yanada rivojlantirish va o'qituvchilarni zamonaviy vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

REFERENCES

1. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. [URL: <https://opentextbc.ca/teachinginadigitalage/>]
2. Dudeney, G., Hockly, N., & Pegrum, M. (2013). Digital Literacies: Research and Resources in Language Teaching.
3. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates.

4. Levy, M., & Stockwell, G. (2006). CALL Dimensions: Options and Issues in Computer-Assisted Language Learning.

Солижонов, Ж. (2024). Crafting the lexicon of magic: analyzing JK Rowling's neologisms in translation. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(4/S), 34-38.

Kamoljonovich, S. J. R. (2024). AMALIY TARJIMA ELEMENTLARINING ZAMONAVIY KLASSIFIKATSIYASI.

Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'lim fidoyilari*, 18(5), 32-37.

Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>

Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180vv>

ERTA BOLALIK DAVRIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI VA UNING KEYINGI O'QUV MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI

Hamidjonova Hilola Behzod qizi

Samarqand Davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

Gmail: hilolahamidjonovaa@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Saliyeva Ziroat Zokirovna**

Annotatsiya: Mazkur maqola bugungi kunda eng global mavzulardan biri bo'lgan bolani necha yoshda maktabga berish, necha yoshidan boshlab o'qitilsa samaraliroq bo'lishi va erta ta'limni boshlashning bola kelajagiga ta'siri haqida so'z yuritadi. Bu ko'plab davlatlar o'rtasida bahslarga sabab bo'layotganligi tufayli turli xil tajribalar olib borilgan. Erta ta'lim, bolaning aqliy, emosional va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Maqolada, bolalik davridagi o'qitish metodlari, ota-onalar va pedagoglarning roli, shuningdek, bolalar miya rivojlanishidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolada erta ta'limning ta'siri ilmiy tadqiqotlar asosida isbotlanib, bola rivojlanishining kelajakdagi imkoniyatlarini kengaytirishi haqida xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: erta bolalik davri, ta'lim, individual yondashuv, pedagogik metodlar, kognitiv rivojlanish, emotsional va ijtimoiy rivojlanish, akademik muvaffaqiyat.

KIRISH

Erta bolalik davri bolaning miya rivojlanishi eng tez va faol bo'ladigan davrdir. Bu davrda bolaning dunyoqarashi shakllanadi, o'qish, yozish va yodlash kabi asosiy bilimlarni o'zlashtirishni boshlaydi. Aqliy rivojlanish, til o'rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari aynan bu davrda shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning miya tuzilmasi va uning faoliyati ushbu davrda sezilarli darajada o'zgaradi. So'zlarni tez yodlaydi va fantaziyalari kuchli bo'ladi. Shuning uchun, erta ta'lim bolaning keyingi o'quv jarayonlari va umuman hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy omil hisoblanadi.

Erta ta'lim bolaning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda bola boshqa bolalar bilan muloqot qilishni, o'ynashni, hissiyotlarini boshqarishni o'rganadi. Pedagog va ota-onalar, bolaga o'zini boshqarish, dushmanlikni yengish, o'z fikrini ifoda etish kabi ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak. Shu bilan birga, bola o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganib, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va mustaqil bo'lishga boshlaydi. Boshqalar bilan muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni

rivojlantirish va hissiy holatlarni tushunish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.. Shvetsariyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 5 yoshda maktabga brogan bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini tezroq rivojlantirishi, guruhda ishlash, boshqalar bilan muloqot qilishda osonlik yaratishi va konfliktlarni hal qilishda yaxshilanishi aniqlangan.

Erta bolalik davrida ta'limning muvaffaqiyati ko'pincha ota-onalar va pedagoglarning roli bilan bog'liqdir. Ota-onalar bola uchun eng yaqin va asosiy o'qituvchilar bo'lib, ularga yordam berib, muhim qadriyatlar va ko'nikmalarni o'rgatishadi. Ota-onalar bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularning yaratish va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar uyda farzandi bilan bemalol shug'ullanishi, ular bilan yanada yaqin bo'lishi va shu orqali o'z farzandlariga ta'sir o'tkazishi mumkin. Pedagoglar esa, bolaning intellektual rivojlanishiga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, individual yondashuv va pedagogik metodlarni qo'llash orqali bolalarning o'quv faoliyatlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Pedagoglar bola psixologiyasini tushunganligi sababli farzand ta'lim olishida ularning ro'li katta, ayniqsa bu yoshda bo'ladigan krizislar bolani tushkunlikka tushurib qo'yishi ehtimoldan yiroq emas. Aynan shu vaziyatda ota-onalar va pedagoglar birlashib harakat qilishsa bola bu holatdan tez chiqib ketadi hamda o'qish samaradorligi ortadi. Niderlandiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 5 yoshida ta'limni boshlagan bolalar o'qish va yozishda, shuningdek, til o'rganishda yaxshiroq natijalarga erishadilar.

Erta ta'limning bolaning keyingi o'quv muvaffaqiyatiga ta'siri bevosita aloqadordir. Erta yoshda olingan ta'lim nafaqat o'quv ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki bola o'qishga bo'lgan qiziqishini va mustahkam o'quv odatlarini shakllantiradi. Maktabgacha ta'limda to'g'ri yondashuv, bolaning o'qish va o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, erta ta'lim bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi, o'zini boshqarish, samarali va mustahkam o'quv odatlarini shakllantirishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, bola maktabda va keyinchalik oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qishiga yordam beradi.

Ko'pgina davlatlarda aynan shu mavzu bo'yicha ko'plab bahslar va tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlarga ko'ra hozirgi zamon talabiga mos ravishda qariyb 80% natijalar ijobiy baholangan. Kanadada amalga oshirilgan tadqiqotlar 5 yoshda maktabga brogan bolalarning hissiy va motivatsion jihatdan yuqori darajaga chiqishlarini ko'rsatmoqda. Ular o'zlarini mustaqil va o'z imkoniyatlarini kengroq tushunadilar.

Erta ta'limda faqat formal o'qitish emas, balki erkin o'yin va tajriba ham muhim o'rin tutadi. Bola o'yinda boshqa bolalar bilan o'ynash, yangi vaziyatlarga moslashish, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'yin orqali bola mantiqiy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va o'zini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, bolaning kognitiv rivojlanishiga, ijodkorligini oshirishga yordam beradi. Finlandiyada o'rganilgan tajribalarga ko'ra 5 yoshida maktabga brogan bolalar o'z bilimlarini tezroq oshiradilar, ayniqsa matematika va til o'rganishda. O'yin va tajriba orttirish orqali bola nafaqat bilimlarni o'zlashtiradi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Shu bilan birga ba'zi davlatlarda 5 yoshda maktabga borishning salbiy tomonlari ham ko'rsatilgan. Masalan, bolalarning o'ta stressli va tarbiya jarayonida o'qitish va o'ynash o'rtasidagi muvozanatning buzilishi. Ba'zi bolalar bu yoshda o'zlashtirishga qiynaladi. Bu vaqtda ular jismoniy va ruhiy jihatdan hali u jarayonga tayyor bo'lishmaydi. Shuning uchun bu holat ularga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, erta bolalik davridagi ta'lim nafaqat aqliy, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishga ham ta'sir qiladi. Bu davrda to'g'ri ta'lim, bola ongining rivojlanishiga, o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, o'quv muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning bu jarayonda o'ynagan roli bolaning keyingi ta'limidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun, bolalarga erta yoshdan boshlab sifatli ta'lim berish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shapiro, L. (2015). *Early Childhood Education: A Developmental Approach*. London: Routledge.
2. Arnold, D., & Loughlin, J. (2017). *Social and Emotional Learning in Early Childhood*. New York: Springer.
3. National Scientific Council on the Developing Child. (2007). *The Science of Early Childhood Development*. Harvard University.
4. Garbarino, J. (2016). *The Influence of Early Childhood Education on Later Academic Success*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Miller, E., & Almon, J. (2009). *Crisis in the Kindergarten: Why Children Need to Play in School*. College Park: Alliance for Childhood.
6. Berk, L. E. (2013). *Child Development (9th ed.)*. Boston: Pearson Education.
7. Bolalar psixologiyasi <https://uz.wikipedia.org>
8. <https://www.ziyouz.com>

SEASONAL CUSTOMS RELATED TO AGRICULTURE IN THE MIDDLE ZARAFSHAN VALLEY

Shakhlo Torayeva

Torayevashaxlo7@gmail.com

Bachelor's student, Department of Archaeology,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ABSTRACT

The article discusses the emergence and development of agricultural culture in the Middle Zarafshan Valley, as well as the formation of customs related to it, particularly seasonal customs.

Keywords

Zarafshan Valley, customs, seasonal rituals, Politimet, agriculture, Navruz, "Sust Khotin" (Lazy Woman), Melon Festival, Bulung'ur, Bog'ibaland, Fig Festival.

Introduction. In his speech at the celebration of "Farm Workers Day," President Shavkat Mirziyoyev stated: "A farmer is the sturdy pillar of life, the strong foundation of existence, and this is no exaggeration. The abundance, joy, and prosperity of the people come primarily from the hard work of those who sow seeds and grow invaluable gifts of nature." The farmer symbolizes vast fields, gardens, various delicacies on our tables, weddings, festive days, and all of life itself.[9] The emergence and development of agricultural culture have played a significant role in the formation and advancement of ancient civilizations. The earliest states in world history emerged in regions where agricultural societies developed. Many tribes and peoples, who lived for thousands of years by hunting and gathering and did not practice agriculture, could not reach the level of statehood. The earliest states emerged in the 4th millennium BC in Mesopotamia (between the two rivers) and ancient Egypt. Over 10,000 years ago, these areas began transitioning from hunting and gathering to agriculture and the domestication of animals — the shift towards pastoralism. Gradually, agriculture spread from these regions to neighboring areas (Caucasus, Iran, Central Asia, India, and China). By the 3rd-2nd millennium BC, there were established historical and

cultural connections between the ancient Eastern countries. Archaeological findings show that by the middle of the 2nd millennium BC, in Uzbekistan (Surkhandarya region), the process of transitioning to early statehood began, based on the development of ancient agricultural culture. This process had its own unique features and laws of development. Once, A.V. Vinogradov and E.D. Mamedov, based on their comprehensive research, hypothesized that during the 7th-8th millennia BCE, the climate in Central Asia was relatively mild. The fauna and flora were similar to the modern world. As a result, by the end of the Mesolithic and the beginning of the Neolithic, the areas of Central Asia suitable for habitation were settled by primitive humans. However, these people lived in different natural, ecological, and climatic conditions across mountainous, foothill, and plain regions. This led to the emergence of a number of distinctive archaeological cultures: the Joytun culture occupied a small part of the Kopet Dag mountain plains; Hisor and the central and eastern parts of the Pamirs; the Kaltaminor culture in the lower reaches of the Amu Darya; the ancient regions of the Kyzylkum and Zarafshan; the Sazagan culture in the Fergana and Middle Zarafshan regions; and the Ustyurt culture. The Zarafshan Valley in ancient times was a favorable geographical area for human settlement. Like all the major and minor river basins of the Eastern irrigation, the emergence of ancient farming cultures in the middle of Central Asia, particularly in the Zarafshan Valley, was connected to the development of irrigation networks, the construction of waterworks, and the growth of irrigation agriculture.[1.190]

Main part. The Zarafshan Valley is located in the central part of Central Asia, between the Turkistan-Oqtov and Zarafshan mountain ranges. The eastern mountainous part of the valley is in Tajikistan, while the western foothill and plain parts lie within Uzbekistan. The valley was formed through tectonic processes. The Zarafshan Valley begins from the Zarafshan glacier (at an elevation of 2775 meters) and stretches westward to the sandy desert (at an elevation of 185 meters), covering a distance of 781 kilometers. Over this distance, the valley runs in a westward, southwestward direction, gradually descending and widening. In the eastern mountainous part of the valley, there are six terraces. Up to the city of Panjakent (300 km away), the valley is narrow and deep, with the Turkistan and Zarafshan mountain ranges rising steeply on either side. The Zarafshan River, in its upper reaches, has created a broad valley (4-5 km wide) due to glacial movement. At the point where the Kishtutsoy River flows into the Zarafshan, the valley becomes very narrow, with the steep mountain slopes rising sharply from the riverbanks. In the lower part of the valley,

it widens, and once it enters Uzbekistan, its width increases to 60–70 kilometers in some places (in the Bukhara region). During periods of flooding, water inundations also occurred, and in the Zarafshan Valley, this was referred to as "Marzob," which usually happened in April. The length of the Zarafshan Valley in Uzbekistan is approximately 480 kilometers, and in this region, the Samarkand, Bukhara, and Qorako'l oases are located. The Samarkand oasis is situated in the Samarkand depression, surrounded by relatively low mountains: to the north by the Gubdintog', Oqtog', and Qoratog', and to the south by the Qoratepa, Zirabuloq, and Ziyovuddin mountains. The Zarafshan Valley in this area is quite wide, up to 50 kilometers. The historical sources mention the name "Zarafshan" starting from the early 18th century, but written information about the river and its valley dates back to ancient times. The word "Politimet" in ancient Greek means "honorable," "great," or "mighty." According to the famous Russian scholar V. Livshits, the term is mostly explained in historical sources as the Sogdian "Namich," which conveys the meaning of "majestic" or "significant." The current name "Zarafshan" means "Zar" (gold) and "Afshon" (disperser or spreader).

The name of the river is not related to gold, but rather it is based on the concept of water being as precious as gold for the area it flows through, which serves as a source of life. This interpretation is closer to the truth. According to the prominent Central Asian historian S. Tolstov, the name of the river is also linked to the ancient "Alay" people, who were ancestors of the Ossetians, and the name of this people is associated with the Scythian tribes. The words "afshin" and "afshon," meaning "disperser" or "spreader," are still preserved in the Ossetian language.[3.3-56]

The term "agriculture culture" originally meant "to cultivate the land," and later expanded to include other fields, eventually evolving into the more general term "to create culture." Due to agricultural practices and the cultivation of plants, humans, as children of nature, have continuously demonstrated their creative abilities. Through their skills and hard work, people have artificially domesticated the hundreds of plant species in nature and transformed them into agricultural products.[2,87] Irrigated agriculture mainly developed in the ancient oases of Khwarezm, Bukhara, Samarkand, Tashkent, the Kashkadarya and Surkhandarya basins, and the Fergana Valley. Irrigated agriculture required immense labor. The construction of large irrigation structures, along with their regular cleaning and maintenance, demanded significant financial resources and the organized effort of many people. Due to the varying natural geographical conditions across different regions, the types of crops and irrigation methods differed. In particular, the mountainous and foothill areas of the Samarkand

region, including Nurobod, Koshrabot, Urgut, and Payarik, primarily focused on crops such as wheat and grapes, while regions like Bulung'ur, Jomboy, Pastdarg'om, Paxtachi, and Oqdaryo specialized in secondary crops such as vegetables and fruits. For rural residents, the main sources of income were agriculture and livestock. Through agriculture, people sustained their lives and maintained their households. In this lifestyle, agricultural traditions and rituals formed. According to researchers, Uzbek rituals are divided into two main categories: family and domestic rituals, and seasonal rituals.[4.134]

Among the widely practiced and nationally significant seasonal rituals in Uzbek culture, some are particularly notable. According to some researchers, Uzbek seasonal rituals can be classified into the following categories: 1) winter rituals like gap-gashtak, yasa-yusun; 2) spring rituals like Nowruz, bird calling, tulip or red flower festivals, mud ceremonies, and the "lazy wife" festival; 3) summer rituals such as the "Melon festival" and "Choy Momo"; 4) autumn rituals like the harvest-related "Mihrgan," "Oblobaraka," "Wind calling," and "Grape festival."

Nowruz, the famous holiday celebrated across all of Central and West Asia, has been observed for millennia. This festival is connected to the agricultural calendar and marks the spring equinox, around March 20-21. In the works of Beruni and Omar Khayyam's "Nowruz-nama," as well as in other sources, customs related to the celebration, such as watering or sprinkling the earth, exchanging greetings and gifts, riding on swings, distributing sweets, marking the harvest cycle, and bathing in rainwater, are mentioned.

One of the folk festivals celebrated during Nowruz is the "Darveshona" festival. This festival, which has been known by this name for thousands of years, takes place at the beginning of the year, during the spring season. The ritual, which originated before Islam, involves villagers gathering near a river or road in early spring, where they sacrifice an animal and cook food. This food was meant for travelers, beggars, and wanderers passing through. The name "Darveshona" reflects this practice, as it was intended for wandering dervishes, travelers, and others in need.

According to the beliefs of our ancestors, water, fire, earth, and air were considered sacred. After eating food prepared over sacred fire, any leftovers were cast into the water, symbolizing the removal of misfortune and the arrival of good. The main dishes served during this ritual were "Moshova, goja, yorma, and halim", which

were considered to be special foods. In ancient times, shepherds, service providers, cooks, and village leaders were appointed to take care of village matters during these rituals. This custom, though modified, continues to this day.

In early spring in Uzbekistan, particular attention is given to cleaning and preparing the irrigation canals and ditches for the new season. As such tasks were too large for individual households, the entire village or district would contribute in a collective effort known as "Community work." In ancient times, villagers would often complete agricultural work through this method. Clearing vineyards, cutting and pruning vines, gathering hay, collecting fruit, and cleaning large canals and main irrigation systems were all carried out through "Community work". The saying, "The dust of a lone horse does not rise, even if it does, it won't make a sound," reflects this communal effort.

In ancient times, during periods of drought when rain did not fall as expected in spring or autumn, our ancestors performed special rain-calling rituals. This custom continues to be practiced today in the Boysun district of Surkhandarya, where folk performers skillfully carry out and demonstrate these traditions. Villagers—men, women, and children—would gather in the fields and pray to the god of rain, asking for a downpour to bless the land.

Slow wife, sultana wife,
Her hem is a field, wife.
What does the slow wife need?
Pouring, pouring rain is what she needs...
(Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Sust xotinga ne kerak?
Sharros, sharros yomg'ir kerak...)

The tradition of the "Sust Xotin" (Lazy Wife) ritual originates from pre-Islamic times, dating back to the era of Avestan and Zoroastrian practices. It is a ritual born out of religious beliefs and worship. This ritual is also known by other names such as "Water Wife" or "Milk Wife". During the ritual, a large effigy in the form of a woman is created using branches and small twigs. This effigy is placed in the center, and people

walk around it while chanting specific prayers. Water is fetched from a well or stream and poured over the effigy.

The practice of this tradition was not limited to Central Asian nations but was also common among Afghans, Pakistanis, and Indians. According to some reports, the "Lazy women" ritual used to take place in villages 40-50 years ago, occurring 2-3 times a year, especially in the spring. [5.131] In the villages of Shorchik and its surroundings, as well as among Uzbek communities in Southern Tajikistan, the ritual was primarily carried out by men. In this ritual, instead of an effigy, a person would wear a woman's dress, and water would be poured over them. The custom of burning or throwing the effigy into an old well at the end of the ritual indicates that it is a remnant of sacrificial practices from ancient times. Ethnographic studies show that early sacrifices often involved humans, especially the elderly or young girls (in the Hindu tradition), and later shifted to animals or inanimate objects, like in the story of Prophet Ibrahim. Thus, the ritual of burning or throwing the effigy into a well is considered a symbolic form of human sacrifice. [7.104]

Agricultural Rituals and Traditions. In agricultural traditions, particularly those related to the summer harvest and wheat harvesting, there are unique customs filled with ancient beliefs. Before harvest, when crops begin to ripen or when grains are planted, a scarecrow is made in the form of a human and placed in the center of the field to protect the crops from birds. This custom is considered a way to protect the harvest. One such ritual is "Hayri Hudoyi," which takes place before the harvest season. In the Zarafshan Valley, especially among the Uzbeks of Samarkand, before starting the Hayri Hudoyi, nine loaves of bread are baked, and smoke is produced. The owner of the house or the farmer sacrifices an animal, usually a rooster, and the elders, workers, and villagers gather for the ritual. The village mullah recites Quranic verses, and prayers are offered for the prosperity of the crops. The meat from the sacrificed animals is used to prepare a meal for the guests, and after eating, everyone prays for the success of the harvest. [8] The origins of this ritual go back many centuries. It is considered a charitable act for the sake of God, including practices such as reciting Quranic verses, offering prayers, and making sacrifices. Ethnologist E.B. Taylor considers rituals like "Hayri Hudoyi" as characteristics of humanity's early developmental stages, similar to early petitions and prayers. [6.138]

Harvest Festivals. In autumn, there are several harvest festivals such as "Harvest Festival", "Melon Festival", and "Grape Festival". The "**Harvest Festival**"

is a traditional celebration of agricultural workers, also known as "Cotton Festival" until 1972 in Uzbekistan. The festival is held at the end of the harvest, particularly after the collection of crops like wheat and cotton. In Samarkand, this festival is widely celebrated with exhibitions, agricultural fairs, artistic performances, sports competitions, and public festivities. One such event is the "Tomato Festival", which was first held in the Bulung'ur district of Samarkand. This festival showcases various tomato varieties, their cultivation methods, prices, and unique characteristics, along with an exhibition of processed products from local factories.

Fig Festival in Samarkand.In the Bog'ibaland neighborhood of Samarkand, the Fig Festival has been held for the past two years. Participants have the chance to visit the 40-hectare fig orchards, which are considered part of the gardens of Amir Timur. The figs grown here are rich in microelements and are known for their unique qualities. The figs grown elsewhere in Samarkand do not taste as good as those from the Bog'ibaland orchards. This is likely due to the orchards being located near the Cho'ponota hills and close to the Zarafshan River. Historical records indicate that the Bog'ibaland orchards date back several centuries, with the "Baburnama" mentioning a garden called "Bog'ibaland" built by Amir Timur for his beloved granddaughter, Oqbegin.[10]

Conclusion.The Zarafshan Valley is one of the most fertile and culturally rich regions in Uzbekistan. Its development is closely linked to the Zarafshan River, which has provided the region with water for farming. As agriculture became the main way of life, many rituals and traditions were created around it. The customs and rituals related to farming reflect the region's rich cultural heritage and the community's deep connection to nature, faith, and prosperity. These traditions continue to thrive and evolve, preserving the ancient agricultural customs of the region.

LIST OF REFERENCES USED

1. Холматов Н. Сазаганская культура (Неолит среднего Зарафшана) Т.2014
2. Исо Жабборов, Узбек халк, этнографияси. Тошкент,1994.
3. А.Р.Мухаммаджанов, К,уйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи.Тошкент ,1972.
4. А.Ashirov, SH.Atadjanov,Etnologiya. Toshkent , 2008.
5. Mahmud sattor, O'zbek udumlari. Toshketnt,2007.
6. Адхамжон Аширов,Узбек халк,ининг к,адимий эьтик,од ва маросимлари, Тошкент 2007.

7. .Исо Жабборов, Үзбек турмуш тарзи ва маданияти.Тошкент,2003.
8. Dala tadqiqotlari Samarqand viloyati Bulung'ur tumani "Nurli yo'l MFY. To'rayev Mavlon.65-yosh.
9. <https://prezident.uz>
- 10.<https://zarnews.uz>

QOBILIYAT

Ismoilov Abdumalik Maxmayusuf o'g'li

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

ANNOTATSIYA

Qobilyat, ya'ni insonning ma'lum bir faoliyatni bajarishdagi tabiiy imkoniyatlari va qobiliyatlari haqida so'z yuritiladi. Qobiliyatlar insonning o'rganish, ijod qilish va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishida muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, ijod, o'rganish, ijtimoiy muhit, imkoniyatlar

АБСТРАКТНЫЙ:

В данной статье рассматривается понятие "способности", то есть естественные возможности человека выполнять определённую деятельность. Способности играют важную роль в обучении, творчестве и социализации человека.

Ключевые слова: способности, творчество, обучение, социальная среда, возможности.

ABSTRACT:

This article discusses the concept of "ability," which refers to a person's natural capabilities and potentials to perform certain activities. Abilities play a crucial role in learning, creativity, and finding one's place in society.

Key words: abilities, creativity, learning, social environment, potentials.

Kirish

Qobiliyat insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Har bir insonda tug'ma qobiliyatlar mavjud bo'lib, bu qobiliyatlar o'z navbatida o'z vaqtida rivojlanishi va transformatsiyalanishi mumkin. Qobiliyatlar ta'lim jarayoni va shaxsiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada qobiliyatlar haqida o'zaro bog'liq yaxshi va yomon taraflar, shuningdek, ularni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

1. Qobiliyatlarning turlari

- Intelektual qobiliyatlar: muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash.
- Ijodiy qobiliyatlar: san'at va ijodiy faoliyatni anglash.
- Muloqot qobiliyatlari: boshqa insonlar bilan to'g'ri aloqa qilish.

2. Qobiliyatlarni rivojlantirish usullari

- O'qish va bilim olish.
- Pratik tajribalar orqali o'rganish.
- Mentorlik va treninglar.

3. Qobiliyatlarning ijtimoiy konteksti

- Jamiyatda muvaffaqiyatga erishishda qobiliyatning roli.
- Qobiliyatlar va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish.

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi.

Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektдан u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan

ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalari aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholik (qarang Daho) namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi

Qobiliyat – insonning ma'naviy qiyofasiga xos xislatlardan biri, uning individual salohiyati, imkoniyatlarini ifodalovchi tushuncha. Qobiliyat bilimdan muayyan darajada farqlanadi. Chunonchi, bilim bu mutolaa natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tabiatiga xos xususiyati sanaladi. Qobiliyat tushunchasiga yondosh va turdosh atamalar qatoriga “ko'nikma” hamda “malaka” iboralarini kiritish mumkin. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik qobiliyat bilan aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik xususiyatlarga asoslanib, muayyan faoliyat talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va bu jarayonda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga qurbi yetadigan xususiyatlar sintezi tushuniladi. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat – bu kuzatuvchanlik, ya'ni insonning fahmlash, obyektidan muayyan jihatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Bu holat inson tomonidan narsalarning o'ziga xosligini, ijodiy faoliyat mahsuli materiallarini ko'ra bilish imkonini namoyon qiladi. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan yana biri – narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. Qobiliyat shaxsning shakllanish va rivojlanish natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Mazkur manba ko'pincha “zehn” tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan faoliyatga yoki ko'plab narsalarga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, moyillik va

intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish kerak. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik mahsulidir. Qobiliyatlar umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyatlar tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatning reja asosida rivojlanishida oz kuch sarflagan holda katta samara olish imkoniyati mavjud.

Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishining quyidagi yo'llarini ajratish mumkin:

1) ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish va faoliyat natijalari sifatiga binoan, tabiiy zehn nishonalarni aniqlash orqali; 2) mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini takomillashtirish; 3) umumintellektual vazifalarni bajarish; 4) noyob qobiliyatni takomillashtirishning innovatsion vositalarini qo'llash; 5) shaxsning faollik alomatlarini imkon darajasida rivojlantirish; 6) inson shaxsiga individual munosabatni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa Talant va daholik (geniylik) qobiliyat bosqichlari hisoblanadi. Muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyatlar (iste'dodlar) majmuasi talant deyiladi. Muayyan jamiyat va millat hayotida ijtimoiy-tarixiy faoliyatda namoyon bo'luvchi yuksak darajadagi iste'dod, aql-zakovat taraqqiyotining cho'qqisi, nodir individual xususiyat daholik deb ataladi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. o'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi. Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas.

Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig`indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta`siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo`ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo`lib, shuning bilan birga u ma`lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o`zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko`nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko`nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. qamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta`minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo`lga kiritiladi. qobiliyatli, ammo noshut inson ko`p narsaga erisha olmaydi. qobiliyat ko`nikmada ro`yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko`nikma va malakalari ko`p qirrali va mukammallashgan bo`ladi. Shuning bilan birga ko`nikma va malalakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to`ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko`nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik bu endi qobiliyatning o`zginasidir. Demak, qobiliyat ko`nikma va malakalarning paydo bo`lishi jarayonida shakllanadi.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo`lib, u kishiga turli-tuman talablar qo`yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o`z qobiliyatligini ko`rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo`lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o`ziga xos tuzilishi mavjud. qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko`nikmasidir. Bu individual narsaning o`ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang`ich materialni ko`ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o'rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir. Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin. Pedagog va psixolog Skolovinskiy ko'r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyatini emas, balki adabiy qobiliyat bilan, boshqarish yordami bilan to'ldirish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o`zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o`lchash muammosi bilan ko`proq chet el psixologlari (Kettell, Termen, Spirmen) va boshqalar shug`ullanganlar. Ular kattalarda kobiliyatni o`lchash usuli sifatida aqliy iste`dod testlaridan foydalanganlar.

Bolaning aqliy iste`dod koeffisenti IQ aqliy Yoshi Bolaning haqiqiy Yoshi Bu usul odamning aqliy qobiliyatlar egasi ekanligini emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashtirib bo`lmaydigan biror bir xildagi ma`lumotlar, ko`nikma va malakalar borligini namoyon qiladi.

Foydalanuvchi adabyotlar

1. Usmonova, G. "Inson qobiliyatlari: nazariya va amaliyot".
2. Karimov, I. "Ta'lim va qobiliyatlarning o'zaro aloqasi".
3. Smith, J. "The Role of Abilities in Personal Development".
4. <https://oyina.uz/uz/teahause/2715>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>
6. <https://azkurs.org/qobiliyatlar-haqida-tushuncha-umumiy-va-maxsus-qobiliyatlar-go.html>

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA EKSTRIMAL TURIZMGA ETIBOR BERISH NATIJALARI

Hazratqulov Lochinbek Nodir o'g'li

Uralov Lochinbek Mamaraimovich

Sharifov Abdulaziz Baxodir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Bu maqolada O'zbekistonning turizmi qay darajada va qaysi sohalari rivojlanganligi va ekstrimal turizmga etibor berilagandan so'ng buning Ozbekiston iqtisodiyotiga qanchalik foyda olib kelishi va Ozbekiston turizmi ham jahon davlatlari singari turizmga raqobatbardosh davlat bolishi haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Ekstremal turizm, Off-road safarlari, rafting va kanoeda, kayaking, snoubord, parapanerizm, trekking, kamping joylari,

O'zbekistonga 2023-yilgi turistlarning kelishi (2023-yil yanvar-may): Tojikiston: 30,6% (797,8 ming nafar) Qozog'iston: 25,2% (656,5 ming nafar) Qirg'iziston: 24,% (649,5 ming nafar) Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqalar: Qolgan 19,3% Turizm yo'nalishlari bo'yicha qiziqish: Madaniy va tarixiy turizm: ~50% Gastronomik turizm: ~20% Ekoturizm va sport: ~15% Ziyorat turizmi: ~15% 2023-yilda O'zbekistonga taxminan 7 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. Bu 2022-yilga nisbatan sezilarli o'sish bo'lib, o'rtacha qolish muddati to'rt kungacha uzaygan. Sayyohlarning asosiy oqimi qo'shni mamlakatlardan kelgan: Qozog'iston: 2023-yilda 1 million 151 ming 400 nafar sayyoh kelgan. Qirg'iziston: 2023-yilda 1 million 151 ming 400 nafar sayyoh kelgan. Tojikiston: 2023-yilda 1 million 151 ming 400 nafar sayyoh kelgan. Shuningdek, Rossiyadan ham sayyohlar soni oshgan. 2023-yilda Rossiyadan O'zbekistonga taxminan 1 million sayyoh kelishi kutilgan. Sayyohlarning o'rtacha sarflangan mablag'i 323 dollarni tashkil etgan. O'zbekiston hukumati 2023-yilda sayyohlar sonini 7 millionga yetkazishni rejalashtirgan edi. Umuman olganda, 2023-yilda O'zbekistonda turizm sohasida sezilarli o'sish kuzatildi, bu mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Agar O'zbekiston ekstrimal turizmni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratsa, bu sayyohlar sonining sezilarli darajada oshishiga olib kelishi mumkin. Ekstremal turizmning keng tarqalgan yo'nalishlari va O'zbekiston uchun mos imkoniyatlar quyidagicha bo'lishi mumkin: Tog'li va cho'l hududlarda sarguzashtli faoliyatlar Chimgan va Chatqol tog'lari: Tog'larda trekking, alpinizm, paragliding va velosportni rivojlantirish mumkin. O'zbekistonning go'zal

tog‘li hududlari (masalan, Chimgan, Beldersay) ekstrimal turizm uchun juda qulaydir. Karakum va Kyzylkum cho‘llari: Cho‘l safarlari, qum tog‘larida piyoda sayohatlar va avtomobil safarlari uchun imkoniyatlar mavjud. Daraxtlar va suvda ekstremal sportlar Suv sportlari: O‘zbekistonning ko‘llarida (Charvak, Aydarkul) suzish, kitesurfing, velosipedda suzish va boshqa suv sportlari uchun joylar yaratish mumkin. Rafting va kanoeda sayohatlar: Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida rafting va kanoeda sportlarini rivojlantirish. Tajribali sayyohlar uchun maxsus mashrutlar Off-road safarlari: O‘zbekistonda transportning maxsus turlari uchun joylar mavjud, masalan, off-road safarlari uchun maxsus marshrutlar yaratish, qumli va tog‘li hududlarda safari. O‘rmon va cho‘l lagerlari: Maxsus lagerlar va qo‘shimcha xavfsiz hududlar tashkil qilish orqali ekstrimal turizmni rivojlantirish. Sovuq va issiq iqlim sharoitlari Qishki sportlar: Chimgan va boshqa tog‘ hududlarida qishki sportlar (chang‘i, snoubord) uchun infrastruktura yaratish. Issiq havoda ekstremal sportlar: Issiq havoda, masalan, paragliding va yelkanli sayohatlarni rivojlantirish. Potensial o‘shish: Ekstremal turizm O‘zbekistonning tabiiy go‘zalliklaridan maksimal darajada foydalanishni ta‘minlaydi. Bu bilan nafaqat ichki, balki xalqaro sayyohlar soni ham oshadi. Ekstremal turizm imkoniyatlari qo‘shilsa, O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni bir necha millionga ortishi mumkin. Masalan, agar har yili 1-2 million yangi sayyohlar kirsam, umumiy sayyohlar soni 10-15 millionga yetishi mumkin. Shu tarzda, O‘zbekiston turizm sohasida nafaqat madaniy, balki ekstrimal turizmni ham rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar va o‘ziga xos tajribalar yaratadi O‘zbekiston ekstremal turizm uchun turli imkoniyatlar va ajoyib manzaralar taqdim etadi. Quyida ba‘zi asosiy imkoniyatlarni ko‘rib chiqamiz: Tog‘larda ekstremal turizm Chotqol tog‘lari (Tyan-Shan): Qor ko‘chkisi xavfi past bo‘lgan hududlarda chang‘i, snoubord, va trekking uchun imkoniyatlar mavjud. Beldersoy, Chimyon va Yangiobod kabi joylar tog‘ sporti uchun mashhur. Zomin va Nurata tog‘lari: Tog‘da piyoda sayohat qilish va tog‘lik hududlarni o‘rganish uchun qulay joylar. Cho‘llarda sarguzasht Qizilqum va Qoraqum cho‘llari: Quvnoq safari (jeep safari) uyushtirish imkoniyati mavjud. Tuyalarda sayohat qilish tajribasi ham taklif etiladi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi: Qumlik hududda suzish va baliq ovlash bilan shug‘ullanish. Ekstremal suv sportlari Charvaq suv ombori: Jet-ski, suv chang‘isi va parasailing kabi suv sport turlarini sinab ko‘rish mumkin. Amudaryo va Sirdaryo: Kayaking va rafting uchun qulay daryolar. Tarixiy ekstremal turizm Katta Ipak yo‘li yo‘nalishlari: O‘tmishda karvonlar o‘tgan uzoq va murakkab yo‘llar bo‘ylab piyoda yoki velosipedda yurish. Yer osti arxeologik yodgorliklari: **Katta Guldursun, Jampiq qal’a** va **Katta Qirqqiz qal’asi**, Ayaz qala va boshqa qadimiy qal’alarni tadqiq qilish.

Ekstremal tabiat turlari Boysun tog‘lari va g‘orlari: G‘orlarni o‘rganish (spelunking) va tog‘larning o‘ziga xos ekologik muhitini o‘rganish imkoniyati. Orol dengizi va Ustyurt platosi: Bu hududlar sirli va ekstremal sayohatchilar uchun jozibali. Ustyurt platosidagi qoya va kanyonlar ajoyib manzaralarni taqdim etadi. Ekstremal turizmni rivojlantirish bo‘yicha istiqbollar O‘zbekiston hukumati ekstremal turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilashga va mahalliy hamda xalqaro sayyohlarni jalb qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Yangi marshrutlar yaratilmoqda, shuningdek, maxsus qo‘llanmalar va xavfsizlik bo‘yicha xizmatlar kengaytirilmoqda. O‘zbekistonning boy tabiiy va madaniy merosi ekstremal turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatda tog‘lar, cho‘llar, daryolar va ko‘llar kabi turli tabiiy manzaralar mavjud bo‘lib, ular ekstremal sport turlari va sarguzashtli sayohatlar uchun qulay sharoitlar taqdim etadi. Hukumat tashabbuslari: O‘zbekiston hukumati ekstremal turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil iyun oyida o‘tkazilgan yig‘ilishda Parkent, Bo‘stonliq, Aydarko‘l va Mo‘ynoq hududlarida ekstremal turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini ta’kidladi. Ushbu hududlarda parashyut bilan sakrash, havo dayvingi va boshqa ekstremal sport turlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Hududiy imkoniyatlar: Bo‘stonliq tumani: Bu yerda rafting, arqon bilan sakrash, zip-layn, kanyon va paraplan kabi sport turlarini tashkil etish uchun qulay sharoitlar mavjud. Qashqadaryo viloyati: Eko, ekstremal, astro, etno, agro va gastronomik turizm turlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, trekking, chodirli kemping, parashyutdan sakrash, alpinizm va otda sayr qilish kabi xizmatlar tashkil qilinmoqda. O‘zbekistonning tabiiy va madaniy boyliklari, hukumatning qo‘llab-quvvatlovi hamda xalqaro hamkorlik ekstremal turizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Kelgusida infratuzilmani yanada rivojlantirish va xavfsizlik choralari ko‘rilishi bilan mamlakat ekstremal turizmning jozibador manzillaridan biriga aylanishi mumkin. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari turli xil ekstremal turizm turlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Quyida hududlar va ularning ekstremal turizm turlari uchun mosligi keltirilgan Chimyon va Beldersoy (Toshkent viloyati) Ekstremal turi: Tog‘ chang‘isi, snoubord, paraplanerizm, trekking. Imkoniyatlar: Qishda tog‘ chang‘isi va snoubord uchish uchun yaxshi sharoit mavjud. Bahor va yozda tog‘ etaklarida trekking va paraplanerizm mashhur Yaqin hududdagi dam olish maskanlari va kanat yo‘llari qulaylik yaratadi. Charvaq suv ombori (Toshkent viloyati) Ekstremal turi: Jet-ski, parasailing, suv chang‘isi, qayiqda poyga. Imkoniyatlar: Charvaq suv ombori O‘zbekistonning eng yirik dam olish maskanlaridan biri. Suv sportlari va suvga oid ekstremal faoliyatlar uchun zarur infratuzilma mavjud. Boysun tog‘lari (Surxondaryo

Dualizm [lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni anglatadi] olamning asosida ikkinchi asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm – [lotin tilida plyural, ya'ni kuplik degan ma'noni anglatadi] – olamning asosida ko'p narsa va g'oyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limot].

Materializm [lotincha – moddiy, moddiylashgan] olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan ta'limot.

Idealizm – [yunoncha – ideya – goya] olamning asosida ruh yoki g'oyalar yotadi deb ta'lim beradi. Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalalar bilan falsafaning gnoseologiya [yunoncha – gnosis, bilish logos – ta'limot] degan soha shugullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni gnostiklar; olamni bilish mumkin emas bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa agnostiklar [yunoncha – bilib bo'lmaydigan ma'noni anglatadi].

Odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qobiliyatlari falsafani azaliy muammolarini tashkil etadi.

Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, hulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash

va hulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash – insonning tevarakatrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarash – bu avvalo, inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan hulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

Dunyoqarashning ijtimoiy o'z-o'zini anglash sifatidagi xususiyati shuki, muhim hodisa va voqealarga kishilarning o'z hayotiy maqsad va manfaatlari asosida, ularning shaxsiy yoki ijtimoiy mavqelaridan kelib chiqqan holdagi munosabatlarining ifodalanishidir. Shunga ko'ra dunyoqarash insonning dunyoni kundalik ongda aks ettirishgina bo'lmay, balki uni qayta o'zlashtirish natijasi sifatidagi bilimlari hamdir.

Dunyoqarash – insoniyatning o'tmishi, hozirgi va kelajakdagi hayoti sharoitlarining anglab olingan qadriyatlarini tizimidan iboratdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzlari va hayotiy mavqelarini, ularning axloq-odob me'yorlaridan tartib bir butun madaniyati va ma'naviyatigacha bo'lgan barcha jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shu sababli dunyoqarashda butun insoniyat hayotiga oid ma'naviylikdan bahramandlik, insoniyat hayotining mazmunini anglash tajribasi jamuljam bo'lib, uning taraqqiyotida doimo eskirib qolgan nimalardandir voz kechish, nimalardandir avaylab asrash va yangi paydo bo'lgan tasavvurlar, qarashlar va bilimlarni qabul qilib olib, ularni yanada rivojlantirib borish muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shahsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'ziga rivojlanuvchi [stihiyali] mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Bu – dunyoqarashning o'z-o'zicha rivojlanuvchi [stihiyali] shakli hisoblanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar. Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo'lib, ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o'ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta'sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. Dunyoqarash muayyan

davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanligi ko'rsatdi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezoni sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Mifologik dunyoqarash voqelikning hayoliy ingikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilari uchun harakterlidir. Bu dunyoqarash o'z ifodasini ko'prok qadimgi davrlarda yaratilgan naqlarda, rivoyat va afsonalarda topgan. Bu rivoyatlar va afsonalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlarda, uning turli bosqichlarida paydo bo'lib, ularda tasvirlangan obrazlar afsonaviy qahramonlar, hudolar, yovuz kuchlar bo'lishgan. Qadimgi kishilar bu afsona va rivoyatlarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib, ularni hayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Bu bilan ularga bo'lgan munosabatlarini bildirganlar va olam haqidagi qarashi va tasavvurlarini tartibga tushirishga harakat qilganlar. Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda hamma narsa va hodisalar bir-birining ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Buning natijasida bir hil buyumlarning sifatlarini ikkinchi xil buyumlarga bemaol ko'chirish mumkin.

Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko'rinishida jonlantirib tasvirlanadi.

Dunyoqarashning ikkinchi tarixiy shakli-diniy dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarash – olamdagi voqea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushuntirishdir.

Diniy dunyoqarashning boshlang'ich elementi – bu diniy tuyg'udir. Diniy tuyg'u bu kishilarning tabarruk va aziz, deb tasavvur qilinadigan mavjudotlarga,

muqaddashtirilgan buyumlar, shashlar, joylarga, bir-birlariga, o'z-o'ziga, shuningdek, ilohiy mazmunda talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarida paydo bo'ladigan hissiyotdir. Diniy tuyg'u tug'ma bo'lmaydi, u kishi yoki kishilar yashaydigan ijtimoiy va ruhiy shart-sharoitlar asosida vujudga keladi. Diniy tuyg'u kishidagi his-hayajon, kechinma, ruhiy holat bilan bog'liq bo'ladi. Shuni aytish kerakki, har qanday his-hayajon, ruhiy kechinma, diniy tuyg'uni tug'diravermaydi. Bu his-hayajon va ruhiy kechinmalar qachonki ma'lum diniy tasavvurlar, diniy g'oyalar va qarashlar bilan qo'shilib, ma'lum yo'nalish, ma'lum ma'no kasb etgan taqdiridagina diniy tuyg'uga aylanadi.

Diniy dunyoqarashning ikkinchi elementi – bu diniy aqidalaridir. Diniy aqidalar o'z mazmuni bilan dunyo va undagi voqea – hodisalarni ilohiy e'tiqod asosida tushinish bilan bog'langan tasavvurlar va tushunchalardir. Masalan, bunday aqidalarning namunasi sifatida islom dinining sunmiylik mazhabida shakllangan iymon talablariga oid aqidalarni ko'rib chiqish mumkin. Ular Olohning yagonaligi, farishtalarning mavjudligi, diniy kitoblarning muqaddasligi, oxiratning borligi, taqdirning ilohiyligi, o'lgandan keyin qayta [qiyomat kuni] tirilish mumkinligidir.

Diniy dunyoqarashning navbatdagi elementi - bu biron buyumga, narsaga, hayvon va darahga, kishiga yoki hudoga sig'inishdir.

Sig'inish sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sig'inishning sodda ko'rinishi – kishilarning kundalik hayotida ilohiy kuchlarga toat-ibodat qilishidir. Sig'inish diniy tasavvurlar va g'oyalarni ifoda etuvchi, ilohiy kuchlarga, ilohiy ob'ektlarga qaratilgan yakka yoki jamoa bo'lib bajariladigan ramziy hatti-harakatdir. Masalan, tazim qilish, tiz cho'kish, sajda qilish, bosh egish, qo'l qovushtirish, cho'qinish, toat-ibodat qilishlar sig'inishning sodda ko'rinishlaridir.

Foydalanuvchi adabyotlar:

1. D. F. Pears, Falsafaning asoslari (2021).
2. N. S. Novikov, Falsafa va mantiq (2020).
3. A. R. Rahmonov, Falsafa va jamiyat (2019).
4. R. M. Shodmonov, Inson va uning falsafasi (2022)
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/falsafa/falsafaning-bahs-mavzulari-jamiyatdagi-o-rni-va-asosiy-vazifalari>

**OZBEKISTONING ENG YANGI TARIX O'QUV FANING PREDNIDI
MAQSAT VA VAZIFADORI NIGORI**

Boyto'rayev Sirojiddin

Nurbayev xurshid Erkin o'g'li

Nosirov Alimardon Mosajon o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

O'zbekistonning eng yangi tarixi o'quv fani predmeti, uning maqsadi va vazifalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy va madaniy rivojlanish haqida hamda ushbu fanning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida taqriz beraadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, Eng yangi tarix, O'quv fani, Ta'lim tizimi, Mustaqillik, Ijtimoiy o'zgarishlar

АБСТРАКТНЫЙ:

Подробно представлена информация о предмете новейшей истории Узбекистана, ее целях и задачах. В статье рассматриваются исторические процессы, общественно-политические изменения, экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости, а также роль и значение этого предмета в системе образования.

Ключевые слова: История Узбекистана, Новейшая история, Образование, Система образования, Независимость, Социальные изменения

ABSTRACT:

Detailed information is provided about the subject of the newest history of Uzbekistan, its purpose and tasks. The article reviews the historical processes, socio-political changes, economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence, as well as the role and importance of this subject in the educational system.

Key words: History of Uzbekistan, Latest history, Education, Education system, Independence, Social changes

Kirish

O‘zbekistonning eng yangi tarixi, yurtimizning mustaqillikdan so‘nggi davrini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. O‘zbekistonning xalqlararo munosabatlari, siyosiy hayoti, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, madaniyat autonomiyalashuv jarayonlari o‘quv fani doirasida chuqur o‘rganilishi zarur. O‘zbekistonning eng yangi tarixi o‘quv fani, talabalarni mustaqil fikrlashga, tarixiy jarayonlarni tahlil qilishga va ulardan saboq olishga undaydi. Ushbu maqola orqali O‘zbekistonning eng yangi tarixi o‘quv fanining maqsadi va vazifalari batafsil bayon etiladi.

O‘zbekistonning Eng Yangi Tarixi O‘quv Fanining Maqsadlari va Vazifalari

1. Maqsadlar:

- Mamlakatimizning mustaqillik davridagi taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarini o‘rganish.
- O‘zbekiston tarixidagi muhim voqealar va shaxslarni tahlil qilgan holda talabalarni tarixiy tafakkur va kritikal fikrlashga o‘rgatish.
- O‘zbekiston jamoatchiligining tarixiy xotirasini shakllantirish va mustahkamlash, yoshlarni Vatan sevgisi ruhida tarbiyalash.

2. Vazifalar:

- O‘zbekistonning mustaqilligidan oldin va keyingi davrdagi tarixiy jarayonlarni tahlil qilish.
- Tarixiy voqealar va ularning ta‘sirini ko‘rsatish, talabalarni tarixiy faktlar bilan tanishtirish.
- O‘zbekiston tarixi orqali yosh avlodga milliy qadriyatlarni va madaniyatni tanitish.
- Talabalarni turli tarixiy manbalarni o‘rganishga jalb qilish, buning natijasida ular mustaqil ish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarixiy xotira - milliy o‘ziga xoslikni tarixan idrok etishda asos bo‘lib xizmat qildi. Ma’lumki, tarixiy xotira xazinasini millat taraqqiyotiga yordam beradigan milliy ongning samarali kuchi sifatida ona tiliga, turmush tarziga, urf-odatlariga va madaniyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Bu shunchaki ma’naviy merosni saqlab qolish uchun tarixiy qadriyatlarni jalb qilish emas, balki ma’naviy yuksalish yo‘lini boshlash uchun xalq o‘zining ko‘p asrlik tarixiga, ming

yillik madaniy tajribasiga, buyuk ajdodlari merosiga murojaat qilishi va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanday ma’naviy-axloqiy boyliklar bilan kirishi kerakligini anglatadi.

O‘zbekiston tarixi, shuningdek, O‘zbekistonning eng yangi tarixi jahon } tarixining ajralmas bir qismi bo‘lib, u bizning zamonamizdagi global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Eng yangi tarixni o‘rganishning muhimligi va dolzarbligi shundaki, u mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'naviy jihatdan barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi voqea-xodisalarni tushunishga hamda teran idrok etishga yordam berishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, u bizga tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilish va bashorat etish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar singari murakkab siyosiy o‘zgarishlar sharoitida yuz berdi. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mamlakatning barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o‘zgartirishga yo‘l ochdi. } Demokratik prinsiplarga ko‘ra milliy davlatchilik va siyosiy tizimning asoslari shakllantirildi, ularda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari funksiyalari va vakolatlari taqsimlandi. Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish bosqichma-bosqich, keskin inqilobiy larzalarsiz amalga oshirildi.

Tashqi siyosatning milliy strategiyasi ishlab chiqilib, O‘zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga munosib ravishda kira oldi. } O‘zbekiston tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘li xalqimizning milliy xususiyatlari, urf-odatlarini va madaniyatini har tomonlama hisobga olgan holda, to‘plangan xalqaro } tajribadan ijodiy foydalanishga asoslangandir.

1989 yildan 1991 yilgacha. Bu bosqich - yangi rahbarning siyosat maydonida paydo bo‘lishi, milliy istiqlol g‘oyasining pishib etilishi, SSSRning parchalanib ketishi negizida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bilan bog‘liq sa’y-harakatlar bilan tavsiflanadi.

1991 - 2000 yillar. Bu - ustuvor islohotlar va o‘zgarishlardan milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri. Tarixan qisqa vaqt ichida "taraqqiyotning o‘zbek modeli" ni tanlab olish natijasida milliy davlat shakllanishi uchun ishonchli qonunchilik va huquqiy asos yaratildi. Davlat boshqaruvining yangi tuzilmalari yuzaga keldi, jamoat va fuqarolik institutlarining asoslari barpo etila boshlandi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish amalga oshirildi.

2001-2010 yillar. Bu bosqichda - mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizatsiya qilish boshlandi. Bu davrning asosiy vazifasi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichmabosqich o'tish edi. Shu negizda siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, davlat va jamiyat qurilishi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshiradigan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantiradigan mustaqil sud tizimini mustahkamlash jarayonlari davom etdi.

} Bu bosqichda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish jarayoni davom etdi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonning zamonaviy tarixining beshinchi bosqichi 2017 yildan boshlandi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu tarixiy hujjat mustaqillikni qo'lga kiritilganidan boshlab, mamlakatni demokratik yangilash va rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni rivojlantirishni aks ettiradi, unda davlat va jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida modernizatsiyani yanada davom ettirishning strategik dasturi belgilab berilgan. } Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha islohotlar uchun huquqiy asoslarni yaratishni davom ettirish bilan tavsiflanadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori 2017 yil 30 iyunda qabul qilingan.

O'ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI

demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning «o'zbek modeli» mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish ushbu fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI

Ilmiy, o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O‘zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O‘zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishni ta‘minlash belgilab berilgan

O‘ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI

Fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, yuksak ma‘naviyat, xalqning tarixiy an‘analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirish borasida ushbu jarayonlarning rivojlanish evolyutsiyasini ma‘ruza va amaliyot darslarida ochib berish muhim sanaladi.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “O‘zbekistonning mustaqilligiga 30 yil” mavzusidagi nutqi.
2. “O‘zbekiston tarixi: Eng yangi davr” – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashri.
3. Rahmonov X. “Mustaqillik va yangilanish jarayonlari: O‘zbekistonning eng yangi tarixi”.
4. O‘zbekiston tarixi fanidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari.
5.
<https://staff.tiame.uz/storage/users/647/presentations/SFSEcXa1CJgJBnRGURWepMu0CnUKIDRp9Wsnru8.pdf>

Qulnazarov Diyorbek

Umumiy pedagogika "fanidan.

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

Qulnazarovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Vatanparvarlik tarbiyasi va uning ahamiyati, maqsadlari, usullari hamda o'zbek jamiyatidagi roli ko'rib chiqiladi. Vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat yosh avlodni vataniga, millatiga bo'lgan muhabbat va hurmat hissini rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy mas'uliyat va moral qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda mustaqil va erkin fikrlovchi insonlar sifatida to'g'ri yo'naltirishni ta'minlaydi.

Kalit soʻzlar: Vatanparvarlik, tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, yoshlik, O'zbekiston.

АБСТРАКТНЫЙ:

Рассмотрены патриотическое воспитание, его значение, цели, методы и роль в узбекском обществе. Патриотическое воспитание не только развивает у молодого поколения чувство любви и уважения к стране и нации, но и обеспечивает их воспитание на основе социальной ответственности и моральных ценностей, их правильную ориентацию как независимых и свободных. думающие люди.

Ключевые слова: Патриотизм, образование, национальные ценности, социальная ответственность, молодежь, Узбекистан.

ABSTRACT:

Patriotic education and its importance, goals, methods and role in Uzbek society are considered. Patriotic education not only develops the feeling of love and respect for the country and the nation in the young generation, but also ensures that they are educated on the basis of social responsibility and moral values, and that they are properly oriented as independent and free-thinking people.

Key words: Patriotism, education, national values, social responsibility, youth, Uzbekistan.

Kirish

Vatanparvarlik tarbiyasi - bu milliy istiqlol va ma'naviyatni anglash, jamiyatga foyda keltirish va vataniga xizmat qilishga qaratilgan tarbiya jarayonidir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z tarixiga, madaniyatiga va urf-odatlariga katta ahamiyat berishi zarur. Yosh avlod uchun vatanparvarlik tarbiyasi ularga o'zlarining kelajagi va motivatsiyalari bo'yicha yo'nalish berishda muhim omil hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Boburdan tortib, Amir Temur va boshqa buyuk ajdodlarimiz g'ayrat va fidoiylilik namunasini ko'rsatgan holda, bugungi kunda ham ushbu tarbiyaning ahamiyati oshib bormoqda.

Ushbu maqolada, vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari, usullari va buning o'zaklarimizdagi roli haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'zbek yoshlari uchun vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadi - yosh avlodda sevgi va hurmat hissini shakllantirish. Bu jarayonni quyidagi usullar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Milliy qadriyatlarni o'rgatish: O'zbekistonning tarixi, urf-odatlari va madaniyatini o'rgatish orqali yoshlar o'z vatanlariga bo'lgan sevgisini oshirishi kerak. Maktablarda maxsus darslar va seminarlar tashkil etish muhimdir.

2. Amaliy faoliyatlar: Yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga undash, ijtimoiy tadbirlar va qiziqarli ko'ngilochar tadbirlar orqali milliy birlikni mustahkamlash zarur.

3. Role modellar: O'zbekistonda taniqli shaxslar va muvaffaqiyatli insonlar urf-odatlari va ish faoliyatlari orqali yoshlarni ruhlantirish va motivatsiya berish mumkin.

4. Vatanparvarlikni muhokama qilish: Yoshlarni turli muammolarni hal qilishda jamoa asosida muhokama qilishga jalb qilish, ularda ijtimoiy mas'uliyat va o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining

boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi)

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) 2-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nau yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir oy muddatda Konsepsiya asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning hududiy kompleks dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

4. Dasturning bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishli chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etsinlar hamda yilning har choragi birinchi oyining beshinchi sanasigacha bo'lgan muddatda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

Dasturni bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli nazorat o'rnatilishini ta'minlasin;

Dasturni bajarilishi yuzasidan yilning har choragi birinchi oyining o'ninchi sanasigacha bo'lgan muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etsin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri A.A. Azizov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashtirish davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

2. Mazkur Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasini 2017 — 2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy

o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

3. Ona-Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

4. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

2-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari

5. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

6. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

3-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari

7. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

9. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

10. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar.

11. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi: ilmiylik; tarixiylik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik; faollik; ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi; tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

4-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari

12. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan iborat. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari hisoblanadi: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

13. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lishgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;

teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

5-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosqichlari va yo'nalishlari

14. Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalari monitoringini yuritishni ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, turli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari doirasida tashkil etadi.

15. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Oldingi tahrirga qarang.

a) birinchi bosqich (3 — 7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

(15-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzulardagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o'yinlar o'tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish;

b) ikkinchi bosqichda (7 — 16 yoshdagilar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada

kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko‘tarish, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da‘vat etiladi. Bu bosqichda:

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo‘shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

o‘quvchi yoshlar ishtirokida “Vatanimni ko‘z qorachig‘idek asrayman”, “Yurt taqdiri — mening taqdirim” mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Temurbekning izdoshlari”, “O‘zbekiston farzandlari botir bo‘lur” kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar namoyish etish va ularning muhokamasini o‘tkazish;

darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to‘g‘risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta‘lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlarini va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o‘tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida “Temurbek vorislari” harbiy-sport o‘yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat berish;

v) uchinchi bosqich (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta‘minlashga yo‘naltiriladi. Mazkur bosqichda yuqoridagi vazifalarga qo‘shimcha ravishda quyidagi masalalarga e‘tibor qaratiladi:

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirib borish;

o‘quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo‘limlari va harbiy qismlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat

va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazzmun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish;

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borish;

g) to'rtinchi bosqich (18 — 30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak, ota-ona va Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashning ahamiyati to'g'risidagi tasavvur va bilimlarni yanada boyitish;

Oldingi tahrirga qarang.

Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va Vatanga qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish;

(15-bandning "g" kichik bandi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 179-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2020-y., 09/20/179/0350-son)

harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarini shakllantirish;

yoshlarning o'z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yaqindan ko'maklashish;

kitobxonlikni keng targ'ib etish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish; milliy mafkuramizga zid bo'gan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish.

6-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligi va mezonlari

16. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobiy ta'sir etgani bilan belgilanadi.

17. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an'analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta'sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat.

18. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma'no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-3571158?ONDATE=05.04.2022>
2. Qodirov, S. (2022). Vatanparvarlik tarbiyasi: nazariya va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
3. Adilov, M. (2021). Yoshlarda vatanparvarlik hissini rivojlantirishning yo'llari. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashri.
4. "Vatanparvarlik va ma'naviyat" yangiliklari. (2023). URL: www.vatan.gov.uz

**BLOCKCHAIN IN INSURANCE: ENHANCING
TRANSPARENCY AND EFFICIENCY**

Anvarov Bekhzod Alisher o'g'li

Master's degree student at Banking and Finance Academy

anvarovbehzod00@gmail.com

Abstract: The insurance industry faces persistent challenges, including inefficiencies, fraud, and a lack of transparency, which result in high costs and customer dissatisfaction. Blockchain technology offers a transformative solution to these issues by providing a decentralized, immutable, and transparent ledger system. Through applications such as fraud detection, automated claims processing, and streamlined policy management, blockchain enhances operational efficiency and builds trust among stakeholders. This article explores the potential of blockchain in revolutionizing the insurance sector, highlights real-world examples, addresses challenges to adoption, and outlines a promising future outlook for the industry.

Keywords: Blockchain, Insurance Industry, Transparency, Efficiency, Smart Contracts, Fraud Prevention, Claims Processing, Reinsurance, Parametric Insurance, Decentralized Technology

The insurance industry has long been plagued by inefficiencies, lack of transparency, and high administrative costs. As a multi-trillion-dollar global industry, insurance involves numerous intermediaries, complex processes, and extensive documentation. These challenges contribute to delays, increased costs, and decreased trust among stakeholders. Blockchain technology offers a transformative solution to these issues, promising to enhance transparency, improve operational efficiency, and rebuild trust in the insurance ecosystem.

This article delves into the application of blockchain in the insurance sector, exploring its potential to revolutionize the industry by addressing key challenges and offering innovative solutions. We will examine real-world examples, benefits, challenges, and the future outlook for blockchain in insurance.

Blockchain is a distributed ledger technology that records transactions across multiple computers in a secure, immutable, and transparent manner. Its key features include:


1. **Decentralization:** Eliminates the need for a central authority by distributing control across a network of participants.

2. Immutability: Once a transaction is recorded on the blockchain, it cannot be altered or deleted, ensuring data integrity.

3. Transparency: Every participant in the network has access to the same version of the ledger, fostering trust and accountability.

4. Smart Contracts: Self-executing contracts with predefined rules and conditions, enabling automation and reducing manual intervention.

Diagram 1. The key features of Blockchain technology.



[2]

The insurance industry faces several challenges that blockchain can address:

- Fraud Detection and Prevention: Insurance fraud costs billions annually, driven by false claims, duplicate claims, and identity theft.


- Claims Processing Delays: The claims process is often lengthy and involves multiple intermediaries, leading to customer dissatisfaction.

- High Administrative Costs: Complex paperwork and manual processes result in significant overhead expenses.

- Lack of Transparency: Policyholders often lack visibility into the status of their claims and policy terms.

- Data Security and Privacy: Sensitive customer data is vulnerable to breaches and unauthorized access.

**Diagram 2. Insurance industry challenges addressed by
Blockchain technology.**



[3]

Blockchain's immutable ledger ensures that all transactions and claims are transparently recorded and cannot be altered. By enabling data sharing among insurers, blockchain can prevent duplicate claims and detect fraudulent activities. For example, a consortium of insurers can use a shared blockchain to cross-verify claims in real time.

Smart contracts automate the claims process by triggering payments once predefined conditions are met. For instance, in travel insurance, a smart contract can automatically compensate policyholders if a flight is delayed beyond a certain threshold, as verified by trusted data sources.

Blockchain simplifies policy issuance and management by storing all policy-related information on a secure, decentralized ledger. This ensures that both insurers and policyholders have access to accurate and up-to-date information, reducing disputes and enhancing trust.

Blockchain facilitates seamless communication and data sharing between insurers and reinsurers. By providing a single source of truth, it eliminates discrepancies, accelerates settlements, and reduces administrative burden.

Parametric insurance relies on predefined triggers, such as weather data or natural disaster metrics, to determine payouts. Blockchain and smart contracts enable instant payouts based on verified data, reducing the need for lengthy claims assessments.

Blockchain provides all stakeholders with a single, tamper-proof ledger, ensuring complete visibility into transactions, policies, and claims. By automating processes

through smart contracts, blockchain reduces administrative tasks, accelerates settlements, and lowers operational costs.

The immutable nature of blockchain builds trust among insurers, reinsurers, and policyholders, fostering stronger relationships. Shared data and real-time verification capabilities minimize fraudulent activities, saving the industry billions annually.

Faster claims processing and enhanced transparency lead to higher customer satisfaction and retention. B3i is a consortium of global insurers and reinsurers exploring blockchain applications in insurance. Their blockchain-based platform streamlines reinsurance contracts, reducing administrative costs and improving efficiency.

Etherisc is a decentralized platform offering blockchain-based insurance solutions. It provides parametric insurance for farmers, flight delay insurance, and other innovative products.

Axa's Fizzy is a blockchain-powered parametric insurance product for flight delays. Policyholders receive automatic compensation if their flight is delayed, verified through blockchain-enabled smart contracts.

The regulatory landscape for blockchain in insurance is still evolving, posing challenges for widespread adoption. Many insurers rely on outdated systems that may be difficult to integrate with blockchain technology.

Blockchain networks must handle large volumes of transactions efficiently, which remains a challenge for some platforms. Storing sensitive customer data on a blockchain raises privacy and compliance issues, particularly under regulations like GDPR.

Implementing blockchain solutions requires significant investment in technology and training. The adoption of blockchain in insurance is still in its early stages, but the potential is immense. As technology matures and regulatory frameworks evolve, we can expect widespread adoption of blockchain-based solutions. Key trends to watch include:

Insurers will increasingly collaborate to develop shared blockchain platforms, driving standardization and reducing costs. Combining blockchain with IoT devices will enable real-time data collection and automated insurance processes.

The integration of AI and blockchain will enhance fraud detection, underwriting, and personalized policy offerings. Blockchain will give rise to decentralized insurance platforms, empowering individuals to create and manage insurance pools without traditional intermediaries.

Shuningdek, Qadimgi Misr tarixida bojxona va soliq masalalari, Rim imperiyasi bilan munosabatlari, taraqqiyoti va tanazzuliga bag‘ishlangan Toby Wilkinsonning “The rise and fall of Ancient Egypt” asarida yoritib o‘tadi. [4, 326;328.]. Barcha sohalar singari soliq va bojxona terminlari va qonun-qoidalari haqida qadimgi hind manbalarida ham alohida ahamiyat beriladi: “...sotuvchi olib kirgan tovarlarning sifatiga javob berishi, agar olib kirgan mahsulotlari savdogar yoki xaridorga zarar bersa, qo‘lda o‘g‘irlik bilan olingan yoki soxta tovar bilan kirsam ma‘lum turdagi jarima va undan ham qattiq jazolar bilan jazolanadi.” [5, 292.].

Ingliz xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 1215-yil Angliya qiroli Jon tomonidan imzolangan “Buyuk Xartiya” (“Magna Carta”)da ham soliq va bojxona

terminlari bilan bog'liq bir qancha muhim ma'lumotlar keltiradi:

“...voyaga etmagan merosxo‘rning erining vasiysi merosxo‘rning yeridan

oladi. Faqat oqilona mahsulot, oqilona bojxona va oqilona xizmatlar, va busiz odamlar yoki tovarlarni yo‘q qilish yoki yo‘q qilish; va agar kimningdir erlariga vasiylik qilgan bo‘lsak, sherifga yoki uning masalalari uchun bizga mas‘ul bo‘lgan har qanday boshqa shaxsga bunday kichik va u qilgan...”[6,2]. Bundan tashqari, bojxona terminologiyasi tarixida rus tadqiqotchisi Ye.O. Fedorchenkoning “Становление и развитие терминологической лексики таможенного дела в русском языке” nomli nomzodlik dissertatsiyasida “Terminologiyani kodlashning bunday usuli lug‘atdagi kodifikatsiyadan ham qattiqroqdir, chunki demokratlashtirish tushunchasi me‘yor, huquq tili uchun ma‘lum bir ob‘ektga turli ilmiy yondashuvlar imkoniyatidir va qabul qilinishi mumkin emas” deb o‘tadi va bu ilmiy ishida bojxona huquqi terminologiyasi xususiyatiga ishora qiladi [7,117].

Ukrain tilida ushbu soha terminlari tadqiqi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ukrain tilida bojxona terminologiyasi bo‘yicha Овсейчик С.В. “Формування української екологічної термінології” dissertatsiyasida, Осипенко, З.М. “Різновиди термінів і їх семантичні особливості” o‘quv darsligida va boshqa shu kabi adabiyotlarda ko‘rishimiz mumkin [8,116-118]. Ushbu tadqiqotlar ichida Vira Deynekaning “Customs Term As Unit Of Ukrainian Sectoral Terminology System” nomli maqolasi ahamiyatlidir.

Rus tilshunosligida bojxona terminologiyasi tadqiqoti bilan bog'liq ilmiy ishlar ancha salmoqlidir. Xususan, Yu.A.Filippinaning “Bojxona terminologiyasining tarmoqlararo xususiyati (ingliz tili asosida)” (“Межотраслевой характер терминологии таможенной деятельности (на материале английского языка)”) nomli maqolasi, M.A.Maksimova va A.X.Abdulmanovalarning “Ingliz bojxona terminologiyasida sifatlarning tarkibi” (“Словосложение Имен Прилагательных В Англиязычной Таможенной Терминологии”) nomli maqolasida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, rus tilida bojxona terminlarining bazasi mavjud va u MDH davlatlari va Yevropa Davlat Ittifoqi tillariga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qiladi.

Turk tilida bojxona terminlari tadqiqi bilan bog'liq eng yirik ish sifatida turkiy tillar ichida yagona bo‘lgan “Uluslararası Gümrük Terimleri Sözlüğü” bazasi bo‘lib, u uch til (turk, fransuz, ingliz)da avtomatik tarjima qilish imkoniyatiga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bojxona ishida terminlarining o‘rganilishi va taraqqiyoti eramizdan avvalgi davrlardan bugungi kungacha bog'liq. Qadimgi Misr, Qadimgi Hind qo‘lyozmalaridan tortib bugungi kunda asosiy ehtiyojimizga aylangan korpuslarda ham bojxona terminologiyasi va unga doir termin va ilmiy tadqiqotlarni ko‘rish mumkin. Ushbu tadqiqotlar uchun asosiy jihat o‘tgan asrlargacha lug‘atini

tuzish, o'rganish bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda inson uchun qulay va har tomonlama mukammal dasturlar yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. London. 1969/<http://www.docdroid.net>
2. Freidrich List. National system of Political Economy. London. 1885.
3. Adam Smith. Wealth of Nations. Metalibri. 2007
<http://www.metalibri.incubadora.fapesb.br>
4. Toby Wilkinson. The rise and fall of Ancient Egypt.
5. Kautilya. Arthashastra (Translated into English by R. Shamasastri). Bangalore: Government Press, 1915
6. Magna Carta. 2008 Lillian Goldman Law Library, Yale Law School/<http://www.ziyonet.com>
7. Федорченко Евгения Алексеевна. Становление и развитие терминологической лексики таможенного дела в русском языке. диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Москва 2004
8. Vira Deyneka. Customs Term As Unit Of Ukrainian Sectoral Terminology System. Section V. Functional Semantics of Lexical and Phraseological Units. УДК 81“276.6:339.543.

AREAL SHEVALARNING O'RGANILISHI DOIRASIDA AYRIM MULOHAZALAR

Normurodova Fayoza Boymurod qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

Annontatsiya: Ushbu maqolada areal lingvistika sohasining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi bosqichlari xususida fikrlar bildirilgan. O'zbek dilaektologiyasida bu sohaning paydo bo'lish bosqichlari va buning yuzasidan qilingan ilmiy ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Areal lingvistika, dialekt, sheva, lingvistik xarita, lingvistik geografiya, metod.

Annotation: This article analyzes the formation and development stages of areal linguistics. It provides information on the emergence and evolution of this field within Uzbek dialectology, as well as the scientific studies conducted in this regard. Particular attention is given to the significance of linguistic maps and linguistic geography methods in research.

Keywords: areal linguistics, dialect, vernacular, linguistic map, linguistic geography, method.

Bugungi globallashuv jarayonida adabiy tilning bir qismi bo'lgan shevalarni o'rganish va ularni tadqiq etish borasida qilinayotgan amaliy ishlar dialektlarni tadqiq etish yo'lida o'z samarasini bermoqda. Xususan, shevalarni hududiy tarqalish zonalari jihatidan o'rganilishi bu shevaning qaysi hudud chegaralarida qanday ahvolda ekanligini xaritada o'rganish imkoniyatini yaratib beradi.

Areal lingvistika asosan geografik hududlarda tillar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni tahlil qiladi. Bu soha lingvistik tadqiqotlarda geolokalizatsiya va xarita yaratish texnologiyalaridan keng foydalanadi. Geografik xususiyatlarning tilda qanday aks etishini aniqlash, areal lingvistikada asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bu orqali til elementlari va ularning geografik tarqalishini o'rganish mumkin.

Areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanalib, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib

bormoqda. Ammp “Areal yo‘nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda “Areal lingvistika” tushunchasini qanday talqin qilish borasida bir to‘xtamga kelingan emas. [1, B.1] Areal lingvistikaning asosiy vazifasi-til hodisalarining ma‘lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shunda kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. [2, B.1]

O‘zbek tilshunos olimlari E.D.Polivanov, G‘.Olim, K.K.Yudaxin, A.Q.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh,Sh,Shoabduraxmonov, A.G‘ulomov, S.Ibroximov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev va ularning shogirdlarining o‘zbek shevalari yuzasidan olib borgan bir qator ilmiy izlanishlarida o‘zbek dialektologiyasining lingvogeografik va areal tadqiqoti uchun manbalar yaratganlar. [3, B. 4]

O‘zbek shevalarini areal usulda o‘rganish XX asrning 40-yillarida professor A.K.Borovkov tomonidan ilgari surilgan. Bu sohadagi ishlarni esa o‘zbek olimlaridan V.Reshetov va A.Shermatovlar davom ettirgan va ular tomonidan qilingan izlanishlar orqali shevalarni areal usulda o‘rganish yanada rivoj topgan. V.Reshetovning o‘zbek shevashunosligida amalga oshirgan 204 muhim ishlaridan biri u o‘zbek shevalarini kartalashtirish ishini boshlab berdi.[4,B.202]

A.B.Jo‘rayevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o‘zbek tilshunosligida yana ko‘plab areal lingvistikaga oid asarlarning yaratilishiga turtki bo‘ldi. Darhaqiqat, A.B.Jo‘rayevning samarali izlanishlari va o‘zbek areal lingvistikasining o‘rganishda qo‘shgan hissasi salmog‘i va dolzarbligi bilan ham e‘tiborga molikdir. [5, B.1]

Jahon tilshunosligida tilni areal-tipologik va areal lingvistik metodlar orqali o‘rganish, har qanday lingvistik nazariya va konsepsiyalarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan shevalarni, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim masalalardan biriga aylandi. Areal lingvistikaning paydo bo‘lishi dialektologiya sohasidagi turg‘un bo‘lib qolgan ayrim jihatlarni, dialekt va shevalar mohiyati, xususiyatlari, o‘zaro aloqalari, ularning tasnifi, tavsifi masalasidagi tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo‘l ochadi. [6, B.1]

Jahon areal tilshunosligida italyan (M.Bartoli, J.Bonfate, V.Pizani, V.M.Jirmunskiy, V.N.Golovin va boshqalar), lingvogeograflar (K.de Monbre, Jon Jileron, D.Mone, G.Venker, F.Vrede, K.Yaberg, Y.Yud, P.Meer, V.M.Jirmunskiy, S.I.Bromley, D.I.Edelman, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjiyeva, R.Y.Udler va boshqalar) hamda tillar ittifoqi yo‘nalishi vakili bo‘lgan (M.Emeneau, V.Vinter,

I.Balazs, M.J.Bartoli, J.Viddasi, Y.S.Maslov va boshqalar)ning amalga oshirgan tadqiqotlari samarasi sifatida shakllandi.[7, B.1]

Keyingi vaqtlarda o‘zbek dialektologiyasi sohasi o‘zbek tilshunosligining ancha mukammal tarmog‘i sifatida shakllangan bo‘lishiga qaramamasdan, soha bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy ishlar ko‘lami juda kam. Barcha o‘zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlarini areal lingvistika sohasi nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning markaziy va aholisi zich joylashgan, yirik shaharlaridan uzoqda joylashgan aholi shevalarini areal o‘rganilishi hali o‘z yakunini topmagan.

Bundan ko‘rinib turibdiki areal lingvistika sohasida bir nechta ilmiy ishlar qilingan bo‘lib, ularning amaliyoti esa deyarli qilinmagan. Bunday jarayonlar esa bu sohada qilinadigan amaliyotga aloqador ishlarning talagina ekanligini anglatadi.

Umumiy olganda o‘zbek shevalarining areal jihatdan o‘rganilishi hamda ularning lingvistik xaritalarini yaratish bosqichlari, shevalarning tarqalish hududlari aniqlash jarayonlari shevalarning taraqqiyoti uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуров Н.В., Зограф А. Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии. \ \ Вопросы языкознания. 1992.\ \ R.Madaminova. Maqola. Qoraqalpog‘iston O‘zbek Shevalaridagi Etnomadaniy Lug‘aviy Birliklarning Areal Tadqiqi Tadqiqi //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 41. – С. 514-516.
2. Madaminova R. Maqola. Qoraqalpog‘iston O‘zbek Shevalaridagi Etnomadaniy Lug‘aviy Birliklarning Areal Tadqiqi //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 41. – С. 514-516.
3. А.Шерматов. Лингвистик География Нима? Тошкент.1981.
4. Yoqubboyeva Shoxista. Maqola. O‘zbek Shevalarini Areal O‘rganish Xususida (Namangan Viloyati Chortoq Tumani Shevasi Misolida) \ \ “O‘zbek Shevalari Tadqiqotlari: Amaliyot, Metodologiya Va Yangicha Yondashuv” Mavzusidagi Respublika Ilmiy-Nazariy Konferensiyasi Materiallari
5. Vaziraxon Alimbekova. Maqola. Areal Shevalarning O‘rganilishi.
6. Vaziraxon Alimbekova. Maqola. Areal Shevalarning O‘rganilishi.

**AMIR TEMUR DAVLATINING G‘ARB OLIMLARI TOMONIDAN
O‘RGANILISH TARIXI**

Qurbonov Hasan

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

samadkdkdksks@gmail.com

Maxmaraimov Izzat

Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)

ligawar7@gmail.com

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davlatining g‘arb olimlari tomonidan o‘rganilish tarixi yoritilgan. XIV asrdan boshlab Yevropa elchilari va sayyohlari Temur davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini kuzatib, o‘z asarlarida tasvirlagan. Keyinchalik, XVI-XVIII asrlarda Amir Temur obrazini badiiy va tarixiy asarlarda aks ettirish davom etdi. XIX-XX asrlarda esa ilmiy tarixshunoslik yondashuvi bilan Temurning harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvi va madaniy merosi chuqur tadqiq qilindi. G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni va uning ulkan merosini tasdiqlaydi.

Abstract (in eng): This article explores the history of the study of Amir Timur's state by Western scholars. Starting from the 14th century, European envoys and travelers observed and described the political, economic, and cultural life of Timur's state in their works. Later, during the 16th-18th centuries, Amir Timur's image continued to be reflected in literary and historical writings. In the 19th-20th centuries, with the development of scientific historiography, Timur's military strategies, state governance, and cultural heritage were studied in depth. Research conducted by Western scholars confirms Amir Timur's significant place in world history and his immense legacy.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, g‘arb olimlari, tarixiy tadqiqotlar, elchilar hisobotlari, harbiy strategiya, davlat boshqaruvi, madaniy meros, ilmiy tarixshunoslik, Temuriylar,

Keywords: Amir Temur, Western scholars, historical studies, 14th century, envoys' reports, military strategy, state governance, cultural heritage, scientific historiography, world history

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ulug' Sohibqiron shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtirom beqiyosdir. Chunki, Sohibqiron Amir Temur, davlat va jamiyat boshqaruvida adolat o'rnatish va el-yurt manfaati yo'lida butun borlig'ini, hattoki o'z jonini beradigan hukmdorlar, davlat arboblari toifasiga kiradi. Buni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlaridan ham bilib olish mumkin: «Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini hayol ko'zgidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin»¹

Amir Temur, tarixda buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan, o'zining kuchli siyosati va keng miqyosdagi harbiy yurishlari tufayli Yevropa va Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan shaxsdir. Uning davlati XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida tashkil topib, qisqa muddat ichida kengayib, dunyoning turli qit'alariga ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur davlati haqida g'arb olimlarining qiziqishi, asosan, o'rta asrlar oxiri va yangi davr boshlarida boshlangan. Bu qiziqish Temurning o'z davrida Yevropa bilan aloqalari va uning vorislarining keyingi siyosiy faoliyatlari tufayli kuchaygan. G'arb olimlarining Amir Temur shaxsi va davlati haqidagi dastlabki tasavvurlari o'z davrida yaratilgan tarixiy manbalar, elchilar hisobotlari va keyingi tarixiy tadqiqotlar orqali shakllangan. Masalan, XIV asrda Amir Temur Yevropadagi katta davlatlar, ayniqsa Angliya, Fransiya va Kastiliya qirolliklari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Temuriylarning o'sha davr siyosiy va madaniy nufuzidan ilhomlangan ko'plab sayyohlar va tadqiqotchilar uning faoliyatini kuzatib, tarixiy yozuvlar qoldirganlar. G'arb tarixiy adabiyotida Amir Temur nomi ilk bor o'rta asrlarning mashhur sayyohlari orqali paydo bo'ldi. Jumladan, ispaniyalik elchi Ruy Gonsales de Klavixoning yozgan "Klavixo kundaliklari" asari Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan elchilar yozgan eng muhim tarixiy manbalardan biridir. U 1403-1406-yillarda Temurning hukmronligi haqida batafsil ma'lumot bergan va o'z kundaligida Temur davlatining siyosiy tizimi, savdo yo'llari va ijtimoiy hayotini yoritib bergan. Uning asari keyinchalik ko'plab g'arb tarixchilarining e'tiborini tortgan. Atoqli temurshunos fransuz olimlari Du Senksyon, Al'fons De Paparti, L.Lyangle Amir Temur shaxsi hamda uning olib brogan ichki va tashqi siyosati haqida juda ko'plab iliq fikrlarni bildirishgan, shu bilan birgalikda, mashhur nemis mutafakkiri Gammer ham Sohibqironning ajoyib fazilatlarini shunday ta'riflaydi "Temurni Aleksandr Makedonskiy bilan tenglashtirish kerak. Bu taqqoslash ularning hayot yo'llari va

¹ I.Karimov "Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutq", 1996-yil 18-oktyabr, Toshkent. / I.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi" 5-tom- T., 1997. 167-bet.

erishgan yutuqlari nuqtayi nazaridagina emas, balki ularning insoniyligi, istilo qilinganyerlari ko‘lami, jasurliklari va ularning kamsuqumliliklari jihatidan ham o‘xshashligidir²

XVI-XVIII asrlarda Yevropa ilmiy jamoalari o‘zlarining geografik kashfiyotlari va Sharqqa bo‘lgan qiziqishlari tufayli Amir Temur shaxsi va davlati tarixini o‘rganishni davom ettirishdi. Temurning harbiy strategiyasi va davlat boshqaruvi g‘arb olimlari uchun katta qiziqish uyg‘otdi. Ushbu davrda Temur haqida ko‘plab tarixiy va badiiy asarlar yozildi. Jumladan, Jan Sharden va Marko Polo kabi sayyohlarning asarlari Temuriylarning tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Temur haqidagi eng mashhur tarixiy va adabiy asarlardan biri bu ingliz yozuvchisi Kristofer Marlouning "Tamerlan Buyuk" pesasidir. Ushbu asar Amir Temurning hayoti va yutuqlarini dramatik tarzda yoritgan bo‘lib, g‘arb madaniyatida Temur obrazining keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. Bu pyesa orqali Amir Temur yevropaliklar nazarida jasur sarkarda, g‘olib hukmdor sifatida tasvirlangan. XIX asrga kelib, tarixshunoslik va sharqshunoslik fanining rivojlanishi bilan Amir Temur va uning davlatiga ilmiy yondashuv shakllandi. Arab qadimshunosi Muiniddin Natanziy ulug‘ Sohibqironning ichki muhitda olib brogan siyosatiga shunday ta’rif beradi: «Amir Sohibqiron ilmu hikmat ahli va fan arboblari bilan g‘oyatda ulfatlashgan edi. Ularni e’zozu ikrom qilishda mubolag‘alar ko‘rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali ummatlar nasabi va sharhi hollarini, Turk, Arab va Ajam podshohlarini va bu ilmning boshqa tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi. «...yana uning majlisida ilmiy masalalar bahsi juda ko‘p bo‘lib turardi. Nozik masalalar bahsida ustunlikka erishar, aksar hollarda u ko‘rsatgan yechim asosli va to‘g‘ri bo‘lard. Tib va nujum ilmlarining mashhur masalalarida yetarli ma’lumotga ega edi».³

Ushbu davrda frantsuz, nemis va ingliz tarixchilari Temurning siyosiy faoliyati, qo‘shinlarining yurishlari, davlat boshqaruvi va madaniy merosini ilmiy asosda o‘rganishni boshladilar. Edvard Gibbon, Henri Massen va V.V. Bartold kabi tarixchilar Temurning dunyo tarixidagi o‘rnini aniqlashda katta hissa qo‘shishdi. Ayniqsa, Bartoldning tadqiqotlari Temuriylar davrining Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni va madaniy yutuqlarini yoritishga bag‘ishlangan. XX asrda Amir Temur shaxsini o‘rganish yanada kengaydi va ilmiy asoslarga ega bo‘ldi. Ko‘plab g‘arb olimlari Temurning harbiy strategiyasi va uning davlatining iqtisodiy hayotini chuqur tadqiq qildilar. Masalan, britaniyalik tarixchi Deyvid Morgan o‘zining Temuriylar tarixiga oid

² Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g‘aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent-2007. 277-bet

³ Muiniddin Natanziy "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" T. "O‘zbekiston"-2011

tadqiqotlarida Temurning siyosiy mahorati va Sharqning o'sha davrdagi iqtisodiy muammolarini yoritib berdi. Bundan tashqari, Temurning o'z davrida ilm-fan, san'at va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi alohida e'tirof etildi. Temuriylar davrida yaratilgan Samarqand va Buxoro kabi shaharlarning jahon madaniy merosidagi o'rni g'arb olimlari tomonidan yuqori baholandi. Bugungi kunda ham g'arb olimlari Amir Temur davlatining o'rganishda davom etmoqda. Temur shaxsi dunyo tarixidagi buyuk strateg va hukmdor sifatida nafaqat tarixchilar, balki harbiy mutaxassislar va iqtisodchilar tomonidan ham o'rganilmoqda.

Amir Temur davlatining o'sha davrdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy yutuqlari g'arb tadqiqotchilarining diqqat markazida qolmoqda. Amir Temurning g'arbda keng o'rganilganligi uning jahon tarixidagi o'chmas izini va butun dunyo tarixiy-madaniy rivojiga qo'shgan ulkan hissasini yana bir bor tasdiqlaydi. Buyuk Sohibqironning butun deyarli butun umri janggohlarda va safarlarda o'tdi. Bu davr ichida Sohibqiron o'zining keng dunyoqarashi, teran fikrlashi, barcha ishlarda "adolat" tamoyilini ustuvor qo'yganligini anglab yetamiz.⁴ Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Ulug' bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o'lchov bilan baholab bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, oradan 685 yil o'tibdiki, buyuk Sohibqiron siymosi nafaqat xalqimiz, qolaversa, dunyo axlini ham xayratga solib kelayotganligi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol tasdig'idir. Amir Temur ana shunday tarixiy va unutilmas shaxsdir. G'arbiy Evropaning ilg'or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilmfan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e'zozlab o'quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Shunday ekan bugun yoshlarimiz ko'z o'ngida buyuk bobokolonimiz siymosini gavdalantirish eng muhim va dolzarb vazifa ekan, biz tadqiqotchilarning asl vazifasi shu yo'nalishlarda muvaffaqiyatli ish olib borish eng yuksak vazifamizdir.

Xulosa

Xulosa qilib ayta olamanki, Amir Temur shaxsi va davlati g'arb olimlari tomonidan o'rganilishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi va turli bosqichlarda shakllangan. Dastlab XIV-XV asrlarda Yevropaga yuborilgan elchilar va sayyohlar tomonidan Temur davlatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti tasvirlangan. Ispan

⁴ Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent2007. 279-bet.

elchisi Ruy Gonsales de Klavixo, sayyohlar va tarixchilar o‘z yozuvlari orqali Amir Temur obrazini Yevropada taratgan va uni jasur sarkarda sifatida tanitgan. Keyinchalik, XVI-XVIII asrlarda Yevropada Amir Temur faoliyati badiiy va tarixiy asarlarda aks ettirilgan bo‘lsa, XIX-XX asrlarda ilmiy tarixshunoslik asosida chuqur tadqiqotlar olib borildi. Amir Temurning harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvi va madaniy merosi g‘arb olimlari uchun qiziqarli tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda. Temurning dunyo tarixidagi o‘rni uning yuksak siyosiy mahorati, Markaziy Osiyoni birlashtirishdagi muvaffaqiyati va ilm-fan, madaniyat rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ham g‘arb tarixchilari va tadqiqotchilari tomonidan Amir Temur shaxsi o‘rganilib, uning boy merosi jahon tarixidagi muhim qadriyat sifatida baholanmoqda. Bu esa Amir Temurning jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov “Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so‘zlagan nutq”, 1996-yil 18-oktyabr, Toshkent. / I.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” 5-tom- T:, 1997. 167-bet.
2. Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O‘zbekiston” 2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. - М.: Международные отношения. - 1980. - 341 б.
4. Hamdam Sodiqov “Amir temur hayotidagi g‘aroyibotlar”. “Art Flax” Toshkent2007. 279-bet.

O'ZBEKISTONDA QATOGON DAVRLARI

Abdiraxmatov Quvonchbek

Boxodirov Zohidjon

Eshboltayev Bunyod

Boyto'rayev Sirojiddin

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA: O'zbekiston tarixi davomida kechgan qat'agon davrlari, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek, bu davrda O'zbekistonda ro'y bergan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi. Maqola, qat'agon davrlarining xalq hayotiga ta'siri, o'sha davrlardagi madaniy meros va siyosiy tarakkiyotni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Qat'agon, O'zbekiston tarixi, Ijtimoiy o'zgarishlar, Madaniyat, Siyosiyat

АБСТРАКТНЫЙ: В нем представлена информация о периодах репрессий в истории Узбекистана, их причинах и последствиях, а также важных социальных, экономических и культурных изменениях, произошедших в Узбекистане в этот период. В статье анализируется влияние репрессий на жизнь людей, культурное наследие и политическое развитие того времени.

Ключевые слова: Репрессии, История Узбекистана, Социальные изменения, Культура, Политика

ABSTRACT: It provides information about the periods of repression in the history of Uzbekistan, their causes and consequences, as well as important social, economic and cultural changes that took place in Uzbekistan during this period. The article analyzes the impact of repressions on people's life, cultural heritage and political development of those times.

Key words: Repression, History of Uzbekistan, Social changes, Culture, Politic

Kirish

O'zbekiston tarixi ko'plab murakkab va qiyin davrlarni o'z ichiga oladi. Qat'agon davrlari — bu tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan, asosan siyosiy repressiya, iqtisodiy qiyinchiliklar va inson huquqlarining poymol qilinishi bilan bog'liq holatlardir. Ushbu maqolada O'zbekistonning qat'agon davrlari chuqur tahlil qilinib, ularning xalqning ijtimoiy va madaniy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rsatiladi.

1. Qat'agon davrlariga kirish:

O'zbekistonda qat'agon davrlari ko'plab tariqiy voqealar bilan bog'liq. Ushbu davrlarning kelib chiqishi asosan siyosiy rejimning o'zgarishi va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Misol uchun, 1930-yillar qat'agon davri sifatida ko'rilgan bo'lib, bu davrda ko'plab ziyolilar, san'atkorlar va oddiy fuqarolar repressiyaga duch kelgan.

2. Tarixiy sharoit va qat'agon:

Ushbu davrlarda O'zbekiston xalqining ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Repressiya va xalqni qo'rqitish natijasida ko'plab insonlar qamoqqa olingan, ko'plab oilalar esa tugatilgan yoki qochishga majbur bo'lgan.

3. Madaniy meros va urf-odatlar:

Qat'agon davrida O'zbekiston madaniyati ham jiddiy zarargarchilikka uchradi. Ko'plab san'atkorlar va yozuvchilar o'z fikrlarini ifoda eta olmay qoldi. Ammo, bu davrda ham xalq o'z urf-odatlarini va madaniyatini saqlab qolishga harakat qildi, natijada xalq og'zaki ijodi va an'analari ham saqlanib qoldi.

4. Qat'agon davridan saboq:

Bugungi kunda O'zbekiston qat'agon davridan olingan saboqlarni o'rganishga va kelajakda bunday holatlarning takrorlanmasligi uchun harakat qilmoqda. Tarixni anglash va inson huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Tosh davri — insoniyat taraqqiyotidagi eng qadimgi davr. Bu davrda mehnat qurollari hamda qurolyarog'lar, asosan: tosh, yog'och va suyakdan yasalgan. Tosh davri qadimiy (paleolit), o'rta (mezolit) va yangi (neolit) davrlarga bo'linadi. Tosh davri bundan taxminan 2 million yil oddinroq boshlanib, O'zbekistonda 4 ming yil burun tugagan (ayrim hududlarda uzoqroq davom etgan). Tosh davri odamlari terimchilik, ovchilik, baliq ovlash bilan shug'ullangan; neolit davrida dehqonchilik qilish va chorvachilik paydo bo'lgan. Ijtimoiy munosabatlar „ibtidoiy odamlar to'dasi“ga, so'ngra ibtidoiy

urug'doshlik tuzumiga xos bo'lgan. Tosh davrining qad. davri — paleolit 3 davrga bo'linib o'rganiladi: quyi paleolit, o'rta paleolit, yuqori paleolit. Quyi paleolit davri ilmiy xulosalarga ko'ra, odam ilk bora mehnat qurollarini yasagan vaqtlardan boshlangan. Bu jarayon yer sharining turli joylarida turli vaqtlarda sodir bo'lgan (mas., Afrikada bu jarayon 3 million yil avval boshlangan, Yevropaning jan. va Osiyoda taxminan 2 million yil avval). Ammo qayerda va qachon boshlanganidan qat'iy nazar, quyi paleolit insoniyatning eng uzoq, davom etgan tarixini aks ettirgan. Tosh asri texnikasining takomillashuvi natijasida disk shaklidagi (rapidasimon) nukleuslarni yuzuga kelishi va ulardan o'tkir uchli uchburchaksimon uchirindilarni yuzuga kelishi bilan quyi paleolit o'rnini o'rta tosh davri, ya'ni mustye davri (qarang Mustye madaniyati) oladi. Mustyedani so'ng yuqori paleolit davri boshlanadi. Yevropada, Osiyoda, jumladan, bizning O'rta Osiyoda o'rta paleolit hozirgi kunimizdan 200 ming yil avval boshlanib, o'rta hisobda 160 ming yil davom etadi va o'rnini 50 ming yil avval progressivroq bo'lgan yuqori paleolit davriga bo'shatib beradi. Yuqori paleolit davrida, asosan, realistik san'at rivojlanadi. O'sha davr odamlari hayvonlarni ovlash jarayonini qanday ko'rgan bo'lsalar, shunday ravishda g'or devorlariga rasmlar chizganlar. Chizganda ham qizil va kora tabiiy ranglarda chizganlar. Bu narsa odamlarning ongini rivojlanganligini ko'rsatadi. Mehnat qurollarini yasash texnikasi bo'yicha quyi va o'rta paleolitda nisbatan juda yuksak ko'tarilgan yuqori paleolit davri, o'z navbatida, bundan 12—10 ming yil avval progressivroq bo'lgan mezolit davri bilan almashdi. Tosh davrining so'nggi bosqichi bo'lgan neolit bundan 5—4 ming yil avval, davri bilan almashdi.

Sobiq Ittifoqning tarixi sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'onlik siyosatidir.

XX asrning 30 yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi Qahramonlari, mashhur fan-arboblari, mohir diplomat, shoir va yozuvchi, rassom yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchi, kolxozchilar edi.

Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlarni «Bosmachi» tamg'asi bilan yo'q qilinib tashlandi. So'ng aholini mehnat qilib biror narsa orttirgan o'rta hol qismi bu baloga giriftor etildi.

Alohida hech qanday g'ayri qonuniy harakatlar sodir qilmagan partiyaning ichki muholiflari 20-yillarning 2-yarmidan boshlaboq qamoqqa olindi va surgun qilindi. Shundan keyin qatag'onlar ko'payib, ularning sabablari esa soxtalashtirildi. Bu

birinchi galda jadid maktablarining mutaxassislari: olimlar, injenerlar, agronomlar, iqtisodchilar va ziyolilar guruhiga ta'lluqli edi. Ularning ko'pchiligini josuslar «qo'poruvchilar» «xalq dushmani» deb e'lon qilinib, turli xil jazolarga (qamoq, surgun, otuv va h.k.) hukm qilindi.

Kishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish davrida dexqonlarning anchagina qatlamlari qatag'on qilindi. Yangi qurlishlardagi yosh ishchilar, qishloqlarda naridan beri o'qitilgan mexanizatorlar ko'pincha texnika buzilishida aybdor bo'lib qoladilar. Bu ham keyinroq sinfiy dushman qo'poruvchiligi sifatida baholanadigan bo'ldi.

«Sinfiy dushman unsurlar»ga qarshi ishlarni 1929 yildan e'tiboran «uchlik» deb ataluvchi komissiyalar ko'rib chiqa boshladilar. Uning tarkibi quyidagicha bo'lar edi: ya'ni, Raykomning birinchi sekretari, Rayon ijroiya komiteti raisi, Rayon GPUning boshlig'idan iborat bo'lar edi. Mahkum etilganlar shimolga GULag Arxipelaglariga tushar edilar.

Qatag'onlar 30-yillar boshigacha asosiy sinfiy dushman unsurlar-«quloqlar», «burjua mutaxassislari»ga qarshi kurash ostida olib borildi.

1934 yildan boshlab qatag'onlar partiyaning avvalgidan ham kengroq ko'lamda ya'ni, «Fashizm agenti», «Kapitalistik burjua davlat tarafdori», «Antisovet markaz tashkilotchisi», «Ko'poruvchi», «Shpion» kabi aybnomalar ostida boshlanib ketdi. Bunga MK siyosiy byurosining a'zosi, partiya MK va Leningrad shahar komitetining sekretari S.M.Kirovning 1934 yilning 1 dekabrda o'ldirilishi bahona bo'ldi. Bu ishning shaxsan uyushtiruvchisi Stalin edi, ammo bu ishdan xabardor bo'lgan barcha guvohlar yo'qotildi.

Davlat jinoyatchilari uchun qamoq muddati 10 yildan 25 yilgacha oshirildi. VKP(b) MKning sekretari Kaganovichning taklifiga ko'ra, siyosiy ayblovlar bo'yicha ishlar suddan tashqari tartibda, lekin oliy jazo chorasi qo'llanilgan holda qarab chiqila boshlandi. 1934 yil OGPU ichki ishlar xalq Komisarligi qilib qayta o'zgartirildi (NKVD-ruscha-muallif).

1937 yili dunyo matbuotida harbiylar ishi deb atalgan sud prosessi e'lon qilindi. Unda Qizil Armiya harbiy boshliqlarining ko'pchiligi Stalin tomonidan qoralandi. 1937 yilning 2 iyunidagi gazetalarda Harbiy Kollegiya sudiga yirik harbiy boshliqlar: M.N.Tuxachevskiy, I.E.Yarkin, I.P.Uborovich, R.P. Eydeman berilgani e'lon qilindi va ular shu kunning o'zidayoq otishga hukm qilindilar. Bunday qatag'on ilgari Qizil Armiya safini podsho zabitlaridan, generallaridan tozalash sifatida 20-yillarda bo'lgan

bo`lsa, 30-yillar oxirida endi sotqin, «Troskiychi-Zinobyevchi» inqilob dushmani kabi soxta ayblovlar bilan almashgan edi.

Voroshilovning ma`lumotiga ko`ra, 20 yildan 30 - yillarning yarmigacha Qizil Armiya safidan 47 mingta harbiy va 5 mingta muxolif chetlatilgan. O`sha paytda SSSRda 5ta marshal bo`lgan bo`lsa, shundan 3 tasi: Tuxachevskiy, Yegorov, Blyuxer terror qurboni bo`ldi. Faqat Voroshilov va Budyonniy tirik qolgan edilar. Stalin qatag`onlarining xususiyatli tomoni shunda ediki, bu qatag`ondan hukumat boshliqlaridan tortib farroshgacha qochib qutula olmas va ular uchun keragicha aybnoma topilar edi. Masalan: 1928 yili Yoqutlar isyonidan keyin 35 ming kishi otib tashlandi, 1930 yil boshida Ukrainani ajratib olish ittifoqi ishi sudda ko`rildi va professor Yefremov va Chekovskiylar hamda ko`plab kazaklar yo`q qilindi.

Markazda va joylarda harbiylar, injenerlar, razvedkachilar, partiya va Sovet rahbarlariga qarshi o`tkazilgan qatag`onlar mudofaa salohiyatiga berilgan ulkan zarba bo`ldi. Stalin Gitlerchilar Germaniyasining harbiy rejalari to`g`risidagi qimmatli ma`lumot olishga erishgan razvedkaga ishonmay Qizil Armiya Bosh Shtabi Bosh Razvedka Boshqarmasining 5ta boshlig`ini birin ketin qatag`on qildi.

Qatag`on haqida general - leytenant Pavlenko shunday degan edi; «Dunyo tarixida yaqinlashib kelayotgan urush arafasida hech qaysi mamlakat ayovsiz va keng doirada o`z harbiy mutaxassislarini yo`q qilganini bilmaydi».

1937-1938 yillar qatag`on avjiga chiqqan davr bo`lib bunda ko`plab partiya va davlat arboblari nohaq qurbon qilindi. Jumladan, butun boshqaruv apparati Leningradda yo`q qilindi. Bunday qatag`onlar RSFSR, Ukraina, Ozarbijon, Gruziya, Armanistonda ham keng qo`lamda amalga oshirildi.

Sovet fanining nazariyotchilari, olimlar va novatorlari ham qatag`on qurbonlari bo`ldilar. Masalan: genetika fanining otasi Vavilov, geografik - biosfera ta`minot nazariyotchisi Vernadskiy V.I., Ioffe - fizik, Luzin - buyuk matematik, Lisenko - biolog nazariyotchi, Bulgakov, Platonov kabi adabiyot nomoyandalari va xokozalarning qatag`on etilishi ilm-fan va madaniyatning chinakam fojeasi bo`ldi.

O`zbekistondagi partiya xodimlari va davlat arboblari yo`q qilinishi ham o`ziga xos tarzda amalga oshirildi. Butun Sobiq ittifoqda bo`layotgan qatag`on siyosati O`zbekistonni ham chetlab o`tmadi. Stalin va uning qonxo`r jallodlari o`zbek xalqining chin farzandiga nisbatan ham qatag`onlar yo`lini tutdilar. O`zbekistonda qamalmagan

biror taniqli shaxs, rahbar, partiya xodimlari qoldirilmadi. Ayrimlari yaqqol ko`zga tashlanmaganlar xufiy nazoratga olindi.

Respublikada birinchi qatag`on qurboni respublika Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo`jayev edi. U 1896 yili Buxoroda savdogar millioner oilasida dunyoga kelgan. Fayzulla Xo`jayev 1922-1924 yillarda Buxoro Respublikasi Mehnat va Mudofaa Sovetining raisi bo`ldi.

1920 yil 11 sentabrda BKP safiga kirdi. So`ngra Buxoro Komunistik Partiyasi MK tarkibiga ham kiritildi. 1920 yil oktabrda Buxoro Xalq Nozirlari Soveti raisi qilib saylandi.

RKP(b) MKning 1924 yil 5 noyabrdagi qaroriga binoan O`zbekiston revkomi raisi etib tasdiqlandi. 1925 yil 14 fevraldan 1937 yil 17 iyungacha O`zbekiston SSR XKS raisi lavozimida ishladi.

1923 yilning boshlarida F.Xo`jayev Germaniyada bo`ladi. Maqsad el dardiga davo izlash ya`ni, Germaniyaning Buxorodagi elchixonasini ochish, Rossiyaning Buxoro Xalq Respublikasi ichki ishlariga aralashuvini oldini olish edi.

Fayzulla Xo`jayev siyosiy bilimli, madaniyatli, savdaxonli bo`lishga doim katta e`tibor bergan. Mana uning o`z yaqinlari davrasida aytgan so`zlari: "Sizlar o`qimay qo`ydinglar. O`z ustimizdan ishlamayapmiz. Madaniy darajamiz va ma`naviy qiyofamiz achinarli holatga kelib qoldi. Biz ana shu savodsizligimiz oqibatida Vatanni, Buxoroni boy berib qo`ydik. Shu sababli ham o`z Vatanimizda rahbarlik ishlarini qo`lga ololmadik va mustaqillik yo`lida aql bilan ish yurita bilmadik."

1938 yilning 2-13 martida Moskvadagi Soyuzlar uyining katta zalida F.Xo`jayev va bir guruh partiya Sovet xodimlari sud qilindi. Unga Sovetlarga qarshi, millatchi degan aybnoma qo`yildi va otib tashlandi. Keyinchalik Fayzulla Xo`jayev o`limidan so`ng oqlandi.

1937 yilgi qatag`on Akmal Ikromovni ham chetlab o`tmadi. A. Ikromov qanday odam edi?

U 1898 yil 14 noyabrda Toshkentdagi O`hchi mahallasida yashovchi Ikrom domla oilasida dunyoga keldi. Onasi Tojiniso opa ma`rifatli ayol edi. Ular uylarida ochilgan maktabda bolalarni o`qitar edilar. Yosh Akmal ham ularga qo`shilib savodini chiqaradi, diniy va dunyoviy darsliklarni, kitoblarni o`qish imkoniyatiga ega bo`ldi. 1918 yil 18 fevralda eski shahar tashkiloti A. Ikromovni bolsheviklar safiga qabul qiladi. Ushbu davrdagi barcha ziyolilar qatori u ham sovet mafkurachilarining nayrangiga ishonib

aldandi. Shu kundan e'tiboran u, partiya qayerga yuborgan bo'lsa o'sha yerda, o'z kuchi va bilimni ayamay sarf qildi. 1926 yilda "Hujum" tadbiri buyicha partiya a'zosi sifatida Toshkent, Farg'ona, Namangan, Karshi, Termiz va boshqa shaharlarda faol xotin-qizlar bilan uchrashdi. 1926 yilda Mehnat Qizil Bayroq, 1935 yil dekabrda Lenin ordeni bilan taqdirlandi.

1937 yil 2-13 mart kunlari Moskvadagi Soyuzlar uyning katta zalida F.Xo'jayev, A.Ikromov va boshqalar sud qilinadi va 15 mart kuni shoshilinch ravishda qamoqxonada otib tashlanadi.

Toshkendagi qamoqxonada ushlab turilgan xotini Zelkina ham 1938 yilning 7 oktabrida otib tashlanadi. Akmal Ikromovning 5ta aka ukalari va 2ta o'g'li ko'p yillar davomida qamoq va surgunlarda sarson bo'lishadi.

1953 yil iyul Plenum qarorlari asosida tuzilgan maxsus komissiya ishi asosida 1957 yil 31 iyuldagi qaroriga asosan A. Ikromov oqlandi va partiya safiga qayta tiklandi.

Ana shunday qatag'on qilinganlardan yana biri Nazir To'raqulov bo'lib, u 1892 yilda Qo'qon shahrida o'ziga to'q oilada dunyoga kelgan. Uning otasi o'z davrining ziyoli, rus tilini yaxshi biladigan kishilardan edi.

Rus-tuzem maktabini tamomlagan Nazir To'raqulov, keyinchalik savdo bilim yurtida o'qidi. 1913 yili To'raqulov savdo institutiga o'qishga kirdi. U birinchi jahon imperialistik urushida, bolsheviklar inqilobi g'alabasiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi.

1918 yil oktabrida Ko'qon Soveti ijroko'mi kotibi To'raqulov bolsheviklar partiyasi safiga kirdi. 1919 yil 15 avgustda Farg'ona viloyat musulmonlar organi bo'lgan "Yangi Sharq" gazetasi muharriri etib tayinlandi.

1919 yil sentabrda Nazir To'raqulov MIK raisi etib saylandi. 1920 yil iyunida Turkkompartiyasi o'lka musulmonlari byurosi va chet el kommunistlarining tashkilotlari birlashdi va unga rahbarlik qilish Kuybishevning taklifiga ko'ra To'raqulov rais etib saylandi.

1922 yil iyulida To'raqulov Samarqand viloyat partiya tashkilotlaridan bolsheviklarning Butun Rossiya XII konferensiyasiga delegat qilib saylandi. Konferensiya tugagach, Moskvada SSSR xalqlari Markaziy nashriyot boshqarmasi raisi etib saylandi. O'z ustida tinmay ishlashi natijasida To'raqulov ko'p tillarni o'rganadi. Shuning uchun ham 1928 yilda diplomatik ishga o'tkazilib Saudiya Arabstonidagi «Hijoz» viloyatiga konsul qilib tayinlanadi. Bu yerda 4 yil ishlagach,

1932 yildan Sovet Ittifoqining Saudiya Arabistonidagi muxtor elchisi sifatida faoliyat yuritadi.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Karimov, I. (1999). O'zbekiston tarixi. Tashkent: O'zbekiston.
2. Muminov, R. (2005). Repressiya va uning O'zbekistondagi ta'siri. Tashkent: Fan.
3. A'zamov, S. (2010). Madaniyat va qat'agon. Tashkent: O'zbek davlat nashriyoti.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/sovet-tuzumining-qatag-onlik-siyosati-va-uning-o-zbekistondagi-og-ir-oqibatleri-sovetlar-davrida-o-zbekistonning-iqtisodiy-va-ma-naviy-qaramligi-uning-oqibatleri>

KRIMINALISTIK TRASOLOGIYA

Mamanarov Xaitmurat

Termiz davlat universiteti, yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kriminalistik trasologiya bo'yicha ilmiy yondashuvlar va amaliy qo'llanmalar tahlil qilingan. Trasologiya jinoyat joyidagi izlar orqali hodisa tafsilotlarini aniqlash va dalillarni hujjatlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida trasologiyaning nazariy asoslari va zamonaviy texnologiyalari o'rganilgan. Kriminalistik trasologiya jinoyat joyidagi izlarni aniqlash, qayd etish va tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi ilmiy sohadir. Ushbu yo'nalish jinoyatni ochish va dalillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada trasologiyaning nazariy asoslari, usullari va zamonaviy texnologiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Kriminalistika, jinoyat, taqqoslash, trasologiya, tahlil, natija, ekspert, ekspertiza, izlarning tasniflari, qo'l, barmoq izlari, oyoq va poyabzal izlari, buzish qurollaridan qolgan izlar. Transport vositalarining izlari, izlarni ko'zdan kechirish va protsessual rasmiylashtirish.

Abstract

This article analyzes scientific approaches and practical applications of forensic traceology. Traceology plays an important role in determining the details of an incident and documenting evidence through traces at a crime scene. The theoretical foundations and modern technologies of traceology were studied during the research. Forensic traceology is a scientific field that deals with the identification, recording and analysis of traces at a crime scene. This direction is important in solving crimes and identifying evidence. The article examines the theoretical foundations, methods and modern technologies of traceology.

Keywords. Forensic science, crime, comparison, trasology, analysis, results, expert, examination, classification of traces, handprints, fingerprints, footprints and shoe prints, traces left by weapons of destruction. Traces of vehicles, examination and procedural registration of traces.

KIRISH

Kriminalistik trasologiya kriminalistika fani bo'limlaridan biri bo'lib, u jinoyat joyidagi turli izlar va ularning dalil sifatidagi tahliliga bag'ishlanadi. Trasologiya jinoyat joyida qoldirilgan izlarni tahlil qilish, izlarni taqqoslash va ular orqali jinoyatchining harakatini aniqlash uchun zarur bo'lgan usullar va texnikalarni o'z

ichiga oladi. Ushbu soha tergov jarayonida katta ahamiyatga ega, chunki jinoyat joyidagi izlar dalillar sifatida keng qo'llaniladi.

Trasologiyaning rivojlanishi kriminalistikaning umumiy rivojlanish tarixi bilan bog'liq. Jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirish va jinoyatlarni fosh qilish maqsadida dalillarni o'rganish va izlarni tahlil qilish zaruriyati kelib chiqdi. Trasologiyaning dastlabki bosqichlari XIX asrga borib taqaladi, lekin bu davrda trasologiya hali maxsus fan sifatida shakllanmagan edi. Trasologik izlar ko'pincha boshqa dalillar bilan birgalikda tahlil qilinardi.

XX asr boshlariga kelib, jinoyat joyidagi izlar alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Trasologiyaning rivojlanishi bilan barmoq izlari, oyoq izlari, qurol izlari kabi turlar o'rganildi va bu izlar jinoyatlarni tergov qilishda hal qiluvchi dalillar sifatida foydalanila boshlandi. Trasologiya shundan so'ng mustaqil fanga aylandi. Bugungi kunda trasologiya zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan bo'lib, turli izlarni tahlil qilishda eng ilg'or usullar va vositalar qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida aniqlanishicha, trasologiya bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. L. V. Golovin (2019) izlarning tasnifi va ularni aniqlash usullarini o'rgangan. V. S. Kuznetsov (2020) trasologik tadqiqotlarning amaliyotdagi o'rnini yoritgan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan Sh. X. Karimov (2022) trasologiyaning sud ekspertizasidagi ahamiyatini ta'kidlagan.

Tadqiqotda trasologiyaning asosiy usullari o'rganildi. Jumladan:

Izlarni qayd etish: foto va gipsoqoliplardan foydalanish orqali;

Tasniflash: izlarning shakli, hajmi va boshqa xususiyatlariga ko'ra tasniflash;

Tahlil qilish: izlarning jinoyat tafsilotlari bilan bog'liqligini aniqlash.

Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, 3D skanerlash va raqamli modellar usullari ham qo'llanildi.

NATIJALAR

Kriminalistik trasologiyaning asosiy maqsadi – jinoyat joyidagi izlarni topish, qayd etish va tahlil qilish orqali jinoyatchilarni aniqlash va jinoyatni qanday sodir etilganligini tushunishdir. Trasologik tahlil jinoyat joyidan dalillar to'plashda muhim rol o'ynaydi, chunki izlar jinoyatchi va jabrlanuvchining harakatlari haqida ko'p ma'lumot beradi.

Trasologiyaning asosiy vazifalari:

1. Izlarni aniqlash: Jinoyat joyidagi izlar dastlabki bosqichda aniqlanishi kerak. Bu izlar barmoq izlari, oyoq izlari, kiyim yoki boshqa ob'ekt izlari bo'lishi mumkin.

2. Izlarni qayd etish: Topilgan izlar aniq va to'liq qayd etilishi kerak. Bu ularning sudda dalil sifatida ishlatilishini ta'minlaydi. Izlarni qayd etish uchun fotografiya va boshqa vositalar qo'llaniladi.

3. Izlarni tahlil qilish: Izlarni tahlil qilish orqali jinoyatni sodir etgan shaxsning harakatlari, uslubi va boshqa tafsilotlari aniqlanadi. Bu jarayonda izlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari o'rganiladi.

4. Izlarni taqqoslash: Tahlil qilingan izlar jinoyatchi yoki jabrlanuvchining izlari bilan taqqoslanadi. Bu orqali tergovchilarga jinoyatchini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

5. Sudga taqdim qilish: Trasologik dalillar sudda dalil sifatida taqdim etilishi mumkin. Shu sababli izlarning to'g'ri qayd etilishi va ularning ishonchliligi katta ahamiyatga ega.

Trasologiya fanida o'rganiladigan asosiy izlar

Trasologiya fani izlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, jinoyat joyida qoldirilgan har qanday iz bu fan doirasida o'rganiladi. Trasologik izlarning turlari ko'p va ularning har biri jinoyatni tergov qilishda muhim rol o'ynaydi. Quyida trasologik izlarning asosiy turlari keltirilgan:

1. Barmoq izlari

Barmoq izlari trasologik izlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Har bir insonning barmoq izlari noyob bo'lib, ularni jinoyatchilarni aniqlashda ishonchli dalil sifatida qo'llash mumkin. Barmoq izlari jinoyat joyidagi ob'ektlar, qurollar yoki boshqa buyumlar ustida qoldirilishi mumkin. Barmoq izlari ikki turga bo'linadi:

- Yaltiroq izlar: Bu izlar insonning yog' va teri moddalari qoldirgan izlar bo'lib, ko'zga ko'rinadi va oddiy yoritish orqali aniqlanadi.

- Ko'rinmas izlar: Bu izlar ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi va maxsus usullar yordamida aniqlanadi. Ko'pincha kukun, ultrabinafsha nurlanish yoki kimyoviy reagentlar orqali bu izlar ko'rinadi.

2. Oyoq izlari

Oyoq izlari jinoyat joyidagi yerda yoki yuzalarda qoldirilgan izlar hisoblanadi. Bu izlar jinoyatchining harakat yoʻnalishini, oyoq kiyimi yoki oyoq oʻlchamini aniqlashda yordam beradi. Oyoq izlari, shuningdek, jinoyatchining harakat tezligi va uslubini aniqlash uchun tahlil qilinishi mumkin.

3. Transport vositalari izlari

Jinoyat joyida transport vositalari, masalan, avtomobil, velosiped yoki motosikl izlari qoldirilishi mumkin. Bu izlar jinoyatni sodir etishda qoʻllanilgan vositani aniqlash va uning yoʻnalishini tushunish uchun tahlil qilinadi. Transport vositalari izlari odatda yoʻl izlari, gʻildirak izlari yoki quvvat vositalari izlaridan iborat boʻladi.

4. Qon va biologik izlar

Qon izlari jinoyat joyida keng tarqalgan trasologik izlardan biri hisoblanadi. Qon izlari orqali jabrlanuvchining yaralanish joyi, yaralanish turi va oʻlim sababi aniqlanishi mumkin. Bundan tashqari, qon izlari DNK tahlili uchun ishlatiladi va bu orqali jinoyatchini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Biologik izlar orasida soch, teri, soʻlak va boshqa inson tanasi moddalari ham oʻrganiladi.

5. Qurol izlari

Qurol ishlatilgan jinoyatlarda qurolning oʻzi yoki uning qoldirgan izlari trasologik tahlil uchun muhim dalil boʻlib xizmat qiladi. Bu izlar qurolning qanday foydalanilgani, u qanday joylashgani va oʻq-dorilarning qoldirgan izlari orqali tahlil qilinadi. Balistika tahlili trasologik izlar orasida muhim boʻlib, u qurolning harakatini va oʻqning yoʻnalishini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA

Sud trasologik ekspertizasi kriminalistik ekspertizaning bir turi hisoblanadi. Trasologik ekspertiza yordamida turli-tuman masalalar hal etilishi mumkin. Shulardan eng muhimi iz hosil qiluvchi obyekt va uni qoldirganizi boʻyicha individual identifikatsiya qilishdir. Sud trasologik ekspertizasining obyektlari boʻlib qoʻl, oyoq, buzish qurollari, transport vositalari va boshqa izlar hisoblanadi.

Kriminalistik trasologiya jinoyat tergovining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish jinoyatga oid dalillarni yanada samarali qayta tiklash imkonini beradi. Kelgusida trasologiya sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar tergov jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bazarova D.B., Astanov I.R. Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. – T.: TDYuU, 2019. – 300 b.
2. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU, 2018. – 553 b.
3. Kriminalistika. Uchebnik. Kollektiv avtorov. –T.: TGYuU, 2018. – 516 s.
4. Kriminalistika: Darslik / T.B.Mamatqulov, I.Astanov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.
5. Mamatkulov T.B., Djumanov SH.T., Turgunov U.T. va boshq. Kriminalistik taktika: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 218 b.
6. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU, 2018. – 515 b.
7. Kolenko Y.V. - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i, Xidoyatov B.B. - TDYU Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasini mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent. <https://e-library.namdu.uz/2018..pdf>
8. M.Rustamboyev, A.Norboyev. Kriminalistika. Darslik. Toshkent: 2002. TDYU <https://e-library.namdu.uz/B.pdf>

HUJJATLARNI KRIMINALISTIK TEXNIKA USULIDA TEKSHIRISH

Mamanarov Xaitmurat

Termiz davlat universiteti, yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

- Ilze Kacane, Alina Romanovska (2021). "Re-visiting History and Culture in Latvian Literature: An Introduction". Knowledge Hub Publishing Company Limited, Vol. 13, No. 4. pp. 547-556. <http://www.fwls.org>
- H. Tristram Engelhardt Jr. MD, PhD, Mark J. Cherry (2002-05-20). "Allocating Scarce Medical Resources". Georgetown University Press. https://play.google.com/store/books/details?id=N5cQ-7G_cjgC&source=gbs_api

**“TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY XIZMATLARI HAMDA
ULARDAN FOYDALANISH *KAPITALBANK MISOLIDA*”**

Davlatyorova Aziza Berdiyorovna

TDIU magistranti

E-mail: davlatyorovaaziza@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqola O'zbekistonning tijorat banklarida masofaviy xizmatlarning ahamiyati va ulardan foydalanishning samaradorligini Kapitalbank misolida o'rganishga bag'ishlangan. Unda raqamli texnologiyalarning bank-moliya sohasidagi o'rni, masofaviy xizmatlarning turlari va ularning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Kapitalbank tajribasi asosida masofaviy xizmatlarning amaliy qo'llanilishi, mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati, qulayliklari va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, masofaviy xizmatlar, raqamli texnologiyalar, Kapitalbank, moliyaviy xizmatlar sifati, mijozlar ehtiyojlari.

Annotation. This article is dedicated to studying the significance of remote services in Uzbekistan's commercial banks and their effectiveness, with a focus on Kapitalbank. It examines the role of digital technologies in the banking and finance sector, the types of remote services, and their advantages. Based on the experience of Kapitalbank, the practical application of remote services, the quality and convenience of services provided to customers, and usage indicators are analyzed.

Keywords: commercial banks, remote services, digital technologies, Kapitalbank, quality of financial services, customer needs.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, moliya xizmatlarida ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Tijorat banklari mijozlarga qulaylik yaratish, ularning ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun masofaviy xizmatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlarda, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish va moliyaviy inkluzivlikni ta'minlash uchun masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, 2018 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha

choratadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko'rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi. ¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi PF-5992-son Farmonida ham aynan respublikamizdagi banklar va bank tizimini tubdan isloh qilish, ularda zamonaviy xizmatlarni yaratish shuningdek, masofaviy bank xizmatlari sifatini oshirishda blokcheyn hamda suniy intellektdan foydalanish kabi bir qator yo'nalishlarni ilgari surdi².

Masofaviy bank xizmatlari deganda mobil ilovalar, internet-banking, bankomatlar, infokiosklar va boshqa elektron platformalar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish tushuniladi. Ushbu xizmatlar nafaqat mijozlar uchun vaqt va xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratadi, balki banklar uchun ham operatsion xarajatlarni qisqartirish va xizmat ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish imkonini beradi.

Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish mavzusida xalqaro va milliy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotlar moliya sohasida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini o'rganishga, shuningdek, bank xizmatlarini takomillashtirishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha o'rganilgan asosiy ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. XX asrning 60-70 - yillari bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas Michigan universitetining "Kreditlash sohasidagi bank siyosati" (1971 y.), D.Revel Uels universitetining «Raqobat va bank faoliyatini boshqarish» (1978 y.), Jeneva universitetining «Jamg'arma banklarining kredit xizmatlari» (1974 y.) tadqiqotlari, Sh.Dereyning «Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat» asari (1977 y.) xamda G.Brayanning «Bank sohasidagi raqobat» tadqiqoti (1970 y.) chop etiladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o'rganishga bag'ishlangan.

Madgazieva Dinara Utkirovna bugungi kunda ATIB "Ipoteka-bank" olib borgan tadqiqotlari natijasida masofaviy (elektron) bank bozori ishtirokchilari bir nechta rivojlanish strategiyalariga amal qilishlari mumkinligi hamda ular orasida asosiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/24/80/0364-son

strategiya mavjudligi haqida o'zining "MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI" maqolasida bir qator fikirlarni ilgari surge. "Unga ko'ra uchta asosiy strategiya: xarajatlarni minimallashtirish, iste'molchilar guruhlarini farqlash va ma'lum bir mahsulotga e'tibor qaratish kabilar mavjud. Ushbu uchta asosiy strategiyaga muvofiq, har bir strategiya doirasida masofaviy (elektron) bankingni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: 1) xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini amalga oshirishda sa'yharakatlarni masofaviy (elektron) bank xizmatlari narxini pasaytirishga yo'naltirish kerak; 2) iste'molchilar guruhini farqlash strategiyasini amalga oshirishda - masofaviy (elektron) bank xizmatlari 3) yo'naltirilgan strategiyani amalga oshirishda - masofaviy (elektron) bank xizmatlari doirasida alohida mahsulotlarning torroq ixtisoslashuviga. sifatini oshirish, xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, masofaviy (elektron) bank xizmatlarining moslashuvchanligi, foydalanish imkoniyati va xavfsizligini oshirishdir."³

Tijorat banklari mamlakatda ijtimoiy tarmoqlarni faol ravishda qo'llab, bank mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish maqsadida samarali marketing strategiyalarini amalga oshirmoqda. Xususan, Hamkorbank, Universalbank, Kapitalbank, va Agrobank kabi banklar ijtimoiy tarmoqlarda maxsus akkauntlarni yuritib, mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish, ulardan kerakli ma'lumotlarni to'plash va qo'llab-quvvatlash sifatini oshirishda ushbu vositalardan foydalanmoqda. Masalan, Agrobank va Hamkorbank ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z mobil ilovalarini muntazam ravishda targ'ib qiladi, shuningdek, mijozlardan tushgan taklif va e'tirozlarni bevosita ushbu platformalar orqali qabul qiladi. Natijada, mijozlarning talablariga tezkor javob qaytarilib, zarur hollarda tegishli choralar amalga oshiriladi. Shu boisdan, ijtimoiy tarmoqlar banklar uchun mijozlar bilan samarali muloqot o'rnatishning muhim vositasi hisoblanadi.

Masofaviy bank xizmatlari esa mijozlarga bankka borish zaruriyatini yo'qotgan holda, bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu xizmatlardan foydalanish uchun mijozga faqatgina kompyuter yoki mobil qurilma yetarli bo'ladi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlar uchun nafaqat vaqt va mablag' tejalişini ta'minlaydi, balki bank bilan ishlashni yanada qulaylashtiradi. Ushbu tizim xizmat ko'rsatish shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Informatsion xizmatlar – moliyaviy ma'lumotlarni yetkazish uchun;

³ Madgazieva Dinara "MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI"

• Tranzaksion xizmatlar – turli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Masofadan xizmat ko'rsatishning asosiy printsipti – bank va mijoz o'rtasida turli axborotlarni xavfsiz tarzda almashishdan iborat. Xususan, quyidagi masofaviy tizimlardan foydalaniladi:

1. Bank-Mijoz tizimi – mijozning kompyuteriga o'rnatiladigan maxsus dastur orqali to'lov hujjatlari va boshqa ma'lumotlarni boshqarish imkonini beradi. Bank va mijoz o'rtasida aloqa to'g'ridan-to'g'ri modem orqali amalga oshiriladi.

2. Internet-banking – mijozlarga o'z hisobvaraqlarini internet orqali boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish va moliyaviy hujjatlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Ushbu tizim yordamida mijoz istalgan joyda va vaqtda bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

3. Mobil banking – internet-banking texnologiyasi asosida ishlaydigan va mobil qurilmalar orqali xizmat ko'rsatadigan tizim.

4. SMS-banking – mijozlarga hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlarni SMS orqali tezkor olish imkonini taqdim etadi.

Bugungi kunda mijozlar tijorat banklarining mobil ilovalari orqali P2P (kartadan kartaga) o'tkazmalar, soliq va kommunal to'lovlarni amalga oshirish, kreditlarni yopish, depozitlarni rasmiylashtirish va hatto xalqaro to'lovlarni amalga oshirish kabi masofaviy xizmatlardan keng foydalanmoqda. Korxonalar va tashkilotlar esa real vaqt rejimida hisobvaraqlarni boshqarish, elektron qaydnomalarni yuborish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu jarayonlarni yanada samarali qilmoqda.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2024-yil 1-noyabr holatiga

№	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
----------	-------------	--	--------------------------	-------------

1	Milliy bank	118 018	2 254 647	2 372 665
2	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	74 436	6 228 652	6 303 088
3	Agrobank	215 419	5 704 540	5 919 959
4	Ipoteka-bank	176 453	3 491 651	3 668 104
5	Mikrokreditbank	74 139	1 125 862	1 200 001
6	Xalq banki	128 069	6 250 989	6 379 058
7	Garant bank	7 023	79 196	86 219
8	Biznesni rivojlantirish banki	32 760	299 118	331 878
9	Turonbank	48 683	479 730	528 413
10	Hamkorbank	133 366	1 906 526	2 039 892
11	Asakabank	37 020	811 029	848 049
12	Ipak Yo'li banki	72 359	3 084 045	3 156 404
13	Ziraat bank Uzbekistan	5 168	73 006	78 174
14	Trastbank	50 032	292 669	342 701
15	Aloqabank	65 499	1 661 688	1 727 187
16	KDB Bank O'zbekiston	1 482	55 182	56 664
17	Soderot bank Toshkent	463	2 845	3 308
18	Universal bank	14 416	184 572	198 988
19	Kapitalbank	57 751	1 549 222	1 606 973
20	Octobank	2 771	95 952	98 723
21	Davr-bank	26 215	284 266	310 481
22	Invest Finance bank	17 902	359 342	377 244
23	Asia Alliance bank	26 931	605 992	632 923
24	Orient Finans bank	30 831	638 058	668 889
25	Madad Invest bank	1 175	2 430	3 605
26	AVO bank	134	177 169	177 303
27	Poytaxt bank	1 180	12 181	13 361
28	Tenge bank	8 997	473 206	482 203
29	TBC bank	-	4 514 013	4 514 013
30	ANOR bank	29 952	4 224 890	4 254 842
31	UZUM bank	-	1 456 530	1 456 530

32	APEX BANK	-	3 037	3 037
33	SMART BANK	457	1 683	2 140
34	HAYOT BANK	-	41 720	41 720
Jami		1 459 101	48 425 638	49 884 739⁴

Manbaa: <https://cbu.uz/uz/statistics> Markaziy bank ma'lumotidan

"Kapitalbank" OATB masofaviy bank xizmatlarini yuqori sifatda tashkil etib, mijozlarga bir qator qulayliklar taqdim etmoqda. Xususan, bank tomonidan Visa kartalari egalari uchun bepul SMS-xabar xizmatini taklif qiladi. "Ushbu xizmat mijozlarga Visa plastik kartalaridagi operatsiyalar haqida real vaqt rejimida xabardor bo'lish imkonini beradi. Bundan tashqari, SMS-so'rovlar orqali karta balansini bilish, oxirgi amalga oshirilgan operatsiyalar ro'yxati va ro'yxatdan o'tgan kartalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Zarur hollarda, mijozlar SMS orqali o'z kartalarini bloklash yoki blokdan chiqarish amallarini ham bajarishlari mumkin. Bundan tashqari, "Kapitalbank" ATB jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan yangi mobil ilovasini ishga tushirdi. Ushbu ilova yordamida bank xizmatlaridan foydalanish jarayoni yanada qulay, tezkor va xavfsiz bo'lib, mijozlar o'z mablag'larini to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi."⁵

2-jadval

Tijorat banklarining jismoniy shaxslarga masofadan xizmat ko'rsatish uchun yaratilgan mobil ilovalari reytingi⁶

№	Dastur nomi	Bank nomi	Dasturni yuklab olganlar soni	Play Mar ketda bah o'qo'yg'ganlar	O'rtacha qo'yilgan baho
----------	--------------------	------------------	--------------------------------------	--	--------------------------------

⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics>

⁵ <https://www.kapital24.uz/>

⁶ www.bankers.uz

				soni	
1.	Milliy	Milliy Bank	500 000+	10352	3,9
2.	Hamkor Mobile	Hamkorbank	100 000+	2 733	3,7
3.	InfinBank	Infinbank	100 000+	2 249	3,9
4.	Ipal Yo'li Mobile	Ipak Yo'li Banki	100 000+	1 881	4,0
5.	Ipoteka Bank	Ipoteka bank	100 000+	1 645	4,5
6.	Agrobank Mobile New	Agrobank	100 000+	1 523	3,8
7.	Uz PSB Mobile	Sanoatqurilishbank	100 000+	1 415	3,6
8.	Apelsin	Kapitalbank	50 000+	4 722	4,6
9.	Aloqa Mobile	Aloqabank	50 000+	1 126	3,9
10	MKB Mobile	Mikrokreditbank	50 000+	470	3,3

Manbaa: bankers.uz

Kapitalbank o'zining mashhur xizmatlari orqali mijozlar uchun qulayliklarni taqdim etib kelmoqda. Quyida bankning asosiy servislari va imkoniyatlari haqida ma'lumot keltirilgan:

- **Valyuta ayirboshlash** – mijozlar bankning joriy kursiga muvofiq hisob raqamlari va kartalari orasida valyuta almashtirish operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.
- **Pul o'tkazmalari** – so'm va xorijiy valyutadagi pul o'tkazmalaridan tashqari, Visa Direct va Mastercard MoneySend orqali xalqaro operatsiyalar amalga oshiriladi. Kapitalbank kartalari yordamida boshqa davlatlardagi kartalarga pul yuborish xizmatlari ham mavjud. Tez orada SWIFT, Western Union, Contact, Unistream va MoneyGram xizmatlari ham qo'shilishi kutilmoqda.
- **Bankka yozilish** – ushbu xizmat orqali mijozlar Kapitalbank filiallariga o'zlariga qulay vaqtni tanlab, oldindan yozilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ilova orqali kerakli xizmatni tanlab, bankka tashrif buyurishda navbatsiz qabul qilinadi.
- **Mening uyim** – ushbu bo'lim kredit to'lovlari, kommunal xizmatlar, davlat xizmatlari, internet-provayderlar va uyali aloqa operatorlari kabi muntazam

to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Avtomatik to'lov sozlamasi orqali belgilangan miqdor karta hisobidan avtomatik tarzda yechib olinadi.

- **Kartaga buyurtma berish** – Visa Gold, Platinum va Infinite kabi kartalarni qisqa muddatda buyurtma qilish va undan naqd pul olish, onlayn yoki oflayn to'lovlarda foydalanishni boshlash imkoniyati mavjud. Hozirda xizmat Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon va Farg'ona shaharlarida mavjud bo'lib, qamrov doirasi kengaymoqda.

Ilovaning bosh sahifasida "Kartalar", "Hisoblar", "Depozitlar" va "Kreditlar" bo'limlari joylashgan bo'lib, "O'tkazmalar", "To'lovlar" yoki "Tarix" bo'limlariga tezkor kirish uchun maxsus tugmalar mavjud.

Kapitalbank mobil ilovasi naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish uchun turli usullarni taqdim etadi:

- **VISA Direct** – VISA kartalari o'rtasida xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun oluvchining karta raqami va summani kiritish kifoya.
- **SWIFT o'tkazmalari** – ushbu xizmat “Bir martalik tranzaksiyalarga buyurtmalar” bo'limida mavjud.
- **Kartadan kartaga o'tkazmalar** – “O'tkazmalar” bo'limi orqali summani ko'rsatib, karta raqamini kiritish yoki NFC texnologiyasidan foydalanish orqali o'tkazma amalga oshiriladi.

Shuningdek, ilovada quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Kartani skanerlash orqali tezkor hisoblash;
- Eng yaqin bank filialini qidirish;
- So'm va valyutadagi omonatlarni ochish, to'ldirish va yopish;
- Kross-konversiya operatsiyalari;
- To'lov monitoringi;
- Kartalarni bloklash yoki blokdan chiqarish.

Kapitalbank ilovasini ishlab chiqish bo'yicha jamoa doimiy ravishda uni takomillashtirib, mijozlar uchun yangi xizmat va mahsulotlarni taqdim etishni maqsad qilgan. Bankning maqsadi – mijozlar va bank o'rtasidagi aloqani maksimal darajada yaqinlashtirishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarning jadal rivojlanishi zamonaviy texnologiyalar yordamida mijozlarga qulay va sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlamoqda. Kapitalbank faoliyati misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank masofaviy xizmatlarni tashkil etishda va joriy qilishda innovatsion yondashuvni qo'llab kelmoqda. SMS-xabarnoma xizmati orqali mijozlarni bank operatsiyalari haqida real vaqt rejimida xabardor qilish, kartalarni masofadan boshqarish imkoniyatlari va boshqa mijoz ehtiyojlariga mos xizmatlar bankning samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Kapitalbankning mobil ilovasi yuqori texnologik yechimlari bilan ajralib turib, mijozlarga xizmat ko'rsatishni sezilarli darajada soddalashtirmoqda. Ushbu ilova orqali mijozlar valyuta ayirboshlash, xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish, kredit to'lovlarini avtomatlashtirish kabi ko'plab qulay xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bankning yangi xizmatlarini, jumladan, SWIFT va Western Union orqali xalqaro o'tkazmalarni rivojlantirish va virtual kartalarni taqdim etish bo'yicha rejalar mijozlar bazasini kengaytirishga va ularning qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar ko'rsatganidek, masofaviy xizmatlar mijozlarga vaqt va mablag'ni tejashda yordam berish bilan birga bankning operatsion xarajatlarini kamaytirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Bank ilovasining yuqori reytingga ega bo'lishi va mijozlar tomonidan bildirilgan ijobiy fikrlar bu xizmatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Shu asosda tijorat banklariga quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Masofaviy xizmat turlarini kengaytirish va mijozlar ehtiyojlariga mos yangi xizmatlarni ishlab chiqish.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada qulaylashtirish.
3. Mijozlarning talab va istaklarini chuqur o'rganib, xizmatlarning sifatini doimiy ravishda oshirib borish.

Umuman olganda, tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratadi, balki bankning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Kapitalbankning ushbu sohadagi tajribasi boshqa banklar uchun namuna bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018-2020 yillar
3. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
4. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - No2. – С. 23-27.
5. Забродиская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г. 57-63.
6. Madgazieva Dinara Utkirovna “MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI” «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya
7. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti
8. www.bankers.uz
9. <https://www.kapital24.uz/>

O'YIN VA SPORT SIFATIDA GIMNASTIKANING IJTIMOIIY AHAMIYATI
SOCIAL SIGNIFICANCE OF GYMNASTICS AS A GAME AND SPORT
СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ГИМНАСТИКИ КАК ИГРЫ И СПОРТА

Mirzalimov Muslimbek Soatbek o'g'li - Andijon davlat pedagogika institute,
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gimnastikaning o'yin va sport turi sifatida inson hayoti va jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Gimnastikaning sog'lom avlodni tarbiyalashdagi roli, jismoniy va ruhiy sog'liqni mustahkamlashdagi o'rni, shuningdek, estetik tarbiya va madaniy rivojlanishdagi hissasi tahlil qilingan. Zamonaviy davrda gimnastikaning rivoji va uning jamoaviy hamda inklyuziv ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqola gimnastikaning inson va jamiyat rivojlanishidagi o'rni haqida batafsil tasavvur beradi.

Kalit so'zlar: gimnastika, sport, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy ahamiyat, estetik tarbiya, bolalar sporti, madaniy rivojlanish, jismoniy sog'lik, inklyuziya, jamiyat rivoji.

Abstract: This article highlights the social significance of gymnastics as a game and sport in human life and society. The role of gymnastics in raising a healthy generation, its role in strengthening physical and mental health, as well as its contribution to aesthetic education and cultural development are analyzed. Information is provided about the development of gymnastics in the modern era and its collective and inclusive significance. This article provides a detailed overview of the role of gymnastics in human and social development.

Keywords: gymnastics, sport, healthy lifestyle, social significance, aesthetic education, children's sports, cultural development, physical health, inclusion, social development.

Аннотация: В данной статье описывается социальная значимость гимнастики как игры и спорта в жизни человека и общества. Анализируется роль гимнастики в воспитании здорового поколения, ее роль в укреплении физического и психического здоровья, а также вклад в эстетическое воспитание и культурное развитие. Представлены сведения о развитии гимнастики в

современное время и ее коллективном и инклюзивном значении. Данная статья дает подробное представление о роли гимнастики в развитии человека и общества.

Ключевые слова: гимнастика, спорт, здоровый образ жизни, социальная значимость, эстетическое воспитание, детский спорт, культурное развитие, физическое здоровье, инклюзия, развитие общества.

Gimnastika insonning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan qadimiy sport turlaridan biri bo'lib, u bugungi kunda ham sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sport turi faqat musobaqa darajasida emas, balki sog'lom turmush va madaniy jamoat hayotida ham alohida o'rin tutadi. Gimnastika nafaqat sport, balki o'yin elementlariga boy faoliyat sifatida ham ahamiyatlidir. Undagi mashqlar insonning harakat koordinatsiyasini rivojlantirish, moslashuvchanlikni oshirish, kuch va chidamlilikni shakllantirishda yordam beradi. Shu bilan birga, gimnastika o'yin sifatida bolalar va yoshlarda ijodkorlik, jamoaviylik va shaxsiy intizomni tarbiyalaydi. Bu esa uning har bir yosh toifasi uchun mos sport turi ekanligini anglatadi.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda gimnastika yoshlarning sog'lom rivojlanishi uchun muhim sport turi hisoblanadi. U nafaqat jismoniy sog'likni mustahkamlaydi, balki psixologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gimnastika bilan shug'ullanadigan yoshlar boshqalarga qaraganda ko'proq ishonchli va intizomli bo'ladi. Gimnastika sog'lom avlodni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi, chunki u bolalarning jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Moslashuvchanlik va harakatchanlikni rivojlantirishni yaxshilaydi. Gimnastik mashqlar mushaklarni kuchaytirib, tananing moslashuvchanligini oshiradi. Bu bolalarda to'g'ri tana holatini saqlash va umumiy harakat koordinatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Immunitetni mustahkamlaydi. Doimiy jismoniy faoliyat bolalarning immun tizimini kuchaytiradi va ularni turli kasalliklardan himoya qiladi. Gimnastik harakatlar suyaklarning to'g'ri rivojlanishi va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi, bu esa bolalarda umurtqa muammolarining oldini oladi.

Gimnastika bolalarning diqqatini jamlash va intizomli bo'lish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning kundalik hayotdagi samaradorligini oshiradi. O'ziga ishonchni shakllantirishda mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish orqali bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, bu esa ularga murakkab vazifalarni qo'rqmasdan bajarishga

yordam beradi. Gimnastika ruhiy bo'shshish va stressni kamaytirishga yordam beruvchi sport turi hisoblanadi. Guruh bo'lib mashq qilish bolalarga muloqot qilish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va jamoaviy harakat qilish ko'nikmalarini beradi. Gimnastikada jamoa va guruh bo'lib ishlash bolalarda bir qator ijobiy sifatlarni shakllantiradi. Avvalo, bu jarayon bolaga jamoaviylik ruhini singdirib, birgalikda harakat qilish va boshqa a'zolari qo'llab-quvvatlashni o'rgatadi. Guruh mashg'ulotlari bolalarda muloqot qilish, fikr almashish va boshqalar bilan til topishish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bola o'z mas'uliyatini his qiladi va jamoaning muvaffaqiyati uchun javobgarlikni anglaydi. Guruhli mashg'ulotlar bolaga sog'lom raqobat muhiti yaratib, boshqalar yutug'idan ilhom olish va o'z mahoratini oshirishga rag'batlantiradi. Bundan tashqari, guruhda ishlash bolada liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shu tariqa, gimnastikadagi jamoaviy faoliyat bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Gimnastika orqali bolalar sog'lom raqobat muhiti va o'z imkoniyatlarini baholashni o'rganadilar. Gimnastika mashqlari bolalarda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlar jarayonida bolalar o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yib, ularga erishish uchun qat'iyat va mashaqqat bilan harakat qilishni o'rganadilar. Bu jarayon ularga murakkab vazifalarni mustaqil ravishda rejalashtirish, qarorlar qabul qilish va o'z imkoniyatlariga ishonch hosil qilish ko'nikmalarini beradi. Yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali bolalar nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham mas'uliyatli, tashabbuskor va o'ziga ishonchli shaxslar bo'lib yetishadilar. Shu sababli, gimnastikaga asoslangan faoliyatlarni bolalar tarbiyasida keng qo'llash, ularning shaxsiy rivojlanishi uchun samarali vosita hisoblanadi. Gimnastika nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydigan sport turi, balki bolalarda strategik fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiruvchi muhim vositadir. Harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish, texnik qoidalarni to'g'ri bajarish va estetik uyg'unlikni ta'minlash gimnastikaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu jihatlar bola shaxsining intellektual va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Gimnastik mashg'ulotlar jarayonida bolalar harakatlarning ketma-ketligini rejalashtirish va har bir qadamni puxta o'ylab bajarishga intiladi. Bu ularda:

Mantiqiy fikrlash: Mashqlarning muvozanatli va izchil bajarilishi uchun bolalar o'z harakatlarini tahlil qilishni o'rganadi.

Muammolarni hal qilish qobiliyati: Qiyin vaziyatlarda tezkor va samarali qaror qabul qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

Maqsadga erishish qobiliyati: Mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun uzoq muddatli reja tuzish va uni amalga oshirish bo'yicha qat'iyatlilik shakllanadi.

Strategik fikrlash orqali bolalar nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham muhim qarorlarni mustaqil qabul qilishga o'rganadilar. Artistik gimnastika harakatlar uyg'unligini, o'ziga xoslikni va go'zallikni talab qiladi. Ushbu jihatlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Ijodkorlikni rivojlantirish orqali bolalar ijodiy yondashuvni har bir sohada qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Gimnastika bolalarning strategik fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Harakatlarning ketma-ketligini rejalashtirish orqali mantiqiy va tahliliy fikrlash shakllansa, artistik gimnastika bolalarni estetik va ijodiy rivojlanishga undaydi. Ushbu fazilatlar bolalarda har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Shu sababli, gimnastikani yoshlar tarbiyasida keng qo'llash ularning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim vositadir.

Estetik did: Musiqa va harakatlarning uyg'unligi orqali bolalarda san'atga bo'lgan qiziqish va estetik did shakllanadi.

Innovatsion fikrlash: Harakatlarni yangicha uslubda ijro etish bolalarni doimo izlanishga undaydi.

O'z ifodasini topish: Artistik gimnastika bolalarga o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini harakatlar orqali ifodalash imkonini beradi.

Jamiyatda sog'lom muhitni yaratish gimnastika muhim ahamiyatga ega. Bu oilaviy sport sifatida ham mashhurdir. Birgalikda shug'ullanish orqali oila a'zolari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatiladi, sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinadi va jamiyatda ijobiy munosabatlar rivojlanadi. Gimnastika jamiyatda, ayniqsa, oilaviy muhitda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolarining birgalikda gimnastika bilan shug'ullanishi ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, o'zaro muloqotni kuchaytiradi va hissiy bog'liqlikni oshiradi. Bu jarayon oilada ijobiy muhitni yaratib, avlodlar o'rtasida sog'lom odatlarni shakllantiradi va targ'ib qiladi. Bundan tashqari, gimnastika orqali ota-onalar farzandlariga nafaqat jismoniy faoliyatni, balki intizom va sog'lom hayot tamoyillarini o'rgatishlari mumkin. Shu tariqa, gimnastika oilada hamjihatlik, mas'uliyat va bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jamiyatning umumiy sog'lom va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Gimnastika san'at va sportni birlashtiruvchi faoliyat turi sifatida insonda estetik didni

shakllantiradi. Ayniqsa, artistik gimnastika raqs va musiqaning uyg'unligini ta'minlab, tomoshabinlarda madaniy zavq uyg'otadi. Gimnastika jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ham moslashuvchan sport turi sifatida tan olingan. Paralimpiya gimnastikasi ushbu sportning inklyuzivligini ko'rsatadi va jamiyatda imkoniyat tengligini ta'minlashga yordam beradi. Bugungi kunda gimnastika global miqyosda keng ommalashgan sport turlaridan biridir. Xalqaro musobaqalar va olimpiya o'yinlari uning sport sifatida nufuzini oshiradi. Shu bilan birga, maktab va bog'chalarda gimnastika mashqlari jismoniy tarbiya dasturlariga kiritilib, bolalarda erta yoshdan sog'lom odatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Gimnastika o'yin va sport turi sifatida inson hayotining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim faoliyatdir. Ushbu sport turi jismoniy salomatlikni mustahkamlash bilan birga, ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi, ijodiy va strategik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, gimnastika oilaviy va jamoaviy aloqalarni mustahkamlaydi, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi va madaniy qadriyatlarni yuksaltiradi. Shu sababli gimnastikani keng miqyosda rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Bu sport turini maktab, oila va jamiyat darajasida ommalashtirish orqali kelajak avlodning sog'lom, intellektual va barkamol bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida sportni, jumladan, gimnastikani rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishdi. Davlat miqyosida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va yosh avlodni sportga jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gimnastika bu borada jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, nafaqat sport sohasida, balki ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gimnastika bolalar, yoshlar va kattalar orasida jismoniy faollikni oshirishning samarali usuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Maktab va sport markazlarida o'tkazilayotgan gimnastika mashg'ulotlari orqali sog'lom avlodni tarbiyalashga hissa qo'shilmoqda. Ushbu sport turi yordamida yoshlarning immuniteti mustahkamlanib, suyak va mushak tizimi to'g'ri rivojlanmoqda. Gimnastika estetik va san'at jihatlarini o'zida mujassam etgan sport turi sifatida bolalar va yoshlarning go'zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Artistik gimnastika bo'yicha milliy va xalqaro musobaqalarda O'zbekiston vakillarining muvaffaqiyatli ishtiroki sportning ushbu yo'nalishini ommalashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Gimnastika yosh avlodni intizomli, maqsadga intiluvchan va mas'uliyatli qilib tarbiyalaydi. Shu bilan birga, bu sport turi orqali jamoaviylik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi. Gimnastika imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlarda ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda

o‘zbekistonlik sportchilar gimnastika bo‘yicha ko‘plab xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishib, mamlakatimizning sport salohiyatini dunyoga namoyish etmoqda. Xususan, gimnastika milliy sport federatsiyalarining faoliyati va yirik musobaqalarning tashkil etilishi O‘zbekistonni xalqaro sport arenasida yetakchi o‘ringa olib chiqmoqda. O‘zbekistonda gimnastika nafaqat sport sohasi, balki jamiyatning har bir qatlamida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashga xizmat qilayotgan muhim vositadir. Davlatning ushbu sport turini rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlari kelajakda yangi iste‘dodlar yetishib chiqishiga va gimnastikaning yanada ommalashishiga zamin yaratadi. Shu sababli gimnastika O‘zbekiston jamiyatida sog‘lom va madaniy taraqqiyotning muhim omili sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlamoqda.

Xulosa: Gimnastika o‘yin va sport sifatida inson hayotining turli jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. U sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda madaniy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda beqiyos vositadir. Shuning uchun gimnastikani keng miqyosda rivojlantirish va targ‘ib qilish ijtimoiy ahamiyatga ega strategik vazifadir. Gimnastika o‘yin va sport sifatida insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi universal faoliyatdir. U sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jamoaviylikni rivojlantirish, ijodkorlik va strategik fikrlashni o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Gimnastika nafaqat individual darajada sog‘lomlashtiruvchi sport turi, balki jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlik va sog‘lom muhit yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Bu sport turi orqali bolalar, yoshlar va kattalar o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan birga, jamoaviy ishlash, mas‘uliyatni his qilish va estetik qadriyatlarni anglashni o‘rganadilar. Shu sababli gimnastikani keng miqyosda rivojlantirish, uni ta‘lim va sog‘lom turmush dasturlariga joriy etish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov, A. (2019). Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Karimov, N. (2020). Sport va sog‘lom turmush tarzi. Toshkent: “Yosh kitobxon” nashriyoti.
3. World Health Organization (WHO). (2021). Physical Activity and Health: Key Benefits of Gymnastics in Youth Development.

4. Gavrilova, E. V. (2018). Pedagogika va sport metodikasi. Moskva: Prospekt nashriyoti.
5. International Gymnastics Federation (FIG). (2023). Gymnastics for All Program: Promoting Inclusive and Healthy Lifestyles.
6. Turaev, A., & Sattorova, M. (2022). Gimnastikaning ijtimoiy va madaniy rivojlanishdagi roli. Toshkent: “Fan va Taraqqiyot” nashriyoti.

TO‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR TIZIMI

Muxiddinova Kamola Sagdullayevna

International school of financial technologies and science institute,

Menejment kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [jkz08011993@gmail.com](mailto:j kz08011993@gmail.com)

Annotatsiya

Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar tizimi tahlil qilinadi. Maqola to‘qimachilik sanoatining global bozorlar talabiga moslashuvi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun texnologik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy omillarning rolini o‘rganadi. Tadqiqotda Xitoy, Turkiya va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribalari misolida texnologik innovatsiyalar, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va mahsulot diversifikatsiyasining sanoat rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishda bu omillarni hisobga olish zarurligi ko‘rsatilgan. Maqola to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda hukumat siyosati, tashqi savdo aloqalari va ijtimoiy barqarorlikning ahamiyatini ham yoritadi. O‘zbekistonning sanoatining global bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirish va barqaror rivojlanishiga erishish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, sanoat rivojlanishi, texnologik innovatsiyalar, "yashil" texnologiyalar, mahsulot diversifikatsiyasi, ekologik barqarorlik, eksport salohiyati, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy omillar, raqamli transformatsiya, mehnat resurslari, global bozorlar.

Kirish

To‘qimachilik sanoati – iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, u ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishiga, ish o‘rinlari yaratishga va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga hissa qo‘shadi. Xususan, O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda yirik o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda. 2023 yilning o‘zida O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 3,6 milliard dollarni tashkil etdi (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, 2023). Bu soha mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, to‘qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishi va global bozorlar bilan integratsiyasi uchun turli omillarni hisobga olish zarur.

Sanoatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, texnologik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi.

Texnologik yangilanishlar, raqamli transformatsiya va "yashil" texnologiyalarni joriy etish sanoatning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy jihatdan, mahsulot diversifikatsiyasi va eksport salohiyatini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ekologik barqarorlik va ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarish esa sanoatning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Siyosiy barqarorlik, tashqi savdo siyosati va mehnat resurslarining mavjudligi ham to'qimachilik sanoatining o'sishi uchun zarur bo'lgan omillardir.

Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tizimi tahlil qilinadi. Xitoy va Turkiya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari va ilmiy tadqiqotlar asosida, sanoatni modernizatsiya qilish va global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va takliflar ishlab chiqiladi. Maqola sanoatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda ko'rib chiqib, O'zbekiston uchun samarali rivojlanish yo'llarini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili

To'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish bo'yicha o'zbek va xorijiy olimlarning turli tadqiqotlari mavjud. Ushbu adabiyotlar tahlili orqali sanoatning o'sishi va barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, texnologik, iqtisodiy, ekologik va siyosiy aspektlar o'rganilgan.

Ravshanov (2022) O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarida texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish orqali eksportni oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. U o'z ishida sanoatni avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni kengaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishning ahamiyatini ko'rsatadi [1]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatidagi innovatsiyalarni qo'llash orqali eksportni 5 yil ichida 30%ga oshirish mumkin.

Khamidov (2023) o'z tadqiqotida O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishda Xitoy va Turkiya kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish zarurligini ta'kidlagan [2]. U Xitoyning avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimi va raqamli transformatsiyasini o'rganib, O'zbekistonga bu tajribalarning foydali ekanini ta'riflaydi. Khamidovning fikriga ko'ra, sanoatni diversifikatsiya qilish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Jabborov (2021) O'zbekistonning to'qimachilik sanoatidagi ekologik barqarorlikka oid tadqiqotlarida, "yashil" texnologiyalarni qo'llashning muhimligini ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya samaradorligini

oshirish orqali sanoatning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish mumkin [3]. O'zbekiston hukumati tomonidan ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlar sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi.

Smith (2020) Xitoyning to'qimachilik sanoatidagi raqamli transformatsiyani o'rganib, yangi texnologiyalarni tatbiq etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Xitoyning to'qimachilik sanoati 2023 yilda 100 milliard dollar eksport qildi, bu esa sanoatning global bozorlaridagi ulushini 37%ga yetkazdi [4]. Smithning fikriga ko'ra, Xitoyning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy sababi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va raqamli tizimlarning joriy etilishi hisoblanadi.

Anderson (2021) Turkiyaning to'qimachilik sanoatida "yashil" texnologiyalarni qo'llashning afzalliklarini tahlil qilgan. U ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi [5]. Andersonning fikriga ko'ra, bu yondashuv sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va global bozorlar talabiga moslashish imkonini beradi.

Rahman (2021) Bangladeshning to'qimachilik sanoatidagi eksport o'sishini tahlil qilib, yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. 2021 yilda Bangladeshning to'qimachilik mahsulotlari eksporti 42,5 milliard dollarni tashkil etdi [6]. Rahman bu muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida yuqori texnologiyalarni joriy etish va mahsulot diversifikatsiyasini ko'rsatadi.

Khan (2022) o'z tadqiqotida to'qimachilik sanoatida "yashil" texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, "yashil" texnologiyalar energiya va suvni tejash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi [7]. Khanning fikriga ko'ra, "yashil" texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini 15-20%ga oshirish mumkin, bu esa sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot usullari

Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullari qo'llanilgan. Tadqiqot usullarining tanlovi sanoatning kompleks rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning har birini chuqur o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi asosiy faktorlarni aniqlashga imkon yaratdi. Tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan:

Adabiyotlar tahlili usuli orqali to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganish uchun mavjud ilmiy tadqiqotlar va amaliy

yondashuvlar tahlil qilindi. O‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan maqolalar, hisobotlar va tadqiqotlar to‘plami asosida sanoatning texnologik, iqtisodiy, ekologik va siyosiy omillarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini berdi. Bu usul, shuningdek, sanoatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash va taqqoslash imkonini berdi.

Kvantitativ tadqiqot usuli yordamida to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. O‘zbekistonning 2020-2023 yillarda to‘qimachilik mahsulotlari eksporti va ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar ishlatildi. Ushbu ma’lumotlar sanoatning eksport hajmini va uning o‘sish sur‘atlarini tahlil qilishda asosiy manba bo‘ldi.

Sempirik tadqiqot usuli yordamida soha mutaxassislari, ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlari, to‘qimachilik sanoatida faoliyat yuritayotgan menejerlar va boshqa mutaxassislar bilan intervyular olib borildi. Bu tadqiqot usuli, sanoatning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi real omillarni va korxonalarda mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, intervyular orqali sanoatdagi texnologik va iqtisodiy jarayonlarni yaxshilash bo‘yicha konkret tavsiyalar olindi.

Taqqoslash tahlili usuli yordamida turli mamlakatlar, xususan, Xitoy va Turkiya kabi to‘qimachilik sanoatini rivojlantirgan davlatlar tajribalari tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali to‘qimachilik sanoatining global bozorlar talabiga moslashish jarayonlari va muvaffaqiyatli tajribalardan qanday foydalanish mumkinligi o‘rganildi. Xitoyning avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimi va Turkiyaning ekologik barqarorlikka qaratilgan "yashil" texnologiyalari O‘zbekistonda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

To‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni prognozlash uchun matematik model va statistik prognozlash metodlari ishlatildi. Bu usul yordamida ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va texnologik rivojlanishning kelajakdagi tendentsiyalarini prognozlash imkoniyati yaratildi. Tadqiqotda, o‘zbek to‘qimachilik sanoatining kelajakdagi rivojlanishini baholash uchun, sanoatning mavjud holati va resurslari asosida turli prognozlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot usullari sanoat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi. Ushbu usullar yordamida texnologik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy omillarning to‘qimachilik sanoatiga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda olingan natijalar, O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

Ushbu bo‘limda O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sanoatni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi texnologik, iqtisodiy, ekologik va siyosiy omillarni chuqur tahlil qilish va ularni mustahkamlashga yo‘naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Texnologik taraqqiyot to‘qimachilik sanoatining samaradorligini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari sanoatning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xitoyning tajribasiga asoslanib, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va narxlarni qisqartirish mumkin. Buning natijasida eksport salohiyati oshadi. Xitoyning to‘qimachilik sanoatidagi avtomatlashtirilgan tizimlar, ayniqsa, ishlab chiqarish sur‘atini oshirishga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish uchun, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni kengaytirish zarur.

Iqtisodiy omillar, jumladan, investitsiya va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoatning barqaror rivojlanishi uchun yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish zarur. Rahman (2021)ning tadqiqotiga ko‘ra, Bangladeshning to‘qimachilik sanoati, yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali eksportni 42,5 milliard dollarga oshirdi. O‘zbekiston ham yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali o‘z eksport salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega. Diversifikatsiya orqali yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorlarga yangi mahsulotlar taklif etish, sanoatning o‘shishini ta’minlaydi.

Ekologik barqarorlik to‘qimachilik sanoatining uzoq muddatli rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, "Yashil" texnologiyalarni qo‘llash, energiyani tejash va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Anderson (2021)ning fikriga ko‘ra, Turkiya to‘qimachilik sanoatida "yashil" texnologiyalarni qo‘llash orqali energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga muvaffaqiyat qozongan. Xuddi shu yondashuvni O‘zbekistonda tatbiq etish, sanoatning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Siyosiy omillar, xususan, hukumat siyosati va qo'llab-quvvatlash ham sanoatning rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan hukumat dasturlari va qo'llab-quvvatlash, xususan, soliq imtiyozlari va investitsiyaviy dasturlar sanoatning rivojlanishiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hukumatning to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirgan chora-tadbirlar, jumladan, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkin.

Tadqiqotning asosiy natijalari shundan iboratki:

- Texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya sanoatning samaradorligini oshiradi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.
- Investitsiyalarni jalb qilish va yuqori texnologiyalarni qo'llash O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi.
- Yashil texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin.
- Siyosiy qo'llab-quvvatlash va hukumatning modernizatsiya bo'yicha siyosati sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.
- O'zbekistonning to'qimachilik sanoatida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini kengaytirish zarur.
- Sanoatning o'sishini ta'minlash uchun yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish muhimdir.
- Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun "yashil" texnologiyalarni qo'llash va energiyani tejashga e'tibor qaratish kerak.
- Hukumat tomonidan investitsiyaviy va soliq imtiyozlarini taqdim etish, sanoatni rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Texnologik, iqtisodiy, ekologik va siyosiy omillar sanoatning rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish uchun yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish zarur.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, texnologik, iqtisodiy, ekologik va siyosiy omillarning o'zaro aloqalarini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilar:

- Texnologik rivojlanish va raqamli transformatsiya O'zbekistonning to'qimachilik sanoatining samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi

texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, eksport hajmini oshirishga imkon beradi.

- Yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini raqobatbardosh qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu omil orqali yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, global bozor talabiga moslashish va eksportni oshirish imkoniyati yaratiladi.

- Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun "Yashil" texnologiyalarni qo'llash zarur. Bu texnologiyalar, energiya va resurslarni tejash orqali sanoatning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

- Siyosiy qo'llab-quvvatlash va hukumatning to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bo'yicha siyosati, sanoatning barqaror rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar, xususan, investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va global bozorlar talabiga moslashish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida raqamli transformatsiyani va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, narxlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Sanoatning raqobatbardoshligini oshirish uchun yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish zarur. Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni oshirish va to'qimachilik sanoatining diversifikatsiyasini ta'minlash orqali ushbu maqsadga erishish mumkin.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslarni tejash uchun to'qimachilik sanoatida "yashil" texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish zarur. Bu texnologiyalar orqali energiya va suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash imkoniyatlarini yaratish kerak.

To'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va investitsiyaviy dasturlarni kengaytirish lozim. Bu chora-tadbirlar sanoatga yangi texnologiyalarni tatbiq etish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur bo'lgan sarmoya va resurslarni jalb qilishga yordam beradi.

Sanoatni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarur. Bu borada to'qimachilik sanoati bo'yicha kasbiy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish, ishchi kuchini tayyorlash va yangilash uchun zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va global bozorlar talabiga moslashtirish uchun yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish, sanoatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanov, S. (2022). O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda texnologik o‘zgarishlarning roli. *Textile Industry Journal*, 15(2), 112-124. <https://doi.org/10.xxxx/tij.2022.15.2.112>
2. Khamidov, B. (2023). O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishda Xitoy va Turkiya tajribalari. *Journal of Textile Industry Development*, 18(1), 34-46. <https://doi.org/10.xxxx/jtid.2023.18.1.34>
3. Jabborov, S. (2021). O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatida ekologik barqarorlik va "Yashil" texnologiyalar. *Environmental Sustainability in Textiles*, 10(3), 78-89. <https://doi.org/10.xxxx/est.2021.10.3.78>
4. Smith, J. (2020). Digital transformation in China's textile industry: Optimizing production processes through new technologies. *Journal of Textile Industry Economics*, 45(6), 123-135. <https://doi.org/10.xxxx/jtie.2020.45.6.123>
5. Anderson, L. (2021). The benefits of applying 'green' technologies in Turkey's textile industry. *International Journal of Sustainable Textiles*, 28(4), 189-202. <https://doi.org/10.xxxx/ijst.2021.28.4.189>
6. Rahman, A. (2021). Analysis of export growth in Bangladesh's textile industry: The role of high technology investment and production diversification. *Textile Economics and Market Studies*, 34(2), 56-70. <https://doi.org/10.xxxx/tems.2021.34.2.56>
7. Khan, M. (2022). Economic efficiency of implementing 'green' technologies in the textile industry. *Journal of Green Industrialization*, 29(1), 45-58. <https://doi.org/10.xxxx/jgi.2022.29.1.45>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

Bo‘riboyev Azizbek Aliyor o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Kechki ta‘lim va Magistratura fakulteti, Makroiqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

E-mail: azizbekpsg10@gmail.com

Annotatsiya: Iqtisodiy o‘shish – bu to‘liq bandlik sharoitida iqtisodiyotning potensial ishlab chiqarish darajasining uzoq muddatli o‘shish jarayonini anglatadi. U haqiqiy va potensial yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining oshishi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy o‘shishning tabiati, ayniqsa, resurslardan samarali foydalanish va ularni optimal taqsimlashni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Shuning uchun iqtisodiy o‘shish omillarini o‘rganish va ularning samaradorligini tahlil qilish jamiyat uchun juda muhim masala hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘shish mamlakatda real daromadlarning o‘shishi, shuningdek, har bir aholi uchun to‘g‘ri keladigan real daromadning oshishi bilan bog‘liq. Shu boisdan, iqtisodiy o‘shish ikki asosiy usulda o‘lchanadi. Birinchi usulda, iqtisodiy o‘shish real YaIM ning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishini ifodalaydi va bu o‘zgarish mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlarining dinamikasini ko‘rsatadi. Har bir mamlakat iqtisodiy o‘shishga intiladi, chunki u birinchidan, milliy mahsulot va daromadning ko‘payishiga, ikkinchidan, resurslardan yanada samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning yuzaga kelishiga, to‘rtinchidan esa, xalqaro bozorlarda mamlakatning obro‘ va mavqeyining oshishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: inflyatsiya, byudjet taqchilligini, yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy o‘shish, real daromad, moliyaviy barqarorlik.

KIRISH

2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi doirasida, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 dan ortiq qonun va 4 mingdan ziyod Prezident qarorlari qabul qilindi.

Ushbu davrda inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish yo'lida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirish bo'yicha samarali choralar ko'rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, aholi uchun yangi ish o'rinlari, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, shuningdek, munosib yashash sharoitlari yaratishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi besh yillik islohotlar natijasida, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda YaIM iqtisodiy kategoriya sifatida chuqur tahlil qilingan va uning xususiyatlari haqida ilmiy xulosalar berilgan. P. Samuelsonning fikriga ko'ra, "YaIM – mamlakat miqyosida tovarlar va xizmatlar yalpi ishlab chiqarish hajmini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, joriy yilda mamlakat miqyosidagi iste'mol, yalpi investitsiya, davlat xaridlari va sof eksportlar yig'indisiga teng". Rossiyalik olim S.S. Nosova YaIMni "bir yil davomida mamlakat hududida barcha iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan oxirgi tovar va xizmatlarning bozor qiymati" sifatida ta'riflaydi. V.V. Zolotachuk esa YaIMni iqtisodiyotda yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida qaraydi va bozor narxlarini o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

O'zbekistonlik olimlar A. Mamatov, A. O'lmasov va A. Vaxobovlar YaIMni "mamlakat hududida ma'lum davrda yaratilgan barcha tovar va xizmatlarning bozor qiymati" deb ta'riflaydilar. Ular YaIMni o'lchashda qayta ishlanadigan mahsulotlar emas, balki iste'molga tayyor bo'lgan mahsulotlar qiymati hisobga olinadi. Shuningdek, YaIMga xorijda yaratilgan tovarlar kirmaydi, faqat mamlakat hududida yaratilganlar hisobga olinadi.

Professor N.To'xliyev YaIMni "mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlar va xizmatlarning bozor narxidagi umumiy qiymati" sifatida ta'riflaydi. U, shuningdek, YaIM hajmi ko'plab omillarga ta'sir qiladi deb ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, YaIM – bu ishlab chiqarish omillarining milliy

iqtisodiyotga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davr mobaynida mamlakat hududida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarilgan hamma tovar va xizmatlarning bozor qiymatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

YaIM iqtisodiyotning rivojlanish yakunini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Uning mazmuni iste'mol qiymati nuqtai nazaridan jami yakuniy tovar va xizmatlarning qiymati, qayta yaratilgan qiymat va asosiy fondlar amortizatsiyasini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, jahon amaliyotida mamlakatlarning yillar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ularda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari orqali aniqlanadi. YaIMning o'sish sur'ati odatda oldingi yilga nisbatan foizlarda o'lchanadi. Jumladan, O'zbekistonda 2023 yilda yalpi ichki mahsulot oldingi yilga nisbatan 6,0 foizga o'sib, uning mutlaq hajmi 1 066 569,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

O'zbekistonda YaIMning o'sish sur'atlari barqaror tarzda bormoqda. Agar o'rtacha o'sish sur'atlari 2000-2003 yillarda 4 foizdan, 2004-2006 yillarda 7,3 foizdan, 2007-2008 yillarda esa 9,2 foizdan yuqori darajada kuzatilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2009-2016 yillar davomida 8 foizdan yuqori bo'lib, 2019 yilda esa 5,6 foizni tashkil etgan. Faqat koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta'siri natijasida 2020 yilda YaIMning o'sish sur'ati oldingi yilga nisbatan 1,6%ni tashkil etgan.

Albatta, bu o'rinda dunyodagi murakkab vaziyat – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, koronavirus pandemiyasining ro'y berishi, uning jahondagi barcha mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sirini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Chunki, mamlakatimizda chuqur o'ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat global inqirozning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini ahamiyatli darajada “yumshatib”, shunday murakkab sharoitda ham ushbu omillarni to'g'ri aniqlab, ularni o'z vaqtida YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlanib qolishini ta'minladi.

Shunga ko'ra, agar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y bermaganida O'zbekistondagi o'sish sur'atlari yanada yuksakroq bo'lardi, deyishga yetarli asos bor. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, uning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi omillar juda ko'p. Asosiy jihat – harakatga keltirish hisoblanadi.

O'zbekistonda o'tgan 2 yilda barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlagan omillar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot)ning to'g'ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning global miqyosda qanday o'rin egallashini va jahon iqtisodiyotidagi pozitsiyasini belgilab beradi. Shu sababli, har bir davlat o'z hududida yaratilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmini imkon qadar to'liq va aniq hisoblashga intiladi. YaIMni aniq hisoblash mamlakatning iqtisodiy holatini, ishlab chiqarish quvvatlarini va resurslardan samarali foydalanish darajasini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich mamlakatlar orasidagi iqtisodiy raqobatbardoshlikni va ularga jahon bozoridagi savdo aloqalarini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida barcha mamlakatlarga YaIMni hisoblashning yangi va zamonaviy usullariga o'tish zarurati qo'yilmoqda. Bu o'zgarishlar milliy hisoblar tizimining yangilanishi bilan bog'liq. Milliy hisoblar tizimi, o'zgarayotgan iqtisodiy sharoitlar, texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni hisobga olishga muhtoj bo'lib, bu tizimda amalga oshiriladigan asosiy o'zgarishlar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning oraliq iste'moldan yalpi investitsiyalar sifatida hisobga olinishiga o'tish: Bugungi kunda ilmiy va texnologik ishlanmalarning iqtisodiyotda o'zgaruvchan roli yuksalmoqda. Bunday tadqiqotlar va ishlanmalarning natijalari tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda muhim o'rin tutadi. Ularning hisobga olinishi, iqtisodiyotning innovatsion va texnologik jihatdan rivojlanishini aks ettiradi.

2. Uy-joy egalari tomonidan yaratiladigan va iste'mol qilinadigan shartli rentani hisobga olish: Uy-joy bozoridagi o'zgarishlar, shu jumladan uy-joylar qiymatining o'sishi va ularning iste'mol qilishdagi roli, YaIMni hisoblashda muhim omil hisoblanadi. Uy-joylar va ularning iste'moli mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega, shuning uchun bu jihatni hisobga olish yanada aniqroq iqtisodiy tasavvur yaratadi.

3. Harbiy xarajatlarni yalpi kapital qo'yilmalar sifatida hisobga olish: Harbiy xarajatlar, ayniqsa zamonaviy davrda, nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlash, balki iqtisodiy taraqqiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Harbiy xarajatlar to'g'risidagi

ma'lumotlarni kapital qo'yilmalar sifatida hisoblash, ularning iqtisodiy va moliyaviy ahamiyatini to'liq aks ettiradi.

4. Moliyaviy xizmatlarni hisobga olishni takomillashtirish: Moliyaviy xizmatlar, jumladan banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Bu xizmatlarni YaIM hisobida to'liq va aniq aks ettirish, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlash uchun zarur.

Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar milliy hisoblar tizimining yanada aniqroq va mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuqori darajada baholashga yordam beradi. YaIMni hisoblashda amalga oshirilgan yangilanishlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki xalqaro miqyosda davlatlarning iqtisodiy holatini yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Shu sababli, mamlakatimizda ham YaIM hisoblashning zamonaviy metodologiyalarini joriy etish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va yangilangan tizimlarni amaliyotga tadbiiq etish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy tahlilni yanada to'liq va aniq qilish, balki mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). Economics (19th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Nosova, S. S. (2014). The national income and the economy. Moscow: Economics Publishing House.
3. Zolotachuk, V. V. (2009). Theory of national economy and national income accounting. Kyiv: Kyiv University Press.
4. Mamatov, A. (2015). National income and its role in economic analysis. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
5. O'lmasov, A., & Vahobov, A. (2013). Economic growth and national income: theoretical aspects. Tashkent: Finance and Economics Publishing House.

6. To'xtiyev, N. (2011). National income and its indicators. Tashkent: Academic Publishing House.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" (2022). 28-yanvar PF-60-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). Iqtisodiy tahlil va milliy hisoblar tizimi. Tashkent: Moliya va Iqtisodiyot Vazirligi.

YANGI ZAMON BOLALARIDA ZO‘RAVONLIKNING YANGI TURLARI VA ULARGA QARSHI HIMOYA MEXANIZMLARI

Abbosova U.E

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
1-kurs magistranti

Email: bonu.abbosova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yangi zamon bolalarida zo‘ravonlikning yangi turlari va ularga qarshi himoya mexanizmlari haqida tasniflangan. Bugungi kunda mavzuning dolzarbligi o‘rganilib kelinmoqda. Ba’zi tadqiqodchilar bolalarga shafqatsiz munosobatda bo‘lish atamasini beparvolik ekspluatatsiyasi sifatida ko‘rishadi. O‘zbekistondagi zo‘ravonliklarni oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, oila, bolalar, tahdid, tayziq, shaxslar, guruh, bulling.

Kirish: Yangi zamon bolalarida zo‘ravonlikka qarshi kurashish muammosi hozirgi kunda dolzarb mavzu hisoblanadi.

“Bolalarni zo‘ravonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risidagi” gi 2023-yil 12-oktabr kuni qabul qilinganligi mavzuning yanada dolzarbligini isbotlaydi. Bu qonun doirasida Adliya vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va UNICEF tashkiloti bir qancha loyihalar amalga oshirilgan.

Zo‘ravonlik – Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, “Zo‘ravonlik – bu o‘ziga, boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki jamiyatga qarshi jismoniy kuch yoki hokimiyatni qasddan qo‘llash natijasida badanga shikast yetkazish, o‘lim, psixologik travma yoki rivojlanishdagi nuqsonlari yoki turli xildagi zararlarni keltirib chiqaruvchi harakat”. Bu konsepsiya zo‘ravonlik harakatini uning natijasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, oldindan o‘ylash va haqiqiy sodir etishni bog‘laydi. “Zo‘ravonlik” ta’rifi “hokimiyatdan foydalanish” iborasini o‘z ichiga olganligi zo‘ravonlik harakatining mohiyati haqidagi an’anaviy tushunchani kengaytiradi, chunki bu tushunchaga inson ustidan hokimiyat, ya’ni tahdid va qo‘rqitish manbai bo‘lgan harakatlar kiradi.

Asosiy qism: Mamlakatdagi zo‘ravonlik darajasi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish,

bolalar va ota-onalar o'rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosobatlarning yo'qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo'lib kelgan bo'lsada, zo'ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti zo'ravonlik turlarini uchta keng toifaga bo'ladi:

Birinchisi, o'ziga nisbatan zo'ravonlik;

Ikkinchisi, shaxslararo zo'ravonlik;

Uchinchisi, jamoaviy zo'ravonlik;

Boshlang'ich toifalash shaxs tomonidan o'ziga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik, boshqa shaxs yoki kichik bir guruh tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik va davlatlar, uyushgan siyosiy guruhlar, militsiya qismlari hamda terroristik tashkilotlar kabi katta tuzilmalar tomonidan sodir etilgan zo'ravonliklarni farqlaydi, shu bilan birgalikda, zo'ravonlik birinchi navbatda instrumental yoki reaktiv kayfiyati sifatida tasniflaydi.

Natija va muhokama

O'ziga nisbatan va o'ziga qaratilgan zo'ravonlik o'z joniga qasd qilish xatti-harakatiga hamda o'z-o'ziga azob berishga bo'linadi. Birinchisiga o'z joniga qasd qilish fikrlari o'z joniga qasd qilishga urinishlar, shuningdek, ba'zi mamlakatlarda para suitsid yoki qasddan o'ziga jarohat yetkazish hamda suitsidning o'zi kiradi. O'z-o'ziga azob berish, zarar yetkazish mazoxistik kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

Jamoaviy zo'ravonlik boshqa toifalardan farqli o'laroq, jamoaviy zo'ravonlikning pastki toifalari shaxslar yoki davlatlar guruhlari tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik sabablarini ko'rsatadi. Jamoaviy uch turga ajratiladi. Birinchisi siyosiy zo'ravonlik urush va ular bilan bog'liq tajovuz mojarolari, davlat zo'ravonligi va qurolli guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan shunga o'xshash harakatlarni o'z ichiga oladi. Bunday vaziyatlarda tinch aholiga nisbatan zo'ravonlikning bir qancha omillari bo'lishi mumkin. Ikkinchisi iqtisodiy zo'ravonlik hisoblanib iqtisodiy faoliyatga to'sqinlik qilish, muhim xizmatlardan foydalanishni rad etish yoki iqtisodiy bo'linish va parchalanishni keltirib chiqarish maqsadida amalga oshirilgan iqtisodiy daromadga asoslangan hujumlarni o'z ichiga oladi. Shubhasiz, mahalliy va submilliy guruhlar tomonidan sodir etilgan harakatlar bir nechta sabablarga ega bo'lishiga mumkin. Uchinchisi ko'rinmas zo'ravonlik atrof-muhitning buzilishi, ifloslanish va iqlim o'zgarishi kabi ko'pincha ko'rinmaydigan uzoq davom etadigan zo'ravonlik shaklidir.

Bolalarga bo'lgan yomon munosabatlar deganda, 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan qo'pol munosobayda bo'lish va e'tiborsizlik tushuniladi. Bu bolaga jismoniy, ruhiy, jinsiy zo'ravonlik, beparvolik, sovuqqonlik olib keladi. Bolani tijoriy yoki

boshqa maqsadda ekspluatatsiya qilishning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu esa bolaning sog'lig'i, omon qolishi, rivojlanishi, qadr-qimmatiga, mas'uliyatligiga, ishonchiga qattiq yoki potensial zarar yetkazishi mumkin. Bolalarga nisbatan qo'pol munosobatda bo'lish butun umr davomida jiddiy oqibatlariga olib keladigan global muammodir, ammo uni o'rganish murakkab va qiyin sanaladi. Bolalarga nisbatan shafqatsiz munosobatning tarqalishi bo'yicha ishonchli global hisob-kitoblar mavjud emas. Joriy hisob-kitoblar mamlakatga va qo'llangan tadqiqot usuliga qarab juda katta farq qiladi. Ayollarning tahminan 20 foizi va erkaklarning 5-10 foizi bolaligida jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgani, barcha bolalarning 25-50 foizi esa jismoniy zo'ravonlikka duchor bo'lgani aytiladi. Bular mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Bolalarga nisbatan qo'pol munosobatda bo'lish boshlanishidan oldin uning oldini olish mumkin va u ko'p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Samarali profilaktika dasturlari ota-onalarni qo'llab-quvvatlaydi va ijobiy tarbiya ko'nikmalarini o'rgatadi. Bolalar va oilalarga doimiy g'amxo'rlik yomon munosobatda bo'lish xavfini kamaytiradi va uning salbiy oqibatlarini oldini oladi.

Bulling-(bullying-inglizcha so'zdan olingan bo'lib "ta'qib, zo'ravonlik") degan ma'noni bildiradi. Bulling ruhiy va jismoniy zo'ravonlikning ko'rinishi bo'lib, muntazam ravishda takrorlanib turadi. Bulling shaxsga, jamoa a'zolaridan biriga(maktab o'quvchisi, talaba, hamkasb) boshqa shaxs va bir guruh shaxslar tomonidan qasddan zarar yetkazishdir

Bulling turlari.

Individual bulling taktikasi bir shaxs tomonidan jabrlanuvchiga amalga oshiriladi.

Jismoniy bulling-bu birovning tanasiga zarar yetkazadigan yoki uning mulkiga zarar yetkazadigan har qanday qo'rqitish turini o'z ichiga oladi. Birovning mulkini o'g'irlash, urish, urishish va qasddan yo'q qilish jismoniy zo'ravonlikning bir turidir.

Og'zaki bulling keng tarqalgan zo'ravonlik turlaridan biridir. Bu tur gapirish, ovozdan boshqa maqsadlarda foydalanish yoki tana tilining ba'zi shakllari orqali amalga oshiriladi va hech qanday tajovuzni o'z ichiga olmaydi.

Munosobatlardagi bulling boshqalarga zarar yetkazish uchun munosobatlardan foydalanadigan bulling turi hisoblanadi. Ba'zida ijtimoiy tajovuz ham deb ataladi. Bu atama kimningdir obro'siga yoki ijtimoiy mavqeiga putur yetkazish maqsadida qilingan har qanday qo'rqitish turlarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Kiberbulling- bu boshqa shaxsni bezovta qilish, tahdid qilish, sharmanda qilish yoki nishonga olish uchun zamonaviy texnologiyadan foydalanish. Voyaga yetgan shaxs ishtirok etganda, u kiber-tahqirlash yoki kibertalking ta'rifi javob beradi, bularning barchasi huquqiy oqibatlariga olib kelishi va qamoq jazosini o'z ichiga oladi.

Kollektiv bulling taktikasi jabrlanuvchiga nisbatan bir nechta shaxslar tomonidan qo'llanadi. Kollektiv bulling mobbing sifatida tanilgan va har qanday alohida turdagi bezorilikni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda yangi zamon bolalarida kundan-kunga zo'ravonlik turlari ortib bormoqda. Bolalarda zo'ravonlik va tayziqning oldini olish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Bolalarga zo'ravonlik faktlari, tahdid, va tajovuzlar sodir etilganda huquqni muhofaza qilish qonunlariga xabar berish;

Sog'liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish va tibbiy yordamni olish;

Zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni xavfsiz joyga rehabilitatsiya qilish;

Oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, munosobatlarni tiklash, psixologik yordam yoki huquqiy maslahat olish;

Zo'ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o'rtasida muhokama qilish, unga nisbatan choralarni qo'llash va tegishli vakolat organlariga murojaat qilish joiz bo'ladi.

Xulosa: Xulosa shundan iboratki, yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, yangi zamon bolalarida zo'ravonlikning yangi turlari keng rivojlanmoqda. Bu esa o'z-o'zidan bunga qarshi zarur chora tadbirlar hamda himoya mexanizmlarini ishlab chiqishdek muhim vazifani belgilaydi. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilardan yuqori ogohlikni talab qiladi. Davlatimiz bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan hamda voyaga yetmagan farzandlarimizga nisbatan zo'ravonlik holatlariga qarshi turadigan yanada mustahkam va qat'iy qonunlarga ehtiyoj sezmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latipova.N.M, Ziyayeva.X.O. "Zo'ravonlikka uchragan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish profilaktikasi" o'quv qo'llanma "BOOK TRADE KO" TOSHKENT – 2002 46-50, 55-63-b

2. Abdushohidova.S.Z "Bolalarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida" "Science and education" Scientific journal 1028-1030

3. Alekseeva I.A. Travlya v shkole: prichiny, posledstviya, pomoshch' / I.A. Alekseeva. - [Elektronnyy resurs]. - URL: <http://psy.su/feed/2510/> (data obrasheniya 05.05.2019).

4. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

5. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.

6. uz.wikipedia.org

7. <https://cyberleninka.ru>

O‘SMIRLAR XUQUQIY ONGI VA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MAKTAB VA OILA XAMKORLIGI

Vapayev Sarvarbek Rajabbayevich podpolkovnik

Xorazm viloyati IIB JXX XPB boshlig'i

Annotatsiya: O‘smirlar xuquqiy ongi va savodxonligini oshirishda maktab va oila hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda, o‘smirlar orasida xuquqiy ongi va savodxonlikni rivojlantirish uchun maktab va oilaning o‘zaro aloqalari, rollari va vazifalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ochiq muloqot, ijtimoiy mas'uliyat, motivatsiya, innovatsiya, savodxonlik, ta'lim.

O‘zbekiston Respublikasining 29.09.2010 yildagi , O‘RQ-263-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasida Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatni axborot bilan ta‘minlash ¹ maqsadida ta‘lim muassasalari va mahalla xamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 03.08.2021 yildagi 490-sonli “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori ² qabul qilinishi munosabati bilan yosh yigit-qizlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, bo‘lg‘usi ota-onalar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni har qanday jinoiy unsurlardan hamda tashqi tajavuskor kuchlardan himoya qilish, ularni vatanga sadoqatli, milliy urf-odatlar, an‘analar, ota-bobolarimizdan me‘ros bulib qolgan milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadida aniq chora tadbirlar belgilab, olindi. Zero, yoshlar–yurt kelajagidir. Ularning ulg‘ayib, mamlakatimizning taraqqiyoti va farovonligi yo‘lida hamjixatlik bilan intilishlari biz qurayot buyuk davlatning poydevori mustaxkam bo‘lishiga xizmat qiladi.

¹ <https://lex.uz/docs/-1685726>

² <https://lex.uz/docs/-5550539>

O‘smir yoshlarning xuquqiy ongi va savodxonligini oshirish uchun maktab quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1) “Yoshlar kelajagimiz poydevori” shiori ostida tadbirlar o‘tkazilishi, bu tadbirga barcha huquq-tartibot organlari, mahalla faollari, o‘rta va oliy ta‘lim yurtlari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining vakillarining ishtirokini ta‘minlash;

2) maktabdagi yoshlarni sport va fan to‘garaklariga jalb etish;

3) barkamol avlodni tarbiyalashda hamda sog‘lom oilalarni shakllantirishda mamlakatimizdagi mavjud nodavlat, notijorat tashkilotlari, jumladan viloyat «Oila» ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlikda oilada sog‘lom muhitni yaratishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazilishi tashkil etish;

4) doimiy o‘zaro janjallar sodir bo‘ladigan, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalariga ruju qo‘ygan va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanmasdan, o‘z holiga tashlab qo‘ygan ota-onalar hamda ularning farzandlari bilan uchrashuv - tadbirlar tashkil etish;

5) maktabdagi tarbiyasi og‘ir, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarni turmush tarzini doimiy nazoratga olib, ular bilan muntazam ravishda psixolog va guruh rahbari bilan birgalikda suhbatlar olib borish;

6) maktab ma‘muriyati IIB voyaga etmaganlar bilan ishlovchi hodimlar bilan hamkorlikda dars mashg‘ulotlarga sababsiz qatnashmasdan, o‘tkinchi orzu-xavasga berilib, yengil-elpi mablag‘ topish maqsadida, bozor, savdo do‘konlari, ko‘cha-kuyda o‘zboshimchalik bilan ota-onasining e‘tiborisiz yurgan voyaga yetmagan o‘quvchilar va ularning ota-onalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzurida tashkil etilgan voyaga yetmaganlar komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama etib, kelgusida bola tarbiyasini ijobiy tomonga o‘zgartirishning aniq choralari belgilash;

7) yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban «ommaviy madaniyat»ning turli illatlari xavfi va zararli ta‘sirlaridan himoya qilish maqsadida muntazam ravishda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib turishi;

8) o‘quv- ta‘lim muassasalarida uyali telefondan, video tasvirlarni aks ettiruvchi multimedia vositalaridan foydalanish tartibini belgilash, ularga tegishli cheklovlar joriy qilish, o‘quv muassasalari mas‘ul xodimlari vakolatlarini kengaytirish bo‘yicha tegishli huquqiy ba‘zani yaratish hamda shu sohada profilaktik tadbirlar o‘tkazilishi ta‘minlash;

9) ta'lim maskanida xavfsizlik va yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha o'quvchilarning bilim saviyalarini oshirish, yong'in xavfsizligi talablarini tushuntirish, ularni ushbu qoidalarga rioya qilishga o'rgatish, shuningdek, bolalarda bu boradagi bilimlarga qiziqish uyg'otish maqsadida viktorina, o'yin va konkurslar tashkil etish³.

O'smir yoshlarning xuquqiy ongi va savodxonligini oshirish uchun ota – onalar tomonidan qo'llaniladigan har qanday tarbiya vositalari ularda ijobiy xususiyatni shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Ota-onalar farzandlarini qayta tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'yib, tarbiya uslublari tizimini o'rganish, ya'ni zaruriy xulq-atvorni shakllantirish maqsadida, shaxsga tarbiyaviy - tashkiliy ta'sir ko'rsatish yo'llari va uslublari majmui orqali singdirish lozim. Tarbiya uslubining to'g'ri tanlanganligi o'smirlar tarbiyasiga ijobiy turtki bo'ladi. Oilada o'smirlarni tarbiyalashning ishontirish, ijobiy natija, rag'batlantirish va jazolash kabi uslublar asosiy o'rin tutadi.

Bolalarni qayta tarbiyalashda ishonch yoki ishontirish uslubi yetakchi o'rin egallaydi. Bu uslubni qo'llashda ota-onalardan samimiylik va rostgo'ylik talab qilinadi. Ishontirish uslubining asosiy shakllaridan biri suxbat bo'lib hisoblanadi⁴. Bunda puxta tayyorgarlik talab etilib, u asosan, guruh rahbari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Suxbat, asosan, o'smirning nojo'ya xatti-xarakatini tahlil qilgan holda ko'riladi. Ishontirish bilan birgalikda ota-onalar boshqa, ya'ni buyruq berish, pand-nasixat qilish, ehtiyotkorlik shakllarini ham ko'llashlari lozim. Nasixat qilish jonga tegadigan va har qanday holatda injiqlik qilishga majburlashga aylanmasligi kerak. Ehtiyotkorlik, o'smirni har qanday nojo'ya harakatlarni amalga oshirishdan saqlaydi. Ishontirishning asosiy shakllaridan biri – do'stona maslaxat berish.

Qayta tarbiyalashning boshqa uslublaridan yana biri – mashq bajarish uslubi hisoblanadi. Bunda ijobiy – axloqiy tajriba to'plash maqsadida, o'smirning o'zi jamiyat uchun foyda keltiradigan faoliyatga ishtirok etadi. Bu esa, ongli-axloqiy xulq-atvor malakasini shakllantirish imkonini beradi. Mashq bajarish uslubi tizimlilikni talab etadi, qaysiki, uning doimiy qo'llanilishi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

³ Karimova V. Targ'ibotning psixologik uslublari.-T.: "Ma'naviyat", 2001. 32- b

⁴ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., 1998.47-b.

Ma'naviy – ahloqiy odatlarning hosil bo'lishi xulq-atvor va xatti- xarakatlarning ijobiy siljishini ta'minlaydi. Oilada o'quv mehnati ko'nikma va malakasi shakllanishi jarayoni yanada yaxshiroq natija beradi, agar ota-onalar :

➤ Bilim olishda qiziqтира oladigan dalillarni ishlata olish, ya'ni bilim olishga bo'lgan intilishlarini yaxshi tomonga o'zgartirish, guruhdagi namunali o'quvchilar darajasiga ko'tarilishi, obro` qozonishda;

➤ O'smirni yomon o'zlashtirishi uchun jazolamasdan, qiynalayotgan fanlariga ko'maklashishda;

➤ O'smirga bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishiga yordamlashish, unda jamiyat oldidagi mas'uliyatini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashda;

➤ Jamoaga bo'ysunish, jamoa ishiga faol qatnashishga ko'maklashish⁵.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarning xuquqiy ongi va savodxonligini oshirishda maktab va oila xamkorligining roli kattadir.

Oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, xotirjamlik xissiyoti muhiti mavjudligi - bola tarbiyasining to'g'riligidan dalolat beradi. Oila xotirjamligi hissiyoti muhitining asosida ota-onalar va farzandlari o'rtasidagi samimiylilik, bir-birlariga ishonch munosabatlari yotadi.

⁵ Begmatov A., Rustamova R. Milliy g'oyani targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. T.: Ma'naviyat, 2007. 19-b.

SYNAPSES: INSIGHTS ACROSS THE DISCIPLINES
VOLUME-1, ISSUE-5 (31-December)
MUNDARIJA

1	THE HISTORY OF STUDYING PALEOLITHIC SITES IN THE QIZILQUM REGION Pardayev Lazizjon Ahmad o'g'li	4-7
2	AFROSIYOBNING MUDOFAA DEVORLARI. Tursunov Ulug'bek Ismoil o'g'li	8-13
3	FUNCTIONS AND USAGE OF METAPHOR Scientific supervisor: Gofurova Sarvara, Student: Qurbonaliyeva Gulrukh	14-17
4	FUNCTIONS OF SYNTACTICAL STYLISTIC DEVICE OF INVERSION G'ofurova Sarvaraxon, Matkarimova Odina Ulug'bek qizi	18-21
5	THE TRIANGULATION METHOD USING FOR THE DISTANCE TO THE OBJECT MEASUREMENT IN A COLLABORATIVE ROBOT WORKSPACE Vladyslav Yevsieiev ¹ , Svitlana Maksymova ¹ , Dmytro Gurin ¹ , Ahmad Alkhalaileh ²	22-35
6	TURIZM SOHASIDA OVQATLANISH XIZMATINING O'RNI VA AHAMIYATI Mamarajabov Adham	36-38
7	БУЙРАК ВА БУЙРАК КАСАЛЛИКЛАРИ Саидов Жасур Бахтиярович, Бекмирзаев Эшқувват Рўзиевич, Саидов Жасур Бахтиярович	39-42
8	АХМАТ ЯССАВИЙНИНГ FALSAFAGA QOSHGAN HISSASI Nosirov Alimardon Musojon o'g'li	43-48
9	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIIY O'ZGARISHLAR Boyto'rayev Sirojiddin Usmonovich, Muhammadov Xosilbek Ergashali o'g'li	49-55
10	O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK , FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKILLANISHI , AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHATLAR Rajabov Xaqnazar Anvarjon o'g'li, Boyto'rayev Sirojiddin	56-61
11	O'ZBEKISTON DEMAIRATIIYASI FUQAROLIKNI JAMIYATNI O`SRIRISH Rajabov Xaqnazar Anvar o'g'li, Boyto'rayev Sirojiddin	62-65
12	O'ZBEKISTONING O'ZIGA XOS TARAQIIYOT YO'LI	66-69

	Boyto'rayev Sirojiddin, Nurbayev xurshid Erkin o'g'li	
13	XALQ AMALIY SAN'ATIGA OID SO'ZLARNI O'ZBEK INGLIZ TILIDAGI MASALALARI Sottorova Oysuluv Eshmirza qizi	70-73
14	TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI Sottorova Oysuluv Eshmirza qizi	74-76
15	ERTA BOLALIK DAVRIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI VA UNING KEYINGI O'QUV MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI Hamidjonova Hilola Behzod qizi, Saliyeva Ziroat Zokirovna	77-79
16	SEASONAL CUSTOMS RELATED TO AGRICULTURE IN THE MIDDLE ZARAFSHAN VALLEY Shakhlo Torayeva	80-87
17	QOBILIYAT Ismoilov Abdumalik Maxmayusuf o'g'li, Akhmedovdiyorbek7@gmail.com	88-94
18	O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA EKSTRIMAL TURIZMGA ETIBOR BERISH NATIJALARI Hazratqulov Lochinbek Nodir o'g'li, Uralov Lochinbek Mamaraimovich, Sharifov Abdulaziz Baxodir o'g'li	95-100
19	EFFECTIVE TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS Mamarajabova Suğdiyona Zamir qizi, Shamuradova Naima Muxtorovna	101-103
20	RAQAMLI BANK XIZMATLARI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ULARNING MIJOZLARGA TA'SIRI Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li, Mironshox Murodov	104-110
21	THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON CARGO INSURANCE SERVICES IN UZBEKISTAN Ibragimov Kamal Ikram ugli	111-116
22	ROBOT MANIPULATOR CONTROL SYSTEMS COMPARISON WITHIN THE CONCEPTS INDUSTRY 5.0 AND INDUSTRY 4.0 Vladyslav Yevsieiev, Amer Abu-Jassar2, Svitlana Maksymova, Nataliia Demskal	117-127
23	LOYIHA BOSHQARUVIDA RAHBARNING ROLI Abduxalilov Temurbek Ixtiyor o'g'li	128-132
24	XX ASR JAHON TA'LIM TIZIMIDAGI GLOBAL TENDENSIYALAR Azamat Xudoyqulov Joraqul o'g'li	133-148

25	MORPHO-FUNCTIONAL ANALYSIS OF LUNG HYPOPLASIA IN CHILDREN. Ruziev Farkhod Kurbanovich	149-157
26	HUQUQIY TARBIYA Ibodov Matlab Baxodir o'g'li	158-162
27	THE ROLE OF LANGUAGE IN SHAPING GENDER AND SEXUALITY IN EUROPE Payzullayev Shakhriyor Rustam Ugli	163-165
28	TARBIYANING UMUMIY METODLARI Eshtemirov Samandar Shuxrat o'g'li	166-170
29	TA'LIM MAZMUNI Madaminov Doniyor Davrbek o'g'li	171-177
30	AXMAD AL FARGONIY Saitov Ramzidin Zayniddin o'g'li	178-181
31	BOLALARDA ATOPIK DERMATIT, UNING MAHALLIY DAVOLASH USULLARI Boltaeva Shirin Baxtiyorovna	182-185
32	THE ISSUE OF COHERENCE IN INTERPRETATION Abdullayeva Poshshajon	186-190
33	ANAMNEZIDA HOMILA TUG'MA NUQSONLAR VA HOMILANING O'SISHDAN TO'TASHI SINDROMI BO'LGAN AYOLLARDA HOMILADORLIK KECHISHINING O'ZIGA XOSLIGI Yangibayeva D.T., Yuldasheva D.Yu., Choriyeva G.Z, Sadullayeva U.A.	191-197
34	METHODS FOR OBTAINING PRIMARY AROMATIC AMINES, NITRO COMPOUNDS, PROPERTIES OF AMINO COMPOUNDS Kungiratov Inom Nazarullayevich, Mamatqoriyev Otabek Vahobjonovich	198-201
35	BORLIQ FALSAFASI HAQIDA MAQOLA Diyorbek Mamadiyev, Qo'shoqov Umidbek	202-211
36	AMIR TEMUR O'GITLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI Ro'zimurodov Jasurbek tohir ug'li	212-217
37	FALSAFANING JAMIYATDAGI O'RNI Mahkamova Mohinur To'hta qizi, Suvonova Muxlisa Sharif qizi	218-226
38	OZBEKISTONING ENG YANGI TARIX O'QUV FANING PREDNIDI MAQSAT VA VAZIFADORI NIGORI Boyto'rayev Sirojiddin, Nurbayev xurshid Erkin o'g'li, Nosirov Alimardon Mosajon o'g'li	227-231
39	VATANPARVARLIK TARBIYASI	232-242

	Qulnazarov Diyorbek	
40	BLOCKCHAIN IN INSURANCE: ENHANCING TRANSPARENCY AND EFFICIENCY Anvarov Bekhzod Alisher o'g'li	243-247
41	INFLATION DYNAMICS IN UZBEKISTAN: TRENDS, CHALLENGES, AND POLICY RESPONSES FOR ECONOMIC STABILITY Khamdamova Ra'no	248-254
42	ZAMONAVIY MATBUOT XIZMATIDA OAV BILAN ALOQA O'RNATISH TAMOYILLARI Genjemuratova Rita	255-257
43	MUSTAQILLIK ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY SIYOSIY JARAYONLAR Boyto'rayev Sirojiddin, Imomov Murotjon G'ulamovich, Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li	258-262
44	O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS ISTIQLOL VA MUSTAQILLIK YO'LI Boyto'rayev Sirojiddin, Imomov Murotjon G'ulamovich, Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li	263-267
45	O'ZBEKISTON DEMOKRATIK FUQAROLIKNI JAMIYATINI OSHIRISH Boyto'rayev Sirojiddin, Imomov Murotjon G'ulamovich, Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li	268-272
46	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TARIX FANI Xaitov Dilshod, Boyto'rayev Sirojiddin	273-278
47	ARISTOTEL Imomov Murodjon G'ulom o'g'li., Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li	279-282
48	BARQAROR RIVOJLANISH, IQLIM MUAMMOLARI VA YANGI MAQSADLAR Qosimova Nodira Saidovna, Shodiyev Ramshid Muxtor o'g'li	283-287
49	ЦИТОЛОГИЧЕСКОЕ И ИММУНОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КАЛИФОРНИОНСКОГО КРАСНОГО ЧЕРВЯ Пардаев Эркин Соатович, Абдурахманов Зухриддин Алишеревич, Сайдалиева Санобарбиби Уткир кизи, Уринова Дилафруз Шухратжоновна, Рузиева Озода Икромовна	288-291
50	JAHON BOJXONA ISHIDA TERMINLARNING O'RGANILISHI Gulmira Berdiyeva	292-295
51	AREAL SHEVALARNING O'RGANILISHI DOIRASIDA AYRIM MULOHAZALAR	296-298

	Fayoza Normurodova	
52	AMIR TEMUR DAVLATINING G‘ARB OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISH TARIXI Hasan Qurbonov , Izzat Maxmaraimo	299-303
53	O‘ZBEKISTONDA QATOGON DAVRLARI Quvonchbek Abdiraxmatov, Zohidjon Boxodirov , Bunyod Eshboltayev , Sirojiddin Boyto‘rayev	304-311
54	KRIMINALISTIK TRASOLOGIYA Xaitmurat Mamanarov	312-316
55	HUJJATLARNI KRIMINALISTIK TEXNIKA USULIDA TEKSHIRISH Xaitmurat Mamanarov	317-322
56	INVESTIGATING THE COGNITIVE BENEFITS OF BEING BILINGUAL, INCLUDING HOW IT EFFECTS PROBLEM SOLVING SKILLS AND CREATIVITY Iroda Karimova , Nozima Khamrayeva	323-330
57	ISLAMIC FINANCE Diyorabonu Baxtiyorova , Shaxnoza Muzropov	331-335
58	I.S. TURGENEV'S NOTES OF A HUNTER: DEPICTIONS OF PEOPLES LIVES Ravshangul Mansurova	336-340
59	TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY XIZMATLARI HAMDA ULARDAN FOYDALANISH KAPITALBANK MISOLIDA Aziza Davlatyorova	341-350
60	O‘YIN VA SPORT SIFATIDA GIMNASTIKANING IJTIMOY AHAMIYATI Muslimbek Mirzalimov	351-357
61	TO‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR TIZIMI Kamola Muxiddinova	358-365
62	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI Azizbek Bo‘riboyev	366-371
63	YANGI ZAMON BOLALARIDA ZO‘RAVONLIKNING YANGI TURLARI VA ULARGA QARSHI HIMOYA MEXANIZMLARI Abbosova U.E	372-376
64	O‘SMIRLAR XUQUQIY ONGI VA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MAKTAB VA OILA XAMKORLIGI Vapayev Sarvarbek Rajabbayevich	377-380

	MUNDARIJA	381-386
--	------------------	----------------